

SAODAT KAMBAROVA

O'ZBEK ADABIYOTINI
O'QITISH METODIKASI



ISBN 978-9943-8018-2-0

A standard linear barcode representing the ISBN number 978-9943-8018-2-0.

9 789943 801820

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK
TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

SAODAT KAMBAROVA

**O'ZBEK ADABIYOTINI O'QITISH
METODIKASI**

Uslubiy qo'llanma

**“Mahalla va Oila” nashriyoti
Toshkent – 2022**

KBK: 74.268.3

K 20

UO‘K: 37.091.3:821.512.133

ISBN 978-9943-8018-2-0

Kambarova, S.

O‘zbek adabiyotini o‘qitish metodikasi [Matn] : uslubiy qo‘llanma /
S. Kambarova. – Toshkent: Mahalla va Oila, 2022. - 128 b.

Uslubiy qo‘llanma 5111200 – O‘zbek tili va adabiyoti bakalavr ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun mo‘ljallangan bo‘lib, unda O‘zbek adabiyotini o‘qitish metodikasi fanidan laboratoriya mashg‘ulotlarini tashkil etish va o‘tkazish mazmuni yoritilgan.

Qo‘llanmadan talabalar qatori magistrantlar, uzluksiz ta’lim tizimi adabiyot fani o‘qituvchilari hamda mustaqil izlanuvchilar ham foydalanishlari mumkin.

Mas’ul muharrir:

Safo Matchonov – pedagogika fanlari doktori, professor

Taqrizchilar:

Roza Niyozmetova – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti O‘zbek adabiyotini o‘qitish metodikasi kafedrasi professori, pedagogika fanlari doktori

Gulnora Xolboyeva – Jizzax davlat pedagogika instituti Boshlang‘ich ta’lim metodikasi kafedrasi mudiri, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

Uslubiy qo‘llanma Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti O‘quv-uslubiy kengashining 2022-yil 26-fevraldaggi yig‘ilishida (6-sonli bayonnomma) nashrga tavsiya etilgan.

© Kambarova S.
© “Mahalla va Oila” nashriyoti, 2022.

KIRISH

Laboratoriya mashg‘ulotlari fan asoslarining amaliyot bilan o‘zaro uyg‘unligini ta’minlash, ta’lim oluvchilarni individual faoliyatga undash, mustaqil bilim olish, o‘z ustida ishlash, mavjud intellektual imkoniyatlarni to‘la namoyon etishga xizmat qilishi nuqtayi nazaridan ham ahamiyatlidir. Laboratoriya mashg‘ulotlari talabalarining muayyan yo‘nalishda o‘zlashtirilgan bilimlarini mustahkamlashi barobarida tabiat va jamiyatdagi muammolarni tushunish va hal qilishga doir ko‘nikmalarini shakllantirish maqsadini ham nazarda tutadi.

Laboratoriya mashg‘ulotlarini o‘tkazishning o‘ziga xos didaktik va metodik tamoyillari mavjudki, ular ma’lum talablarda namoyon bo‘ladi. Xususan, bunda talabalarining fan yuzasidan egallagan bilim, ko‘nikma va malakalarini rivojlantirishda muhim sanalgan vazifalarni bajarishga qaratilgani, ya’ni o‘rganilgan mavzu doirasida uning mohiyatini ta’lim oluvchilarga yetkazishga doir topshiriqlar tuzish, sxema, chizma, jadval, diagrammalar tuzish, multimedia vositalari yordamida ta’limiy mahsulot (audiomaterial, videodars, dars ishlanmalari, ko‘rsatmali qurollar)lar yaratish kasbiy sifatlarini rivojlantirish, shuningdek, muayyan samaradorlikni ta’minlanishga xizmat qiladi. Laboratoriya mashg‘ulotlari fan xususiyatlari hamda talabalarining ehtiyoj va qiziqishlarini ko‘zlab yaratilishi maqsadga muvofiq. O‘zbek adabiyotini o‘qitish metodikasi fanidan laboratoriya mashg‘ulotlari topshiriqlari oliy o‘quv yurtlari namunaviy o‘quv rejasiga kiritilgan o‘quv dasturiga muvofiq fanning eng so‘nggi yutuqlarini o‘zida mujassam etgan holda tuzilgan.

O‘zbek adabiyotini o‘qitish metodikasi fanidan laboratoriya mashg‘ulotlariga doir topshiriqlarni tuzishda quyidagi mezonlarga tayanildi:

- topshiriqlarning aniq, puxta va muayyan maqsadga qaratilishi, bunda talabalarining yosh va fiziologik xususiyatlari, shuningdek, mavjud bilimlarining nazarda tutilishi;
- topshiriqlarning qulay va yengil bajarilishiga sharoit yaratish maqsadida mantiqiy ketma-ketlik asosida chizmalar, jadvallar va illyustratsiyalardan unumli foydalanish;
- laboratoriya topshiriqlari mazmuniga doir adabiyotlar, muayyan tavsiya va fikrlarlarni tahlil qilish va amalda qo‘llash;
- topshiriqlar fan dasturiga mos va to‘liq shaklda bajarilishi; aniq va xatosiz olib borilishiga erishish; hajmining me’yorida bo‘lishi;

- talabalarning amalda topshiriqlar yuzasidan mustaqil ish olib borishlariga tegishli sharoit yaratish va ish natijalarini xulosalashga imkon yaratishi.

Quyidagi vazaifalarni hal etish laboratoriya mashg‘ulotlarini tashkil etishda muhim sanaladi:

- talabalarning mustaqil faoliyat yuritish ko‘nikmlarini rivojlantirish;
- egallangan bilimlarni amalda qo‘llay olish;
- o‘zlashtirilgan nazariy bilimlarni mustahkamlash;
- talabalarga o‘zini o‘zi yoxud o‘qituvchiga talabalar bilimini nazorat qilish va baholash imkoniyatini yaratishi va h.k.
- topshiriqlar ilmiy asoslanishi, farazlar, ta’riflar va nazariyalar bilan bog‘lanishi;
- talabalar topshiriq orqali qo‘yilayotgan masalaning muhim jihatlarini anglab yetishi;
- o‘rtacha o‘zlashtiradigan talabalarga mo‘ljallangan bo‘lib, yuqori va past darajada bilimga ega talabalar imkoniyatlari e’tiborga olinishi.

Talabalar O‘zbek adabiyotini o‘qitish metodikasi fanidan laborotoriya mashg‘ulotlarini bajarishda ishni bajarish mazmuni bilan tanish bo‘lishlari zarur. Bular quyidagilardan iborat:

- dasturda ko‘rsatilgan mavzuga doir maqsadni belgilash;
- zarur jihozlarni tanlash;
- ishning bajarilish tartibini rejalashtirish;
- topshiriqda ko‘rsatilgan jihatlarni ochib berish;
- jarayonni kuzatib borish (o‘qituvchi yoki laborant tomonidan);
- ish o‘rnida zarur asbob-uskuna yoki jihozlar bo‘lishini ta’minlanash;
- olingan natijalarni jurnal yoki daftarga qayd etib borish;
- ish bajarilganidan so‘ng hisobot tayyorlash.

Topshiriqlarning muvaffaqiyatli bajarilishi uchun o‘qituvchi tomonidan faoliyat maqsadi va mazmuni batafsil tushuntirilishi; ishni bajarish algoritmi namuna asosida ko‘rsatib berilishi; talabalar tomonidan amalga oshirilishi zarur hisoblangan o‘quv harakatlari nazorat qilinishi; tegishli ko‘nikmalar egallangunicha topshiriqlarni qayta-qayta bajarish talab etiladi.

Hisobot tayyorlash mazmuni quyidagilardan iborat:

- laboratoriya ishining nomi; ishni bajarishdan maqsad; tajriba obyekti va vositalari; ish tartibi; natijalar va xulosalar.

LABORATORIYA MASHG‘ULOTLARI MAVZULARI

№	Mavzular	Ajratilgan soati
1	5-sinflar uchun “Dunyoning ishlari” mavzusi yuzasidan didaktik materiallar tayyorlash	2
2	Adabiy-nazariy tushunchalarni o‘rganishga oid jadvallar tayyorlash. 6-sinfda Erkin Vohidovning “Nido” dostonining o‘rganilishiga oid elektron dars ishlanmasi tayyorlash	2
3	5-sinflarda ruboiy janrini o‘rganishga qaratilgan didaktik o‘yin texnologiyalarini ishlab chiqish	2
4	6-sinfda X.To‘xtaboyev ijodini o‘rganish mavzusiga oid videodars tayyorlash	2
5	7-sinflar uchun epik asarlarni o‘qitishga qaratilgan topshiriqlar ishlab chiqish	2
6	Yozuvchi hayoti va ijodini o‘rganish yuzasidan savol va topshiriqlar ishlab chiqish.	2
7	Akademik litseylar uchun Navoiy dostonlarini o‘rganishga va tahlil qilishga qaratilgan multimedia mahsulotlari tayyorlash	2
8	O‘qitish metodlari bo‘yicha materiallar tayyorlash	2
9	Akademik litseylar uchun Bobur hayoti va ijodini o‘rganishga qaratilgan multimedia mahsulotlarini tayyorlash	2
10	Cho‘lponning “Kecha va kunduz” asarini obrazlar tizimi orqali o‘rganishga qaratilgan videodars va taqdimot tayyorlash	2
11	Akademik litseylar uchun Zulfiya hayoti va ijodini o‘rganishga qaratilgan multimedia mahsulotlarini tayyorlash	2
12	Badiiy asar qahramonlarini baholashga o‘rgatishga yo‘naltirilgan dars ishlanmalari tayyorlash	2

5-SINFLAR UCHUN “DUNYONING ISHLARI” MAVZUSI YUZASIDAN DIDAKTIK MATERIALLAR TAYYORLASH

Ishning maqsadi: talabalarni umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 5-sinflari uchun “Dunyoning ishlari” mavzusi yuzasidan didaktik materiallar tayyorlash mazmuni bilan tanishtirish va mavzuni o‘zlashtirishlariga yordamlashish.

Foydalanish uchun adabiyotlar:

1. Umumiy o‘rta ta’limning 5-sinf “Adabiyot” fani o‘quv dasturi.
2. Ahmedov S. va boshq. Adabiyot: Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik. – Toshkent.: Sharq, 2020. – 131-146-b.
3. O‘tkir Hoshimov. Dunyoning ishlari. –Toshkent: Sharq, 2005. – 208 b.
4. Файзиева М., Сайфуров Д. Виртуал таълим технологияси. – Toshkent: ТДПУ, 2006. – 155 б.

Kerakli jihozlar: multimedia vositalari (kompyuter, ovoz yozish moslamalari), didaktik materiallar tayyorlash uchun turli rangdagi qog‘ozlar, markerlar.

Ishni bajarish tartibi:

1) talabalar dastlab 5-sinflar uchun mo‘ljallangan “Adabiyot” o‘quv dasturi bilan tanishib chiqishlari, dasturdan O‘.Hoshimovning “Dunyoning ishlari” asarini o‘rganishga ajratilgan dars soatini aniqlashlari, qissani o‘rganishda e’tibor qaratilishi zarur bo‘lgan jihatlar, malaka talablarini aniqlashlari va belgilashlari maqsadga muvofiq. Xususan, o‘quv dasturida masalaga quyidagicha yondashilgani haqida tasavvur hosil qildirish:

“O‘tkir Hoshimov. “Dunyoning ishlari” qissasi. (4 soat, A2+: 6 soat)

O‘tkir Hoshimovning hayoti va ijodi haqida qisqacha annotatsiya.

“Dunyoning ishlari” qissasidan olingan boblarda ona, o‘g‘il va boshqa obrazlarning jonli tasvir etilgani. Qissaning “Alla”, “Iltijo” boblarida insonning Ona oldidagi farzandlik burchining, hech qachon to‘lab bo‘lmas qarzning ta’sirchan ifodalangani. Onani qo‘msash, uni sog‘inish, uning hech kim bilan almashtirib bo‘lmaydigan mehri oldida qarzdorlik tuyg‘usining ifodalanishi (2 soat).

“Oq, oydin kechalar”, “Tush”, “Gilam paypoq” fasllarida Ona qalbidagi cheksiz mehr-muhabbat tuyg‘usining samimiy ifodasi. Asarning badiiy xususiyatlari (2 soat)”¹.

2) darslikdagi qissadan berilgan parchalar mazmuni, savol-topshiriqlar bilan tanishish va shu asosda audiomateriallar, tarqatma materiallar, taqdimotlar, jadvallar hamda ko‘rgazmali qurollar tayyorlashlari zarur.

Talabalar didaktik materiallar, ularning turlari, qo‘llanish o‘rinlarini o‘qituvchi yordamida o‘rganadilar. Ish jarayonida didaktik materiallarning xususiyatlarini o‘zlashtirishlari, yoddan bilishlari, tayyorlashni hamda qo‘llashni o‘rganishlari lozim (1-ilova). To‘plangan ma’lumotlar ish daftariga qayd qilinadi.

Namuna: Badiiy asarlar asosida yaratilgan audiomatnlarni tinglab tushunishga doir amaliy tavsiya tayyorlang.

“Adabiyot fani bo‘yicha umumiyo‘rtta va o‘rtta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalari bitiruvchilariga qo‘yiladigan malaka talablari”da adabiy-nutqiy kompetensiyalar (*tinglab tushunish, fikrni og‘zaki bayon qilish, o‘qish, fikrni yozma bayon qilish*)ning A2 darajasi mazmuni quyidagilardan iborat:

O‘quvchilarda shakllantirilishi ko‘zda tutilgan fanga oid kompetensiya elementlari:

Adabiy-nutqiy kompetensiyalar (*tinglab tushunish, fikrni og‘zaki bayon qilish, o‘qish, fikrni yozma bayon qilish*):

A2

badiiy asarlar asosidagi audiomatn, videotasvir va filmlarni ko‘rib, tinglab tushuna oladi; nasriy va she’riy asarlarni ifodali o‘qiy oladi; ularning mazmun-mohiyatini tushuna oladi; badiiy asarlar syujetini qayta hikoya qila oladi; ular asosida kichik insho yoza oladi.

A2+

badiiy asar asosida yaratilgan kichik sahna ko‘rinishlarida qahramonlar rolini ijro eta oladi; ifodali o‘qishda to‘g‘ri nafas olish, to‘xtam, ritm, tembr va urg‘uning ahamiyatini tushuna oladi.

Badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasi

A2

asarda tasvirlangan voqeа-hodisalar, qahramonlarning fazilat va nuqsonlarini tushuntira oladi.

A2+

¹ Umumiyo‘rtta ta’limning Davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturi. Ona tili. Adabiyot. 5-9-sinf // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. – Toshkent: 2017-yil 14 (774)-son, 230-modda. – 29-b.

xalq og‘zaki ijodi, mumtoz, zamonaviy va jahon adabiyotidan o‘rganilgan asar qahramonlarini farqlay oladi va ularga xos sifatlarni aytib bera oladi”².

Badiiy asarlarni tinglab tushunish ko‘nikmalarini shakllantirishda talabalar tinglab tushunish haqidagi nazariy ma’lumotlarni o‘rganishlari maqsadga muvofiq. Masalan, ta’lim oluvchi matnni tinglab tushunishda “sohaviy ilmiy-ommabop nutqni tushunadi, tinglangan matndagi asosiy axborotni ajratib oladi, ommaviy axborot vositalaridagi dolzarb axborotlar mazmunini, maqsadini idrok etadi, tinglab tushunadi. Nutqning to‘g‘riliqi, mantiqiy izchilligi, sofligi va ta’sirchanligini anglaydi, barqaror atamalar, kasb-hunar so‘zlarining ma’no xususiyatlarini farqlaydi”.

O‘quvchilarda “Dunyoning ishlari” asaridan berilgan boblarni tinglab tushunish ko‘nikmasini shakllantirishda mavzuga oid tayanch so‘zlar, savollar, asardan berilgan matnlarni tushunib, savollarga javob berish, asarni o‘qish jarayonida farzandi uchun har qanday mashaqqatlarga tayyor, sharoqna odob-axloq mezonlarini o‘zida mujassam etgan ona obraziga xos xususiyatlarni o‘rganishlari nazarda tutiladi. Bunda asardan berilgan parchalarni tinglash jarayonida hikoyachi-qahramon ruhiyatidagi kechinmalarni his qilish, Onaning farzandiga bo‘lgan tuganmas mehr-muhabbati, bu ulug‘ zot oldidagi burch, qarzdorlik tuyg‘usini anglashlarida shu jihatlar aks etgan o‘rinlarga diqqat qilinadi. So‘z ustalarining ona obraziga xos xususiyatlarni tinglovchiga yetkazishda urg‘u qaratgan o‘rinlar belgilanadi. Asarga ishlangan radiopostanovka va filmlar bilan chuqurroq tanishiladi. Jumladan, “Gilam paypoq” hikoyasidagi quyidagi lavhaga e’tibor qaratish orqali qahramonlarga xos ichki kechinmalar, his-tuyg‘ular anglanishi nazarda tutiladi:

“O‘shanda necha yoshdaligim esimda yo‘q. Biroq juda kichkina edim. Bir kuni akalarim bilan yaxmalak o‘ynab terlab ketdim. Terlab turib muz yedim. Kechqurun isitma ko‘tarildi. Quv-quv yo‘talaman. Oyim tomog‘imni achchiqtosh bilan chayib ko‘rdi, bo‘lmadi, turshak qaynatib suvini ichirdi, bo‘lmadi... oxiri tomog‘imni xippa bo‘g‘ib qo‘ydi. Og‘riqni sezmayman-u, nafas olishga qiynalaman. Hushimdan keta boshlaganimni es-es bilaman. Qulog‘im ostida onamning chirqillab yig‘lagani, hadeb bir gapni qaytarayotgani eshitiladi:

² Umumiyo‘rtta ta’limning Davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturi. Ona tili. Adabiyot. 5-9-sinf // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. – Toshkent: 2017-yil 14 (774)-son, 230-modda. – 30-31-b.

– Voy, endi nima qilaman! Voy, bolam o‘lib qoladi!

Keyin meni shosha-pisha ko‘rpachaga o‘radi. Bir mahal onamning qo‘lida ketayotganim esimda bor. Gupullab qor yog‘ayotganini his etib turardim-u, biroq yuzimga qor tushmas edi. Onamning issiq nafasi urilib turar, u sirpanib borar, og‘ir hansirar edi...

Xira chiroq miltirab turgan allaqanday uyga kirdik. Ko‘z o‘ngim yana qorong‘ilashib ketdi. Oyim hamon chirqillaydi:

– O‘lib qoladi! Bolaginam o‘lib qoladi!

– Vahima qilmang, poshsha, dardni bergan xudo, davosiniyam beradi.

Bu Hoji buvining ovozi ekanini g‘ira-shira idrok etdim ”³.

Topshiriq:

Hikoyachi nutqini o‘rganishga doir savollar tuzing.

“Alla” hikoyasini o‘rganishga oid audiomaterial tayyorlang.

Hikoya asosida audiomatn tayyorlashda quyidagilar nazarda tutiladi:

1) ifodali o‘qishga qo‘yiladigan talablar yodga olinadi (2-ilova);

2) ovoz yozish texnikasi mazmuni bilan tanishiladi;

3) asar matni bilan to‘liq tanishib chiqiladi;

4) hikoya hajmidan kelib chiqqan holda zarur epizodlar tanlanadi va vaqt rejalashtiriladi;

5) Internet manbalardan asar asosida tayyorlangan radiospektakllar, so‘z ustalari tomonidan o‘qilgan audioyozuvlар tinglanadi;

6) nutq texnikasiga qo‘yiladigan talablar asosida matn bir necha marta o‘qib mashq qilinadi;


7) matn yozib olinadi (ta’sirchanlikni ta’minalash maqsadida zarur o‘rnlarga musiqiy bezak beriladi);

8) tayyor materialga ishlov berishda alohida dasturlar asosida ortiqcha shovqinlar olib tashlanadi (3-ilova).

1-ilova

Didaktik materiallar ta’lim oluvchilardagi bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishga doir masala va mashqlar to‘plami, ma’lumotnomasi, tarqatma materiallar, ko‘rsamali va ko‘rgazmali vositalar, disketlar yoki multimedia kabi vositalar hisoblanadi. Didaktik vositalar ta’lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Ularning turlari quyidagi jadvalda keltiriladi:

³ Ahmedov S., Qo‘chqorov R., Rizayev Sh. Umumiy o‘rtalim maktabalarining 6-sinfi uchun darslik-majmua. II qism. – Toshkent: Ma’naviyat, 2017. –160 b.



2-ilova

Ifodali o'qishga asarning g'oyaviy-badiiy mazmunini idrok etish, munosabat bildirish, yozuvchining ifoda uslubini anglab yetish, o'z ovozi imkoniyatlaridan to'g'ri foydalana olish kabi talablar qo'yiladi. O'qituvchining ifodali o'qishga tayyorgarligi quyidagicha bir necha bosqichda amalga oshiriladi:

- yozuvchi hayoti va ijodining o'ziga xos xususiyatlari, asarda aks etgan nuqtayi nazari haqida ma'lumotlar toplash;
- badiiy asar tili ustida ishlash, tushunilishi qiyin so'zlarni belgilab olish;
- o'qish texnikasi ustida ishlash;
- har bir epizod va alohida sahnalarni o'qishda o'quvchilar oldiga qo'yiladigan vazifalarni belgilab olish.

Ifodali o'qish o'quvchilar tomonidan to'laqonli idrok etilishi uchun:

- a) qahramon roliga kirish;
- b) aks ettirilgan voqelikni o'z tasavvurida jonlantirish;
- c) matn mazmuniga nisbatan his-tuyg'ular uyg'ota olish talabiga ko'ra matndagi notanish so'zlarni izohlash;
- d) asarni qismlarga bo'lib o'qish, mazmunini tahlil qilish;
- e) ko'tarilgan muammoga munosabat bildirish kabi tayyorgarlik ishlari olib boriladi.

Ko'p yillik pedagogik faoliyatimiz davomida ta'lim oluvchilarni ifodali o'qishga o'rgatish murakkab jarayon bo'lib, asar janri, tavsif uslubi, yozuvchi nuqtayi nazari bilan bog'liq usullarni qo'llash ijobiy samara beradi, degan xulosaga kelindi. O'qituvchining ifodali o'qishi

talabalar faoliyatida o‘z aksini topishi uchun quyidagi usullarni qo‘llash samarali hisoblanadi:

– audio va video yozuvlar orqali yozuvchi yoki badiiy so‘z ustalari tomonidan o‘qilgan badiiy matnni tinglash; (Zulfiya, E.Vohidov, A.Oripov, O.Hojiyeva, O.Matjon, M.Yusuf, S.Sayyid, F.Afro‘z, E.Shukurlarning radioeshittirish va teleko‘rsatuvlarda o‘qigan she’rlaridan foydalanish mumkin).

– o‘zaro bog‘liq matnlarda nutqning to‘g‘ri ohangini ishlab chiqish (intonatsiya, marom, pauzalarni o‘z o‘rniga qo‘yish, mantiqiy urg‘ularni aniqlash);


– ko‘chirmalar, maqollar, matallar, aforizmlarni yoddan ifodali o‘qishga o‘rgatish.

Ifodali o‘qishga o‘rgatishning dastlabki bosqichida o‘qituvchi ovoz xususiyati va sur’ati haqida tushuncha berishi lozim. Matndagi ta’kidlovchi so‘zlarni ajratib, intonatsiya bilan talaffuz qilish asarning g‘oyaviy-obrazli mazmunini ifodalashda katta ahamiyatga ega. Bunda mantiqiy urg‘uning o‘rni muhim bo‘lib, unga ovozni ko‘tarish yoki pasaytirish orqali amal qilinadi. Mantiqiy urg‘u matndagi g‘azab, kesatiq, jirkanish, hurmat, samimiylilik singari turli hissiy holatlarni ochishga yordam beradi.

So‘zlarni aniq talaffuz qilish; talaffuzda bo‘g‘inlarga e’tibor berish; nutq maromi (tez, o‘rta, sekin)ni o‘zgartirib turish; ovoz balandligi (past, o‘rta, yuqori)ga ahamiyat qaratish orqali his-hayajonni ifodalay olish (buning uchun aynan bir so‘zni turli ohanglarda talaffuz qilish) ifodali o‘qish ko‘nikmalarini takomillashtirishga zamin yaratadi. Ifodali o‘qish texnikasi ustida ishlashni to‘g‘ri talaffuzning eng sodda usullari, jumladan, savodli nutqdan boshlash zarur.

Nutq savodi (to‘g‘ri nafas olish, urg‘uni to‘g‘ri qo‘yish, aniq talaffuz)ni o‘qituvchi mashg‘ulot jarayonida ko‘rsatib beradi. Asosiysi – ovoz bilan fikr va hislarning turli tovlanishlarini bera olish ko‘nikmasidir. Aynan turli intonatsiyalarning mavjudligi ifodali va oddiy nutqni bir-biridan ajratib turadi. Har bir belgi so‘z, so‘z birikmalari va gap turlarining qanday ma’no ifodalashiga xizmat qiladi. Yakka tinish belgilari butunni qismlarga ajratadi va ular orasidagi chegarani belgilaydi. Masalan:

Tinish belgilarining ma’no ifodasi



Adabiy talaffuzni to‘g‘rilash uchun o‘quvchilarga o‘qituvchi va suxandonlar nutqini diqqat bilan tinglash, so‘z talaffuzini orfoepik lug‘atdan tekshirib olish tavsiya etiladi. Badiiy matn ustida ishlayotganda o‘quvchilar ifodali o‘qishga, muallif fikrini intonatsiya bilan bera olishga, qalamga olingan voqeani fikran tasavvur qilishga o‘rganadilar.

Aynan bir iborani turlicha marom va intonatsiya bilan talaffuz qilish mumkin. Fikr bildirish maromi matn mazmuniga ko‘ra quvonchli, qayg‘uli, tantanali, ishonchli, da’vatkor, iltimos singari turli ohangda ifoda etiladi. Og‘zaki nutqda ma’nosi muhimroq bo‘lgan so‘z, ibora yoki gaplar ovozni balandlatish – mantiqiy urg‘u bilan ajratib ko‘rsatiladi. Ovoz chiqarib ifodali o‘qish his-tuyg‘ularni ifodalash madaniyatini tarbiyalaydi. O‘qish texnikasi ta’limning barcha bosqichlarida matn mazmunini tushunish ko‘nikmasi bilan bir paytda ro‘y beradi. Ifodali o‘qish ko‘nikmasini mustahkamlash va takomillashtirib borishda alohida mashg‘ulotlar tashkil qilish, bunga tayyorgarlik jarayonida o‘quvchini shoir yoki yozuvchining hammuallifi bo‘lib qolishiga ishontirish muhim o‘rin tutadi.

Mashg‘ulotlarda ifodali o‘qish rejasi o‘qituvchining yoddan o‘qishi, asarning g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari haqida suhbat o‘tkazish, nutq kompozitsiyasi ustida ishlash, intonatsiya va maromni aniqlash, qayta hikoyalash kabi faoliyat turlarini ko‘zda tutgan holda tuziladi.

Asarni ifodali o‘qish doim uning tahlili bilan bog‘liq. Tahlil badiiy asarning o‘ziga xosligi haqida o‘quvchilar tasavvurini chuqurlashtiradi, undagi nafosatni his qilishga imkon beradi. Turli janrdagi asarlarni idrok

etish asosida o‘quvchi so‘z zamiridagi ma’no tovlanishlaridan zavqlanadi, inson ruhiyati bilan bog‘liq sir-sinoatlarni anglash sari qadam qo‘yadi.

3-ilo va

Ovoz yozish va ovoz tahrirlash vositalari. Ovozli fayllarni kompakt diskka yozish, multimedia taqdimotlarini tayyorlash, videokonferensiyalarni o‘tkazish, o‘yinlar o‘ynash, audio CDlarni eshitish uchun ovoz platasi yoki audioadapter (audio – bu “ovozi”, adapter esa – manbadagi ma’lumotni kompyuterga o‘tkazuvchi texnik qurilma) deb nomlanuvchi karta zarur bo‘ladi. Ushbu tovushni qayta ishlovchi tovush platasi, tovush chiqarish vositasi, akustik tizimlar yoki yakka tinglagichlar hamda audio ma’lumotlarni kiritish uchun xizmat qiladigan mikrofon, ovozli kompakt-disk proigrivatellari, ovoz kolonkalari va boshqa qurilmalarga ulanadi. Tovush platasiga, shuningdek, magnitofon, elektr musiqa asboblari kabi audiokomplektlar ham ulanishi mumkin⁴.

Muhokama uchun savollar

Ish yakunida talabalarga quyidagicha jadval tarqatiladi va mavzu yuzasidan tegishli tavsiyalar ishlab chiqish vazifasi topshiriladi:

Savol-topshiriqlar	Natijalar
Mavzuni o‘rganishda qanday ish turlari va shakllaridan foydalandingiz?	
Bo‘lajak kasbiy faoliyat uchun zarur bo‘lgan qaysi jihatlarni o‘zlashtirdingiz?	
Bilib oldim:	
Tushunib yetdim:	
O‘rgandim:	
Mavzuni o‘zlashtirishda menga:	
Oson bo‘ldi:	
Qiyinchilik tug‘dirdi:	
Xalaqit berdi:	
1. Badiiy asarni organishda qanday shakl va mazmundagi didaktik materiallar tayyorlash samarali deb o‘ylaysiz? 2. Mavzu bilan ishslashda yuzaga kelgan muammolarni aniqlab, ularni bartaraf etish yo‘llarini bayon eting.	

⁴ Файзиева М., Сайфуров Д. Виртуал таълим технологияси. – Toshkent: ТДПУ, 2006. – 155 б.

LABORATORIYA ISHI TOPSHIRIQLARI

Eslatma: barcha variantdagi 1-topshiriqda “Dunyoning ishlari” asari to‘liq matni bilan tanishish vazifasi qo‘yiladi.

1-variant

O‘quvchilarning badiiy asar tahliliga doir kompetensiyalarini shakllantirishda samarali bo‘lgan didaktik materiallar haqida amaliy tavsiyalar tayyorlang.

“Alla” hikoyasini o‘rganishga doir audioyozuv namunalarini tayyorlang.

2-variant

Hikoya janrini o‘rganishda didaktik materiallarning o‘rnini nimalardan iborat ekanligi xususida amaliy tavsiya tayyorlang.

“Haqqush” hikoyasini o‘rganishga doir tarqatma materiallar tayyorlang.

3-variant

Asar qahramonlari ichki dunyosini tasvirlashda qanday didaktik materiallar tayyorlash maqsadga muvofiqligi yuzasidan amaliy tavsiya tayyorlang.

“Qarz” hikoyasini o‘rganishga doir ko‘rgazmali qurollar tayyorlang.

4-variant

Badiiy asarlarni o‘rganishda grafik organayzerlarning ahamiyati yuzasidan amaliy tavsiya tayyorlang.

“Iltijo” hikoyasini o‘rganishda badiiy asarning o‘ziga xos xususiyatlarini inobatga olib bir soatlik dars taqdimotini tayyorlang.

5-variant.

O‘quvchilar badiiy to‘qima va hayot haqiqati o‘rtasidagi o‘xshashliklarni anglashlarida qaysi turdagি didaktik materiallarni samarali deb bilasiz? Bu haqda amaliy tavsiya tayyorlang.

Badiiy asardagi kalit so‘zlarni aniqlashga doir topshiriqlar tuzing.

6-variant.

Yozuvchi mahoratini o‘rganishga doir didaktik materiallar qanday talablarga javob berishi zarurligi yuzasidan amaliy tavsiya tayyorlang.

“Dunyoning ishlari” asarini to‘liq o‘qib chiqishga doir savol-topshiriqlar tizimini ishlab chiqing.

7-variant.

Qaysi turdag'i didaktik materiallar o'quvchilarning adabiy-nutqiy kompetensiyalarini shakllantirishda muhim ahamiyatga egaligi xususida amaliy tavsiyalaringizni bayon eting.

“Alla” hikoyasini o'rganishda o'qishdan oldingi, o'qish davomidagi va o'qishdan keyingi savollar tuzing.

8-variant.

Asar qahramonlari nutqini dialoglarga aylantirishda nimalarga e'tibor qaratish zarurligi xususida amaliy tavsiya tayyorlang.

“Qarz” hikoyasi matniga doir dialoglar yaratish mazmunini yoriting. Bunda qaysi didaktik tamoyillarga amal qilinishi maqsadga muvofiqligini ko'rsating.

9-variant.

Og'zaki nutqni o'stirishga doir didaktik materiallar qanday xususiyatlarga egaligi xususida amaliy tavsiya tayyorlang.

“Gilam paypoq” hikoyasi tilini o'rganishga doir topshiriqlar tayyorlang.

10-variant.

Didaktik materiallarga qo'yiladigan estetik va gigiyenik talablarni bayon eting.

“Dunyoning ishlari” qissasiga yaratilgan film kadrlaridan foydalanib, albom yarating.

11-variant.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositasida tayyorlangan didaktik materiallarning o'quvchi psixofiziologik xususiyatlariga ta'siri yuzasidan amaliy tavsiya tayyorlang.

“Dunyoning ishlari” asarida yozuvchi shaxsiyati bilan bog'liq lavhalar aks etgan o'rnlarni aniqlashga doir topshiriqlar tuzing.

12-variant.

Didaktik materiallarga qo'yiladigan pedagogik-psixologik talablar nimalardan iboratligi yuzasidan amaliy tavsiya yarating.

“Dunyoning ishlari” asari bosh qahramonining ruhiy iztiroblarini tushunishga doir qanday didakatik materiallarni tavsiya etasiz? Misollaringizni amaliy tavsiyalar tarzida shakllantiring.

13-variant.

Ko‘rsatmali materiallar asar matni mazmunini qay darajda ohib berishiga doir fikrlaringizni yozma tarzda bayon eting.

“Oq oydin kechalar” hikoyasi mazmunini ohib berishga yordam beradigan ko‘rsatmali qurollar tayyorlang.

14-variant.

Badiiy asarni o‘rganishda multimedia vositalarining o‘quvchi psixologik xususiyatlariiga ta’siri yuzasidan amaliy tavsiya yarating.

“Dunyoning ishlari” qissasidan olingan boblarda ona va o‘g‘il munosabatlari tasvirini multimedia vositalari orqali o‘rganishga doir materiallar tayyorlang.

15-variant.

Ovozli ko‘rsatmali materialarning tinglab tushunishdagi ahamiyatini yoritib, amaliy tavsiya tayyorlang.

“Tush” hikoyasini o‘rganishga doir ovozli ko‘rsatmalar tayyorlang.

ADABIY-NAZARIY TUSHUNCHALARNI O'RGANISHGA OID JADVALLAR TAYYORLASH.

6-SINFDA ERKIN VOHIDOVNING “NIDO” DOSTONINING O’RGANILISHIGA OID ELEKTRON DARS ISHLANMASI TAYYORLASH

Ishning maqsadi:

- a) talabalarning adabiy-nazariy tushunchalarni o‘rganishga oid jadvallar tayyorlash ko‘nikma va malakalarini rivojlantirish;
- b) 6-sinfda Erkin Vohidovning “Nido” dostoni o‘rganilishiga oid elektron dars ishlanmasi tayyorlash mazmuni bilan tanishtirish va mavzuni o‘zlashtirishlariga yordamlashish.

Foydalanish uchun adabiyotlar:

1. Umumiy o‘rta ta’limning 5–6-sinf “Adabiyot” o‘quv dasturlari va darsliklari bilan tanishish.
2. Vohidov E. Saylanma. Ikki jildlik. Muhabbatnoma (she’rlar, dostonlar). – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1986.
3. Yo‘ldoshev Q. Maktabda Erkin Vohidov ijodini o‘rganish // Til va adabiyot ta’limi. – Toshkent, 2006. – № 6. – B. 17-22.
4. Yo‘ldoshev R., Yo‘ldosheva R. Erkin Vohidovning “Nido” dostonida qo‘llangan iboralarni o‘rganish // Til va adabiyot ta’limi. – Toshkent, 2012. – № 4. – B. 44-45.
5. Kambarova S. Mustaqil mutolaa va adabiy tahlil. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2016. – 53-73-b.
6. Fayzullayeva D., G‘aniyeva M., Hoshimova D. Ta’lim jarayonida interfaol metodlar va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish // Kasbiy fanlar metodikasi. – Toshkent, 2012. – № 7. – B. 10-32.

Kerakli jihozlar: multimedia vositalari, turli rangdagi qog‘ozlar, markerlar.

Ishni bajarish tartibi:

- 1) uzlusiz ta’lim bosqichlari “Adabiyot” fani o‘quv dasturlari va darsliklarida adabiy-nazariy tushunchalarning berilishi bilan tanishib chiqish;
- 2) adabiy-nazariy tushunchalarni o‘rganish masalasiga oid metodik adabiyotlardagi yondashuvlarni o‘rganish;
- 3) grafik organayzerlar yuzasidan ma’lumotlar bilan tanishish (1-ilova);

4) darsning asosiy vazifalariga qo‘yiladigan talablarni o‘zlashtirish (2-ilova);


5) adabiyot o‘quv dasturi va darsligi bilan tanishish, unda “Nido” dostonini o‘rganishda e’tibor qaratilishi zarur bo‘lgan jihatlarga diqqat qilish. E.Vohidov ijodini o‘rganish masalasiga qanday yondasilganligini tahlil qilish. Oliy ta’lim va umumiy o‘rta ta’lim dastur va darsliklari o‘rtasidagi uzviylik, izchillik, muvofiqlikka ahamiyat qaratish (3-ilova);

6) dostonni o‘rganish yuzasidan dars ishlanmasi tayyorlash (4-ilova).


I-ilova

Grafik organayzerlar haqida ma’lumot

Ta’lim jarayonida verbal, noberbal, vizual, audio, audivizual, tabiiy o‘quv anjomlari hamda maktab jihozlari kabi vositaladan foydalaniлади. O‘qitish jarayonida o‘quvchilarning ko‘z bilan ko‘rishlari uchun mo‘ljallangan barcha vositalar vizual vositalar hisoblanadi. Bularga sinf doskasidagi yozuv va boshqa tasvirlar, tarqatma materiallar, o‘quv plakatlari, fotosurat, illyustratsiya, videotasvir va tabiat tasvirlari kiradi. Ko‘rsatmali vositalarning adabiyot darslarida qo‘llanishi o‘quvchilarga o‘rgatilishi kerak bo‘lgan axborotga tegishli mazmunni turli shakl va usullarda ko‘rsatish orqali yetkazish, o‘quv mashg‘ulotlarini qiziqarliroq qilish imkoniyatini yaratadi. Adabiy ta’lim jarayonida ko‘rsatmalilik deganda badiiy asarda tasvirlangan qahramonlar xatti-harakatlari, voqeahodisalarni rasmlar, obrazlar orqali jonlantirib, qayta esga solish tushuniladi. Adabiy matnni o‘zlashtirishda tasviriy san’at, musiqa, kino, televide niye va AKT vositalari katta yordam beradi. Ko‘rsatmalilikning quyidagi turlari mavjud:



Adabiyot fanini o‘qiishda ko‘rsatmalilikdan foydalanish ta’lim-tarbiya jarayonining rivojlanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lgan asosiy tarkibiy elementlar: so‘zlash, ko‘rsatish va tahlil qilishdan iboratdir. Bunda ta’lim oluvchi faoliyatidagi asosiy jarayonlar tinglash, ko‘rish va tahlil qilishdan iborat bo‘lib, o‘qituvchi faoliyatidagi asosiy jarayonlar quyidagilarni tashkil etadi:



Grafik organayzerlar – ta’lim-tarbiya jarayonida bayon qilinayotgan fikrlarni ko‘rgazmali taqdim etish vositasidir. Adabiy-nazariy tushunchalar kompyuterning “MS Word”, “MS Power Point”, “Paint”, “MS Excel” dasturlari imkoniyatlari hamda grafik organayzerlardan unumli foydalanib o‘quvchilarga yetkazilsa, o‘quvchilarning axborotlarni qabul qilish, xotirada tiklash, tahlil qilish faoliyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Quyida ularning ayrimlariga xos xususiyatlar haqida so‘z yuritiladi:

“Insert” grafik organayzeri materialni samarali o‘rganish va mantiqiy fikrlash uchun matnda belgilashning interfaol tizimi bo‘lib, mustaqil o‘qish vaqtida olingan bilimlarni tizimlashtirishga, ehtiyoj sezilganda g‘oya va fikrlarga izoh berish, qo‘sishimchalar kiritish zaruriyatini taqozo etadi.

“Insert” – o‘zlashtirishning kompleks vazifalarini hal qilish va mavzuni mustahkamlash, ta’lim oluvchilarning kitob bilan mustaqil ishslash malakasini rivojlantirishga qaratilgan o‘qitish usulidir. Texnologiyada ma’lumotlar quyidagi tizim asosida belgilanishi nazarda tutilgan:

“V” – buni bilaman.

“+” – yangi axborot.

“_” – bilganlarimga zid.

“?” – meni o‘ylantirib qo‘ydi, bu masala bo‘yicha qo‘sishma axborot kerak.

V	+	-	?

Jadvaldan ko‘rinadiki, “V” belgisi o‘quvchi bilim darajasini belgilasa, “+” qiziqish va imkoniyatlarini namoyon etadi.

Munozara talab “-” belgisi bahslashishni taqozo etadi, chunki har bir o‘quvchining ko‘rilayotgan masala yuzasidan shaxsiy qarashlari mavjud.

“?” belgisi esa ehtiyojlarini aniqlaydi, adabiyotlar bilan mustaqil ishslash, qo‘srimcha ma’lumotlar izlab topish, yangi g‘oyalar taqdim etish va xulosalarini asoslashga sharoit yaratadi.

Klaster va uning turlari. Klaster (tutam) pedagogik strategiyasi ta’lim oluvchilarning biror mavzuni chuqurroq o‘zlashtirishlariga xizmat qiladi. Mazkur strategiyaning maqsadi muayyan mavzuga tegishli tushuncha yoki fikrlarni aniq, ko‘rgazmali va izchillikda tarmoqlashga qaratilgan. Klaster yondashuvni mavzuni ta’lim oluvchilar tasavvurida aniqroq ifodalash, mavzu o‘rganilganidan so‘ng fikrlash faoliyatini faollashtirish, bilimlarini mustahkamlash va kengaytirishga xizmat qiladi. Klaster mavzuga oid so‘z va takliflar kichik doirachalar – “yo‘ldoshchalar” yaratilib, ichiga yozib chiqish orqali tuziladi. Ular asosiy so‘z bilan chiziqchalar (kichik “yo‘ldoshchalar”) yordamida birlashtiriladi. Klasterni ramlar asosida ham yaratish mumkin. Unda doirachalar ichiga rasmlar joylashtiriladi (art klaster).

Toifalash jadvali olingan ma’lumotlarni birlashtirishni ta’minalash maqsadiga qaratilgan. Ta’lim oluvchilarning tizimli fikrlash, ma’lumotlarni bir tizimga keltirish ko‘nikmalarini rivojlantirishni nazarda tutadi. Toifalar jadval ko‘rinishiga keltiriladi, g‘oyalar toifalarga mos holda ajratiladi. Jarayonda toifalarning nomlariga o‘zgartirishlar kiritish, yangilarini qo‘sish mumkin.

Toifalar	

Konseptual jadval o‘rganilayatgan tushuncha, narsa-hodisalar va firkalarni ikki yoki undan ortiq jihatlari bo‘yicha taqqoslashga xizmat qiladi. Jadvalga bo‘yiga taqqoslanadigan fikr va nazariyalar joylashtiriladi, eniga taqqoslanish asosida olib boriladigan turli tavsiflar yoziladi.

<p>...</p> <p>tushunchalarga yondashuvlar</p>	<p>Tavsiflash, toifalar, xususiyatlar</p>

“Bilaman. Bilishni istayman. Bilib oldim” jadvali ta’lim oluvchilarni muayyan mavzu, matn, bo‘lim yoki bob yuzasidan izlanishlar olib borishga yo‘naltiradi va tahlil ko‘nikmalrini shakllantiradi. Mazkur usul mavzu bo‘yicha ularning nimalarni bilishi, nimalarni bilishni xohlashini aniqlashga oid savollarni berish orqali amalga oshiriladi. Ish yakunida nimalarni bilib olganliklarini aniqlashga xizmat qiladi.

Bilaman	Bilishni istayman	Bilib oldim

“SWOT – tahlil” jadvali alohida muammo yoki loyihalarni tashkil etish, vaziyatni tahlil qilish va manbani baholash vositasidir. Jadvalning quyidagi inglizcha so‘zlearning bosh harflaridan olingan:

Strengths – obyektning kuchli tomoni, tashkil etishning ichki manbalari mavjudligini aks ettiriadi. Barqaror rivojlanishning asosiy mexanizmi bo‘lib, yangi g‘oyalar yaratish va to‘sqliarni bartaraf etish asosi bo‘lishi mumkin.

Weakness – obyektning kuchsiz tomoni yoki ichki muammolar mavjudligi. Bunda tashkil etish faoliyati obyektning aynan zaif tomonlarini yengishga qaratiladi. Yangi loyihalar uchun zamin hozirlaydi va bu jihatlar rivojlanish strategiyasini yaratishda e’tiborga olishni talab etadi.


Opportunities – vaziyani tashkil etishdan tashqaridagi mavjud imkoniyatlar. Qo‘llab-quvvatlashning qo‘srimcha manbasi bo‘lib, ishni tashkil etishning maqsadiga mos kelishni hisobga olishni ko‘zda tutadi. Yangi loyihalar qatori hamkorlikni yo‘lga qo‘yishga imkon beradi.

Threats – tashqi muhitda tashkil etish sharoitiga ta’sir etuvchi xavf-xatarlar. Xavflarni yengish yo‘llarini ishlab chiqishni taqozo etadi. Ayrim hollarda mantiqqa zid bo‘lgan “raqib”lar “ittifoqchilar”ga aylanishiga zarur shart-sharoit yaratadi.

S	W
O	T

“Nima uchun?” sxemasi (jadvali) qo‘yilgan muammoning tub ildizlarini aniqlash bo‘yicha fikrlar zanjiri sanaladi. Mazkur strategiya ijodiy va tahliliy mulohaza yuritishga o‘rgatadi. Sxemani tuzish qoidalari:


Aylana yoki to‘g‘ri to‘rtburchak shakllaridan ixtiyoriy foydalanish orqali chizmaning ko‘rinishi tanlanadi. Bunda mulohazalar zanjiri to‘g‘ri chiziqli yoki aksincha bo‘lishi ta’lim oluvchilarining ixtiyoriga qo‘yiladi. Yo‘nalish ko‘satkichi dastlabki holatdan izlanishgacha bo‘lgan yo‘nalishni belgilashga asos bo‘ladi.




“Qanday” diagrammasi muammo yuzasidan umumiylashtirish hosil qilish imkonini beruvchi mantiqiy savollar zanjiri bo‘lib, muammoni yechishning imkoniyatlari va ularni amalga oshirish yo‘llarini tadqiq qilishga o‘rgatadi. Bunda quyidan yuqoriga ierarxik tarzda o‘sib boruvchi g‘oyalarning tuzilmasi aniqlanadi. Diagramma strategik darajadagi savollar bilan ishslashni nazarda tutadi. Muammoni yechishning quyidagi darajasi dastlabki harakatlar ro‘yxatiga mos keladi.

Yangi g‘oyalarning paydo bo‘lishi natijasida ish jarayonida diagrammalar soni ortib boraveradi. Agar chizmadagi savol uning “shoxcha”larida yana qaytarilsa, unda biror muhim jihat mavjudligi ayonlashadi. Shu bois u muammoni yechishning asosi bo‘lishi mumkin.

G‘oyalarning turli shakllarda: daraxt, kaskad ko‘rinishida yoki yuqorida pastga yoki chapdan o‘ngga o‘tib borishini aks ettirish ixtiyoriy sanaladi. Muammoning amaliy yechimi uni qo‘yayotgan subyektning savollarni to‘g‘ri qo‘ya olishiga har jihatdan bog‘liq.



“Pog‘ona” tuzilmaviy-mantiqiy chizmasi



Chizmani qurish tartibi quyidagicha:


1. Pog‘onani tuzish vaqtida tizimli sxemaning tarkibiy qismi va elementlarini boshqa tomonga o‘tkazish mumkin. Bu esa ko‘rilayotgan holat bo‘yicha qayta fikrlashga imkon yaratadi. Agar g‘oyalarni ishlab chiqishda tor yo‘lakka kirib qolish kuzatilsa, bir-ikki daraja yuqoriga o‘tish yoki boshqa yo‘llarni o‘ylab ko‘rish mumkin bo‘ladi. Kaskadni o‘ngdan chapga qarab tuzish uning talabi bo‘lib, asosiy g‘oyani o‘ng tomonga joylashtirish zarur.

Assesment (inglizcha “assessment” – baholash) bir qancha yondashuvlar asosida egallangan bilimlar miqdorini sinash, masalaning mohiyatini chuqurroq tahlil qilish va shaxsning o‘zini o‘zi baholashiga asos bo‘lishi nazarda tutilsa, muayyan asarlar mutolaasi doirasida topshiriqlar berilishi bilan o‘quvchilarning kitobxonlik darajasini tahlil qilishga erishish mumkin. “Assesment” texnologiyasi asosida o‘quvchilarda bir vaqtning o‘zida mavjud bilimlarni tahlil qilish; materiallarni chuqur va yaxlit tarzda o‘rganish; munozarali va murakkab

mazmunli mavzular xususida atroficha mushohada yuritish va fikrini mantiqan asoslash; kreativ qobiliyatlarni rivojlantirish; tashabbuskorlik sifatlarini oshirish; shakllangan kompetensiyalarni baholashga sharoit yaratiladi.

Test	Muammoli vaziyat
<p>1. Yozuvchi Ayiq obrazi zamiriga qanday jarayonning muqarrar va asta-sekinlik bilan o‘z ta’sirini ko‘rsatishini singdirishga uringan?</p> <p>A. Vahshiylikning. B. Qarilikning. S. Tiriklikning. D. Mas’uliyat hissining.</p> <p>2. Qissa xotimasidan qanday xulosa shakllanadi?</p> <p>A. An’anaviy qadriyatlar jamiyatda ustuvor ahamiyat kasb etadi. B. Inson tabiatning uzviy qismidir. S. Hayot – aziz ne’mat, inson qadr-qimmati ulug‘dir. D. Tabiat tengsiz qudrat manbayi, uni mahv etishga urinish foydasizdir.</p>	<p>1. Yirtqichning vaqtı-vaqtı bilan qandaydir sirli va g‘ayritabiyy tarzda namoyon bo‘lishi, odamlarni zimdan kuzatib, ta’qib qilishi tasvirlari orqali muallif nimaga ishora qiladi?</p> <p>2. Ovchilar quvmoqda, hayvonlar esa qochmoqda. Bu lavhalar qanday hayotiy haqiqatning in’ikosidan dalolat beradi?</p> <p>3. Asardagi qaysi detal vositasida umr o’tkinchiligi, inson bir kun kelib yana ona-zamin bag‘riga qaytishi isbotlangan? Fikringizni kuzatishlaringiz va matnga tayangan holda izohlashga harakat qiling.</p>
<p>Tashqaridan kuzatishga belgi beradigan quyidagi alomatlar kitobxonni xayolan voqealar sodir bo‘lgan manzil tomon yetaklaydi:</p> <p>1. Ildamlayotgan odamlar. 2. Yugurayotgan bug‘ular, shoxdan shoxga sakrayotgan olmaxonlar galasi. 3. Yeldek uchayotgan otlar, hurayotgan izquvar itlar. 4. Tuyoqlar dupuri va qadamlar zarbidan otilayotgan tuproqlar. 5. Miltiq va o‘qlar mo‘ljalidan sizib oqayotgan qonlar. 6. Barchasini vazminlik bilan o‘z bag‘riga joylay olgan ulug‘vor O‘rmon.</p>	<p>1. “Ona sayyoramizning globallashuv ta’sirida halokatga yuz tutishi sabablari” mavzusida maqola yozish. 2. Ekologiyani asrashga oid “Atrof-muhitni mexanizatsiyalashgan sivilizatsiya ta’siridan asrash” mavzusida loyiha tayyorlash.</p>

Venn diagrammasi – o‘rganilayotgan mavzuga oid ikki yoki undan ortiq xususiyatlar yoki umumiy jihatlarni solishtirish, taqqoslash yoki qarama-qarshi qo‘yish uchun qo‘llaniladi. Doiralarning kesishuvchi joyida ular uchun yagona bo‘lgan ma’lumotlar qayd etiladi.



Adabiy-nazariy tushunchalarni grafik organayzerlar asosida o‘rganishga namuna:

O‘zbek folklorining tur va janrlarini “Toifalash jadvali” asosida belgilashga namuna:

O‘zbek folklorining tur va janrlari			
epik tur	lirik tur	dramatik tur	maxsus tur (paremalar)
mif, afsona, rivoyat, ertak, naql, latifa, lof, terma, doston va boshq.	marosim folklorining deyarli barcha ko‘rinishlari, bolalar folklorining ko‘pgina turlari, qo‘shiqning hamma xillari, ashula va h.k.	og‘zaki drama, qo‘g‘irchoq o‘yin, askiya, xalq teatrлari va boshq.	maqol, matal, topishmoq va h.k.

Talabalarning adabiy-nazariy bilimlarga qiziqishlarini oshirish, har bir ishga mustaqil va ijodiy yondashish kompetensiyasini shakllantirishda “Tushunchalar” jadvali yaxshi samara beradi. Masalan, pafos haqidagi

nazariy ma'lumotlar quyi sinflarda egallangan nazariy bilimlar bilan uyg'unlikda quyidagicha grafik organayzer vositasida o'rganilsa, verbal ma'lumotlar o'quvchi tasavvurida yaqqolroq oydinlashadi:

Tushunchalar nomi	Sizningcha bu tushuncha nimani bildiradi?	Biror asar misolida ushbu tushunchaning ruhiyatizingizga ta'sirini belgilang	Qo'shimcha ma'lumot bering
Pafos	Yunon tilidan olingan bu so'z (“pathos” “ehtiros”, “hissiyot”, “iztirob” ma'nolarini anglatadi.	Masalan, E.Vohidovning “O'zbegim” qasidasidagi hayajonli histuyg'ular insonni vatanparvarlik va millatparvarlik ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi.	Mazkur atamani fanga Gegel olib kirgan. Qadimgi yunonlarda ritorika (notiqlik)dan kelib chiqqan bo'lib, yozuvchining dunyoqarashi va g'oyasini yuzaga chiqaradi.

Badiiy asar tahlilida “SWOT – universal tahlil” grafik orgaznayzeridan foydalanish qahramonlarning asar sujetida tutgan o'rni va badiiy funksiyasini baholash, qahramonlar xarakterining umumiyligi va farqli jihatlarini tavsiflash, hayotiy muammolar yechimi yuzasidan mustaqil qarorlar qabul qilish malakalarini takomillashtirishda kutilgan natijalarni kafolatlashi bilan ahamiyatlidir. Ayniqsa, obrazlarning *kuchli jihatlari, zaif tomonlari, imkoniyatlari va ularga tahdid soluvchi xavf-xatarlarni aniqlash* va tahlil qilish kompetensiyalarini takomillashtirishda “SWOT – universal tahlil” usuli imkoniyatlari samaralidir. Mazkur texnologiya muayyan muammolar yoki loyihalarni tashkillashtirish, vaziyatni tahlil qilish va baholash vositasi bo'lib, o'quvchida tizimli fikrlash, solishtirish, qiyoslash va tahlil ko'nikmalarini shakllantiradi. Masalan, E.Vohidovning “Nido” dostonini “SWOT – tahlil” jadvali

asosida o‘rganishda lirik qahramonga xos sifatlar quyidagicha tahlil qilinishi mumkin:

Qahramon xarakterining kuchli jihatlari: lirik qahramonning sabr-bardoshliligi, umrbod ota mehridan benasib yashashga chidaganligi.	Qahramon xarakterining ojiz tomonlari: ko‘ngli yarimligi
Imkoniyatlari: hayot sinovlarini o‘zi mustaqil yengishga o‘rganishi, irodasi toblanishi.	Xavf-xatar: himoyasizligi

2-ilo va

Oliy ta’lim tizimining bugungi kundagi asosiy vazifasi zamonaviy bilimlarni chuqur o‘zlashtirgan, mehnat bozorida raqobatbardosh va kompetentli kadrlarni tayyorlashdan iborat. Mazkur vazifalar samarali darslar orqali amalga oshiriladi.

Bo‘lajak o‘qituvchi darsga kirishdan avval, albatta, Dars muqaddas” tadbiri⁵ asosida ishlanmalar tayyorlash va mashg‘ulotni tashkil etish yo‘l-yo‘riqlarini o‘rganishi maqsadga muvofiq.

I. “Dars muqaddas” tadbirini amalga oshirish:

O‘qituvchining darsga puxta tayyorgarligi ta’limning muvaffaqiyatli bo‘lishi garovidir. Dars bu sinfda aniq maqsadlarni ko‘zlab, belgilangan vaqt oralig‘ida o‘qituvchi rahbarligida o‘quvchilar uchun o‘quv-tarbiya jarayonining tashkil etilishidir. Shunday ekan, har bir o‘qituvchi darsga tayyorlanmasadan turib kirishga vijdoni yo‘l qo‘ymasligi, tayyorlanmasdan kirgan darsiga esa ish haqi olmasligini bilishi lozim. O‘qituvchining darsga tayyorgarligi uning o‘z fani yuzasidan umumiyligi tayyorgarligi hamda har bir darsga kundalk tayyorgarligidan iborat.

O‘qituvchining umumiyligi tayyorgarligi muntazam amalga oshadigan jarayon bo‘lib, o‘quv yili boshlanishi oldidan davlat ta’lim standarti, o‘quv dasturi, o‘quv reja hamda ularga berilgan tushuntirish xatlarini o‘rganib chiqish; faniga oid yangi ilmiy va metodik adabiyotlarning mazmuni bilan tanishish; tegishli ko‘rgazma materiallarni, o‘quv-

⁵ “Dars muqaddas” tadbiri. <https://hozir.org/dars-muqaddas.html>.

jihozlarni o‘rganish, ularni qo‘llay bilish; ilg‘or o‘qituvchilarning ish tajribalarini o‘rganish, tahlil qilish orqali bilimini oshirish kabilardir.

Darsga tayyorgarlikning eng asosiysi bu o‘qituvchining har bir darsiga kundalik tayyorgarli bo‘lib, u quyidagi bosqichlarda amalga oshirilishi lozim:

1-bosqich: taqvim-mavzu rejadagi yangi mavzu va unga ajratilgan vaqt (soat aniqlashtirilib olinadi. Bugungi kunda taqvim reja kindalik.com dasturiga yuklanishi rejallashtirilgan.

Umumta’lim maktablari o‘qituvchilari taqvim-mavzu rejasining namunaviy shakli

No	Mavzular	Mavzuga ajratilgan dars soati	Dars o‘tish muddati (hafta kunlari ko‘rsatiladi)	Dars o‘tiladi-gan sana (dars jadvali bo‘yicha sana yoziladi)	Darsda qo‘llani-ladigan ko‘rgaz-mali vositalar	Uyga vazifa	Eslatma
1							

2-bosqich: DTS va o‘quv dasturidan o‘tiladigan mavzuda qanday tushunchalar (bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalar) shakllantirilishi lozimligi aniqlashtirilib, shu asosida dars maqsadlari belgilab olinadi.

3-bosqich. Mavzu asosida darsda foydalilaniladigan texnik vositalar, ko‘rgazmali va didaktik materiallar, adabiyotlar o‘rganib chqiladi hamda dars ishlanmasi (yoki tezis) tayyorlanadi.

Dars ishlanmasining tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat:

Sana, sinf, fan nomi yoziladi.

Darsning mavzusi (taqvim-mavzu asosida).

Darsning maqsadi (darsga qo‘yiladigan maqsad 45 daqiqa davomida bajaralidagan (erishiladigan), aniq, hayotiy (real) va dars yakunida baholanadigan (o‘lchamli) bo‘lishi maqsadga muvofiq.

a) ta’limiy maqsad – dars jarayonida o‘quvchilarda shakllantiriladigan bilim, ko‘nikma va malakalar asosida belgilanadi;

b) tarbyaviy maqsad – dars jarayonida o‘quvchilarda qaysi axloqiy sifatlar shakllantirilishi asosida belgilanadi;

d) rivojlantiruvchi maqsad – dars natijasida o‘quvchilarda qaysi bilimlar va bilish jarayonlari rivojlantirilishi asosida belgilanadi.

Dars turi. U quyidagicha bo‘lishi mumkin: yangi tushuncha, bilimlarni shakllantiruvchi; o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini rivojlantiruvchi; umumlashtiruvchi, o‘quvchilar egallagan bilim, ko‘nikma va malaklarni tahlil, nazorat qiluvchi darslar)

Darsda foydalilaniladigan turli xil metodlar (an’anaviy, zamonaviy, interfaol kabilar)dan eng yaxshisi bu o‘tilayotgan mavzuning o‘quvchilar tomonidan samarali o‘zlashtirilishiga xizmat qiladigani.

Darsda foydalilaniladaigan jihozlar (texnik vositalar, ko‘rsatmali va didaktik materiallar).

Darsni tarkiban quyidagi qismlarga ajratish mumkin:

- tashkiliy qism;
- yangi mavzuni takrorlash (mustahkamsh);
- yangi mavzuni tushuntirish;
- o‘quvchilarni baholash;
- uygazma vazifa berish.

Dars ishlanmasini tayyorlashda o‘qituvchi darsning har bir qismini e’tiborga olishi maqsadga muvofiq. Dars ishlanmasi hamma o‘qituvchida bo‘lishi shart. Uning qanday hajmda, necha betdan iborat bo‘lishi o‘qituvchining tajribasi va mahoratiga bog‘liq. Bunda hamma o‘qituvchi uchun br xil chegara, cheklanish o‘rnatib bo‘lmaydi.

Dars ishanmasi qo‘lyozma shaklida yoki kompyuterda ham yozilishi mumkin. Ishlanmani kompyuterda yozishning yagona sharti shu o‘qituvchining o‘zi kompyuterda ishlashni bilishi lozimligidir.

Direktorning o‘quv-tarbiyaviy ishlar bo‘yicha o‘rinnbosari dars ishlanmasi (tezis)ni ko‘rib, tasdiqlash jarayonida o‘qituvchilarga darsga kirish uchun quyidagi eng minimum hujjatlar bo‘lishini nazorat qiladi. Bular:

- dars ishlanmasi;
- taqvim-mavzu reja;
- o‘quv dasturi;
- darslik.

Ishni bajarish tartibi:

Talabalarni “Dars muqaddas” tadbiri mazmuni bilan tanishtirish. Talabalar umumiy o‘rtalim maktablari, akademik litsey, kasb-hunar kollejlari adabiy ta’limiga oid taqvim-mavzu reja, o‘quv dasturi, DTS, darsliklar bilan tanishib chiqishlari shart. Talabalar “Dars muqaddas”

tadbiri mazmunini bilan tanishish jarayonida qisqa ma’ruza tayyorlaydilar.

Sifatli dars bu ta’lim oluvchilar tomonidan samarali o’zlashtirilgan dars. Dars boshlangandan keyin hech kimning ushbu jarayonga xalaqit berishiga yo‘l qo‘yilmaydi. Har bir o‘qituvchi o‘zining eng birinchi asosiy vazifasi sifatli dars o‘tib, yaxshi tarbiya berish ekanligini, darsning muqaddasligini mas’uliyat bilan anglashi lozim.

Elektron dars ishlanma kompyuterning “MS Word” dasturida yozilib, darsning har bir bosqichiga doir barcha vositalar taqdim etilishi zarur. Bunda har bir bosqichda rejalashtirilgan jihatlar batafsil yoritilishi o‘qituvchining darsga puxta tayyorgarligidan darak beradi.

O‘qituvchi darsni rejalashtirishda asar asosida tayyorlangan radiopostanovkalardan foydalanishi yoki o‘zi audiomaterial tayyorlashi hamda ishlanma tarkibiga QR orqali kiritilishi mumkin.

QR-kod (inglizcha quick response – tez javob) – matrichniy kod (ikki o‘lchamli shtrixkod). 1994-yilda Denso-Wave nomli yapon kompaniyasi tomonidan ishlab chiqilgan va amaliyatga taqdim etilgan. Ular saytlarda, reklamalar va hattoki tashrif kartochkalarida uchrashi mumkin. Ushbu ikki o‘lchamli shtrix kod OR skaner orqali skaner qilinishi va kod joylashgan sayt, buyum, reklama yoki biror bir narsa haqidagi ma’lumotni gipermurojaat orqali smart qurilma yordamida qidirib topish mumkin. Ular real dunyo (qaerda joylashishidan qat’iy nazar masalan, plakatlar yoki biror bir tekis yuza) bilan raqamli axborot va kommunikatsiya kanallarini (ijtimoiy tarmoq yoki forumlarda matn yoki video ko‘rinishda muzokara qilinadi) bog‘lab turadi⁶.

Elektron dars ishlanmasi tayyorlash uchun talaba kompyuterning barcha dasturlarini, avvalo, “MS Word”, “MS Paint” yoki “MS Power Point” dasturi imkoniyatlarini mukammal o’zlashtirgan bo‘lishi, dastur amallarini to‘g‘ri qo‘llashni bilishi maqsadga muvofiq.

Talaba “Adabiyot” o‘quv dasturi va darsligi bilan tanishib, dars ishlanmasi tayyorlashda o‘quv dasturida ko‘rsatilgan jihatlarni e’tiborga olishi va shu asosda ta’limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi vazifalarni belgilashi, dars bosqichlarini to‘g‘ri rejalashtirishi, ta’lim metodlarini o‘rinli tanlanishi maqsadga muvofiq.

⁶ Файзиева М., Сайфуров Д. Виртуал таълим технологияси. – Toshkent: ТДПУ, 2006. – 74-б.

3-illova

Shoir ijodini o‘rganishga 5-sinf “Adabiyot” o‘quv dasturida quyidagicha yondashilganligini ko‘rish mumkin (izoh: oliv ta’lim dasturida asarning avvalgi rejasiga tayanilgan):

“Erkin Vohidov. “Nido” dostoni. (3 soat, A2+: 4 soat) Erkin Vohidov hayoti va ijodi haqida qisqacha annotatsiya. “Nido” dostonida insoniyat boshiga tushgan falokat – Ikkinci jahon urushi keltirgan balolarning murg‘ak o‘smir taqdirida qoldirgan izning aks ettirilishi. Dostonda bola tabiatining g‘oyat nozik jihatlari haqqoniy tasvirlanganligi. Doston nomining ramziyligi”.

Dars maqsadlarini belgilash, unga erishish yo‘llarini, dars bosqichlari, metod va usullarini to‘g‘ri rejalahtirishda yuqoridagi jihatlar ko‘zda tutiladi.

4-illova

6-sinfda Erkin Vohidovning “Nido” dostonining o‘rganilishiga oid elektron dars ishlanmasi namunasi

Maqsad:

Ta’limiy maqsad: o‘quvchilarga dostonda Ikkinci jahon urushining insoniyatga keltirgan ofatlari, ularning o‘smir hayotida qoldirgan izining aks ettirilishi; bola tabiatining g‘oyat nozik jihatlari haqqoniy tasvirlanganligi hamda asar nomining ramziyligi yuzasidan bilim berish.

Tarbiyaviy maqsad: o‘quvchilarni yaratuvchanlik ruhida tarbiyalash, buzg‘unchi g‘oyalarga nafrat tuyg‘ularini uyg‘otish.

Rivojlantiruvchi maqsad: o‘quvchilarning asarda ilgari surilgan g‘oyalar yuzasidan mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish, nutqini o‘stirish.

Dars turi: yangi bilim beruvchi

Dars metodi: ijodiy o‘qish, empatiya metodlari

Darsda foydalaniladigan jihozlar: kompyuter, multimedia vositalari, shoir ijodi, asarga oid ko‘rsatmali va didaktik materiallar, audiomaterial va videolavhalar.

Darsning shiori sifatida Zulfiya ijodidan foydalaniladi:

Urush! Noming o‘chsin jahonda!
Hamon bitmas sen solgan alam...

(“O‘g‘lim, sira bo‘lmaydi urush!”)

Darsning borishi:

I. Tashkiliy qism (3 daqiqa).

II. Uy vazifasini baholash. Avvalgi darsda o‘tilgan mavzu yuzasidan savol-javob o‘tkaziladi (7 daqiqa).

Mavzulararo bog‘lanish: darsning bu qismida tinchlik haqida, uning ulug‘ ne’mat ekanligi; urushning dahshatli oqibatlari haqida o‘quvchilarning fikrlari bilan tanishiladi. Dunyoda sodir bo‘layotgan turli kelishmovchiliklar, nizolarning osoyishtalikka salbiy ta’siri, ayrim davlatlarning dunyonи bo‘lib olishga urinishi siyosati, mafkuraviy bo‘shliqilarning oqibatlari haqida fikrlashiladi (3daqiqa).

III. Yangi mavzu bayoni (10 daqiqa).

Reja

1. Shoir ijodi yuzasidan videolavha namoyish etish.
2. “Nido” dostonining yaratilish tarixi haqida tushuncha berish.
3. Dostonning shoir tomonidan ifodali o‘qilgan variantini eshittirish.
4. Asar mazmuni bilan tanishtirish, bunda sharhlash elemntlaridan foydalanish.

IV. Darsni mustahkamlash (15 daqiqa).

“Empatiya” metodini qo‘llash. Lirk qahramon ichki dunyosiga “kirish” orqali uning ichki kechinmalarini, dard-alamlarini ma’lum ma’noda his qilishga o‘rgatish. Empatiya metodi (kirishish) bu insonning boshqa obyekt holatiga kirishidir. O‘quvchi hissiy-obrazli va fikriy tasavvuri vositasida o‘rganilayotgan obyekt ichiga “kirib olish”ga, uni tushunishga va obrazga oid xususiyatlarni idrok etishga harakat qiladi. Natijada obyekt ichga kirish holatida o‘quvchi o‘zini o‘zi kuzatish va baholashga sharoit yaratiladi; foydalanimagan imkoniyatlari yuzaga chiqadi; o‘quvchining obrazli va fikriy tasavvuri ortadi, dunyoqarashi boyiydi; har qanday vaziyatga tayyor turish, muammo mohiyatiga chuqr yondashish ko‘nikmasi hosil bo‘ladi. Masalan:

1. “Bag‘ishlov”dagi bolaning otasiga xitobi ma’nosini tuyishga harakat qiling. Bu misralarni o‘qiganingizda paydo bo‘lgan hislarni o‘z so‘zlarining bilan ifodalang.

2. Asardan lirk qahramonning xotiralari aks etgan o‘rinlarni aniqlang va munosabat bidliring.

V. Mavzu yuzasidan tegishli xulosalar chiqarish, ularni umumlashtirish (3 daqiqa).

VI. Darsning yakuni (4 daqiqa).

Faol o‘quvchilarni rag‘batlantirish, savol-javoblarda sust ishtirok etgan o‘quvchilarni faollikka undash. Baholarni izohlash.

Uya vazifa berish. She’rning istalgan qismidan yod olish. “Tinch hayotimizni qadrlaylik” mavzusida esse yozish.

Muhokama uchun savollar

Ish yakunida talabalarga quyidagicha jadval tarqatiladi va mavzu yuzasidan tegishli tavsiyalar ishlab chiqish vazifasi topshiriladi:

Savol-topshiriqlar	Natijalar
Mavzuni o‘rganishda qanday ish turlari va shakllaridan foydalandingiz?	
Bo‘lajak kasbiy faoliyat uchun zarur bo‘lgan qaysi jihatlarni o‘zlashtirdingiz?	
Bilib oldim:	
Tushunib yetdim:	
O‘rgandim:	
Mavzuni o‘zlashtirishda menga:	
Oson bo‘ldi:	
Qiyinchilik tug‘dirdi:	
Xalaqit berdi:	
1. Adabiy-nazariy tushunchalarini o‘rganishga qanday shakl va mazmundagi jadvallar tayyorlash maqsadga muvofiqligini anglab yetdingiz? 2. Elektron dars ishlanmasi tayyorlashda qanday muammolar mavjudligni aniqlab, ularni bartaraf etish yo‘llarini bayon eting.	

LABORATORIYA ISHI TOPSHIRIQLARI

Eslatma: barcha variantdagi 1-topshiriqda adabiy-nazariy tushunchalar va dars bosqichlarini rejalashtirish metodikasi bilan tanishish vazifasi qo‘yiladi.

1-variant

Grafik organayzerlarning ta’lim samaradorligini oshirishdagi o‘rnini yoriting.

5-sinfda xalq og‘zaki ijodi janrlari (topishmoq, maqol, masal)ni o‘rganishda “Tushunchalar tahlili” grafik organayzerini qo‘llashga doir jadval tuzing.

2-variant

“Insert” jadvalining o‘rganilayotgan tushunchalar o‘rtasidagi aloqa va aloqadorlikni o‘rnatishdagi ahamiyatini bayon eting.

6-sinfda “Shum bola” qissasini “Insert” jadvalidan foydalanib o‘rganishga doir amaliy tavsiyalaringizni yozing.

3-variant

Adabiy ta’limda multimedia vositalaridan foydalanishning o‘ziga xos xususiyatlarini yoriting.

6-sinfda Erkin Vohidovning hayotini ijodiga bog‘lab o‘rganishda oid videodars loyihasini tuzing.

4-variant

“Bilaman. Bilishni xohlayman. Bilib oldim” jadvalining mavzu, matn, bo‘lim bo‘yicha izlanish olib borishga yo‘naltirishdagi o‘rnini yoriting.

5-sinfda “Susambil” ertagidagi til, ramz va badiiy ifoda xususiyatlarini “Bilaman. Bilishni xohlayman. Bilib oldim” jadvali asosida o‘rganishga doir amaliy tavsiyalaringizni bayon eting.

5-variant

“Toifalash” jadvalining o‘quvchilar tizimli fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishdagi ahamiyatini yoriting.

5-sinfda H.Olimjonning “Oygul bilan Baxtiyor” dostoni badiiy xususiyatlarini “Toifalash jadvali” asosida o‘rganishga doir amaliy tavsiyalaringizni yozing.

6-variant

Adabiy ta’limda “Konseptual jadval”dan foydalanishning o‘rnini ifodalang.

7-sinfda she’r vaznlari mavzusini “Konseptual jadval” asosida o‘rganishga doir amaliy tavsiyalaringizni yozing.

7-variant

Adabiyotdan yangi bilim beruvchi darslarning o‘ziga xos xususiyatlari haqida amaliy tavsiya tayyorlang.

E.Vohidovning “Nido” dostoni yuzasidan yangi bilim berishga doir videodars tayyorlang.

8-variant

Badiiy asar qahramonlariga xos xususiyatlarni tahlil qilishda “SWOT – tahlil” jadvalidan foydalanishning ahamiyatini yoriting.

8-sinfda S.Ahmadning “Ufq” romani qahramoni Tursunboyga xos xususiyatlarni “SWOT – tahlil” jadvali asosida tahlil qilishga doir amaliy tavsiyalariningizni bayon eting.

9-variant

Adabiy ta’limda bilimlarni mustahkamlash va takrorlash darslari mazmuni xususida amaliy tavsiya tayyorlang.

E.Vohidovning “Nido” dostonini o‘rganish yuzasidan takrorlash va mustahkamalashga doir videodars tayyorlang.

10-variant

Yozuvchi hayoti va ijodini o‘rganishga doir xronoligik jadval yaratishning ahamiyati xususida amaliy tavsiya tayyorlang.

Yuqori sinflarda Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va ijodini o‘rganish yuzasidan xronoligik jadval tuzing.

11-variant

Adabiy ta’limda bilimlarni umumlashtirish va tizimlashtirish darslarini tashkil etish haqida amaliy tavsiya tayyorlang.

E.Vohidovning “Nido” dostonini o‘rganish yuzasidan umumlashtiruvchi videodars ishlanmasini tayyorlang.

12-variant

Badiiy asar sujetini o‘rganishda jadvallardan foydalanishning ahamiyati yuzasidan amaliy tavsiya tayyorlang.

A.Qodiriyning “O’tkan kunlar” romani sujetini o‘rganishga mos jadval tanlang va mazmunini yoriting.

13-variant

Adabiy-nazariy tushunchalarni o‘rganishda “Tushunchalar tahlili” jadvalidan foydalanishning o‘rni xususida amaliy tavsiya yarating.

10-sinfda “She’riy san’atlar” mavzusini o‘rganishda “Tushunchalar tahlili” jadvalidan foydalanishga doir amaliy tavsiyalariningizni yozing.

14-variant

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida tashkil etiladigan darslarga qo‘yiladigan talablar xusisida fikringizni bayon eting.

“Nido” dostoni yuzasidan o‘quvchilarning bilimini tekshirish va tahlil qilsiga doir videodars ishlanmasini tayyorlang.

15-variant

Adabiyot darslarini loyihalashtirish yuzasidan amaliy tavsiya tayyorlang.

“Nido” dostonini vebsayohat usulida o‘rganishga doir ishlanma tayyorlang.

5-SINFLARDA RUBOIJ JANRINI O'RGANISHGA QARATILGAN DIDAKTIK O'YIN TEXNOLOGIYALARINI ISHLAB CHIQISH

Ishning maqsadi: talabalarni 5-sinfda ruboij janrini o'rganishga qaratilgan didaktik o'yin texnologiyalarini ishlab chiqish va amalda qo'llash ko'nikma va malakalarini rivojlantirish.

Foydalanish uchun adabiyotlar:

1. Husanboyeva Q., Niyozmetova R. Adabiyot o'qitish metodikasi. – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2020. – 184–193-b.
2. Йўлдошев Ж.Ф., Усмонов С. Замонавий педагогик технологияларни амалиётга жорий этиш. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2008. – 84–88-b.
3. Umumiy o'rta ta'limning 5-sinf "Adabiyot" o'quv dasturi.
4. Ahmedov S. va boshq. Adabiyot. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-sinf uchun darslik. – Toshkent: Sharq, 2020. – 154-160-b.
5. Кодиров В. Адабий таълимда мумтоз лиро-эпик асарларни ўрганиш // Ilmiy xabarnoma. – Андижон, 2019. – Б. 54-59.

Kerakli jihozlar: multimedia vositalari, turli rangdagi qog'ozlar, markerlar.

Ishni bajarish tartibi:

- 1) didaktik o'yinlar va ularni qo'llash mazmuni bilan tanishish (1- ilova);
- 2) 5-sinf "Adabiyot" o'quv dasturi va darsligi bilan tanishish, unda ruboilyarni o'rganishda zarur bo'lgan jihatlarga diqqat qilish (2- ilova).

1- ilova

Didaktik o'yin – o'rganilayotgan obyekt, hodisa va jarayonlarni modellashtirish asosida o'quvchilarning bilishga bo'lgan qiziqish va faolliklarini oshiradigan o'quv faoliyati turi hisoblanadi.

Didaktik o'yinlar o'quvchilar tomonidan ijtimoiy-foydali mehnat va o'qish ko'nikmalarini faol o'zlashtirishda muhim ahamiyatga ega bo'lib, ularning ahamiyati natijalar bilan emas, balki jarayonning mazmuni va kechishi bilan belgilanadi. Bu kabi o'yinlar bolalarni ijtimoiy munosabatlar jarayonida faol ishtirok etishga tayyorlaydi, ulardagи turli psixologik zo'riqishlarni kamaytiradi.

Didaktik o'yinlarning bir qancha turlari mavjud. Ular tarkibiga intellektual, harakatli va aralash o'yinlarni kiritish mumkin. Didaktik

o‘yinlar ta’limiy va tarbiyaviy maqsadlarga xizmat qiladi. Adabiy ta’lim jarayonida didaktik o‘yinlardan foydalanish orqali o‘quvchilarni axloqiy-estetik tarbiyalash, nutq o‘stirish, yangi bilimlarni o‘rgatish, bilish jarayonlarini rivojlantirishga erishiladi. Quyida didaktik o‘yinlarning ayrimlariga namunalar keltiriladi:

Ishchanlik o‘yini darsi – dars mavzusi bo‘yicha masalalarni hal etish jarayonida o‘quvchilarning faol ishtirok etishini ta’minlash orqali yangi bilimlarni o‘zlashtirish mashqi.

Rolli o‘yin darsi – dars mavzusi bo‘yicha masalalarni o‘rganishda o‘quvchilarga oldindan ma’lum rollarni taqsimlash va dars jarayonida shu rolni bajarishlarini tashkil etish asosida bilimlarni mustahkamlash darsi.

Teatrlashtirilgan dars – dars mavzusi bilan bog‘liq sahna ko‘rinishlari tashkil qilish orqali chuqur, aniq ma’lumotlar berish darsi.

Kompyuter darsi – tegishli o‘quv fani bo‘yicha dars mavzusiga doir kompyuter materiallari (multimedia, virtual o‘quv kursi va shu kabilar) asosida o‘tiladigan dars.

Kim oshdi savdosi darsi – o‘quv fani ayrim bo‘limi bo‘yicha bilimlarni har bir o‘quvchi qanchalik ko‘p bilishini namoyish etish darsi.

Yarmarka darsi – o‘quv fani ayrim bo‘limi bo‘yicha bilimlarni har bir o‘quvchi qanchalik ko‘p bilishini namoyish etish darsi.

“Sud” darsi – o‘quvchilar bilan dars mavzusiga mos “sud” jarayonini tashkil etish orqali yangi mavzuni tushuntirish darsi.

“Tergovni bilimdonlar olib boradi” darsi – dars mavzusini oldindan puxta o‘rgangan o‘quvchilar yordamida qiziqarli savol-javoblar, tahlillar asosida isbotlab tushuntirish mashqlari bo‘lib, bunda o‘quvchilar dars mavzusini o‘zlashtirib, eslab qolishlari uchun qulaylik yaratiladi.

Integral (integrallashgan) dars – bir nechta fanlarga doir va integratsiyalash uchun qulay bo‘lgan mavzular bo‘yicha tashkil qilingan dars bo‘lib, o‘quvchilarning turli fanlarga qiziqishlarini orttirib, ta’lim jarayonidagi faolliklarini ta’minlaydi. Bunday darslar o‘quvchilarga fanlararo bog‘liqlikni o‘rgatish orqali ularda olam tuzilishining ilmiy asoslarini to‘liq idrok etish, ilmiy dunyoqarashini shakllantirish, ijodiy tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiladi.

“Mo‘jizalar maydoni” darsi – o‘quvchilar bilan o‘tkaziladigan qiziqarli o‘yin bo‘lib, turli savollarga belgilangan vaqt mobaynida to‘g‘ri javoblar topish va g‘oliblarni rag‘batlantirish orqali o‘quvchilarda

fikrlash, topqirlik, ziyraklik va bilimlarini kengaytirib borish sifatlarini shakllantiradi⁷.

2-ilo va

Umumiy o‘rta ta’lim mакtablarining 5-sinf “Adabiyot” o‘quv dasturida ruboиylarni o‘ргanish Bobur ijodi misolida tanlangan. Jumladan, “Bobur. Ruboиylar. (4 soat, A2+: 5 soat). Boburning hayoti va ijodi haqida qisqacha annotatsiya. Bobur – ruboиynavis. Shoирning “Har kimki vafo qilsa...”, “Kim yor anga ilm tolibi...”, “Ko‘pdin berikim...”, “Tole yo‘qi jonimg‘a...” ruboиylariga xos xususiyatlar. Ruboиylarda muallif hayoti, shaxsiyati, kechinmalari, orzulari, armonlari va ularning betakror tarzda tasvir etilgani. Ruboиylarda shoирga xos samimiyat va rostgo‘ylikning aks etishi (2 soat). Shoирning “Ko‘rdum”, “Kishi” radifli ruboиylarida hayot haqiqatining aks etishi. “Ko‘ngli tilagan murodig‘a...”, “Tole yo‘qi...” va boshqa ruboиylarida Bobur tarjimayi holiga doir unsurlarning yaqqol namoyon bo‘lishi (2 soat)⁸.

Topshiriq: ruboиylarni o‘ргanish uchun qanday didaktik o‘yinlardan foydalanish maqsadga muvofiqligini aniqlang. Bu janrdagi asarlarni tahlil qilishda samarali bo‘lgan didaktik o‘yinlar mazmunini yoriting.

Bobur ijodidan tanlangan ruboиylarni o‘ргanishda dastlab ta’lim texnologiyasi so‘zi ma’nosini aniqlashtirib olish zarur. Texnologiya (yunoncha “techne – mahorat, san’at; “logos” – tushuncha, ta’limot). Ta’lim texnologiyasi – ta’lim maqsadiga erisish jarayonining umumiy mazmuni, ya’ni avvaldan loyihalashtirilgan ta’lim jarayonini yaxlit tizim asosida, bosqichma-bosqich amalga oshirish, aniq maqsad yo‘lida muayyan metod, usul va vositalar tizimini ishlab chiqish, ulardan samarali foydalanish, ta’lim jarayonini yuqori darajada boshqarish demakdir.

Ruboиylar tahliliga kirishayotib o‘qituvchi ishning asosiy bosqichlarini belgilash bilan quyidagi masalalarni nazarda tutadi:

- tahlilning maqsad va mazmunini (o‘quvchilar nimani va qanday maqsadda o‘ргanadi) aniqlashi;
- ishni tashkil qilish rejasini tuzishi (mashg‘ulot bosqichlarini rejalahtirish, topshiriqlar tizimini ishlab chiqish);
- o‘quvchilarning yosh xususiyatlari va bilish jarayonlarini e’tiborga olishi kabilar.

⁷ Йўлдошев Ж.Ф., Усмонов С. Замонавий педагогик технологияларни амалиётга жорий этиш. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2008. – 84–88-b.

⁸ Umumiy o‘rta ta’limning Davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturi. Ona tili. Adabiyot. 5–9-sinflar // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. – Toshkent: 2017-yil 14 (774)-son, 230-modda. – 30-b.

Ruboiylar tahlili bosqichlarini “Birgalikda o‘rganamiz” (“Koop-koop”) texnologiyasi talablariga muvofiq quyidagicha rejalashtirish mumkin:

Tahlil bosqichlari	Tahlil mazmuni	Ta’lim beruvchi faoliyati	Ta’lim oluvchi faoliyatining natijalari
I bosqich	Ruboiylarni o‘qish, tuzilishini o‘rganish.	Nutq maromi va sur’ati, ritm, bo‘g‘in, turoq, vazn, ritmik pauza, turkum, qofiya kabilar haqidagi ma’lumotlarni multimedya vositalari bilan uyg‘unlikda tanishtiradi.	Ifodali o‘qish malakalari rivojlantiriladi, ruboiylar qurilishiga oid tushunchalar o‘zlashtiriladi.
II bosqich	Hissiyotlarga ta’siri yuzasidan suhbat o‘tkazish.	Mavzuga oid savollar bilan murojaat qiladi.	Axloqiy fazilatlar, insoniy his-tuyg‘ular kamol toptiriladi.
III bosqich	Matnning badiiy xususiyatlarini aniqlash.	Obraz, janr, uslub kabi tushunchalarni asar tabiatidan kelib chiqib izohlaydi.	Lirik qahramon kechinmalari, she’r mazmunini ochishga yordam beradigan tasviriy vositalar aniqlanadi.
IV bosqich	Shoir ifoda uslubi va mahoratini belgilash.	Mustaqil va ijodiy fikrlashga yo‘naltiradi.	Hayotning muallif ongidagi in’ikosi idrok etiladi.
V bosqich	Ifodalangan g‘oya yuzasidan fikr-mulohaza yuritish.	Ijodkor maqsadini aniqlashga yordam beradi.	Muayyan xulosalar chiqariladi, fikr almashinadi.

Ruboiylarni o‘rganish tahlil bilan yakunlanmaydi. Undan keyin o‘tkaziladigan sintez-umumlashma darslar o‘quvchilarga asarni yaxlit idrok etishga, uning ichki tuzilishiga kirib borishiga yaqindan yordam beradi. Masalan, o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajalarini aniqlash, mutolaaga qiziqish uyg‘otishga doir integrallashgan o‘yinli darslarda “**Kakografiya**” usulidan foydalanish mumkin. Lotincha “kakos” – yomon, xunuk, yoqimsiz va “graphos” – yozmoq so‘zlaridan olingan “kakografiya” so‘zi muayyan maqsadni ko‘zlab xatoliklarga yo‘l qo‘yilgan matnni tuzattirish orqali o‘quvchilarga imloni o‘rgatish usulidir⁹.

Ona tili darslarida “Kakografiya” usulidan foydalanish borasidagi qarashlarida tilshunos olim A.Sobirov “yozuv bilan bog‘liq g‘alizlik, yoqimsizlik yashirinib yotganga o‘xshaydi, ammo orfografik nuqtayi nazardan qaralganda u bilan bog‘liq didaktik va pedagogik jihatlarni ochib berish masalaga oydinlik kiritishi mumkin”¹⁰ligini qayd etadi. Shunday ekan, badiiy asar ustida ishslash jarayonining mazkur usul orqali tashkil qilinishi muayyan mavzular doirasidagi bilimlarni qiyosiy tahlil qilish, sinf jamoasining faolligini oshirish, mantiqiy fikrlash, vazifaga sinchkovlik bilan yondashish, personajlar nutqi, matndagi har bir detallarni eslab qolishga tayyorlashi jihatidan ham samaralidir.

Mutolaaga qiziqtirish, badiiy asarning o‘rganilganilagini nazorat qilish “Kakografiya” usuli doirasida yo‘lga qo‘yilib, jarayon o‘quvchilarning har biriga matndan muayyan lavhalar tarqatish, ajratilgan xatoliklarning to‘g‘ri javoblar bilan taqqoslanib, belgilar o‘rniga so‘zlarni qo‘yish yoki jadvallarga qayd ettirilishi shaklida amalga oshirilishi maqsadga muvofiq. Mazkur usulning mohiyati badiiy asarlardagi yozuvchi ishlatgan so‘zlar zarur o‘rinlarda boshqalari bilan almashtirib qo‘llanilishida namoyon bo‘ladi. Ijodkor konsepsiyasiga zid “notanish” yoki “begona” so‘zlarning kiritilishi o‘quvchining asar ma’nosiga bo‘lgan e’tiborini oshiradi. Eng muhim, ularning turli janrdagi asarlarni tanlab o‘qish va bunga ongli munosabatda bo‘lishiga real sharoit yaratilganidir. Bunda o‘quvchilarning o‘zgartirib berilgan turli asarlar sujeti yoki kompozitsiyasi qismlarini asl holiga keltirish, qahramonlar va ularning nutqini bir-biridan farqlash, maqsadli ravishda tushirib qoldirilgan jumla va so‘zlarni eslab qolish, xato berilgan matnni tuzatish ko‘nikma-

⁹ Маматов А. Нутқ маданияти ва тил нормасига оид терминлар ва тушунчалар изохи. – Тошкент: Баёз, 2012. – 13-б.

¹⁰ Собиров А. Она тили дарсларида какография усулидан фойдаланиш // Til va adabiyot ta’limi. – Тошкент, 2016. – № 4. – Б. 37.

malakalarini rivojlantirish maqsadi belgilanadi.

Bobur ruboiylarini o‘rganish yuzasidan “Kakografiya” usulini qo‘llash texnologiyasi

(bunda matnda tushirib qoldirilgan so‘zlarni joyiga qo‘yish sharti belgilanadi)

Yod etmas emish kishini g‘urbatda1 kishi,
Shod etmas emish ko‘ngulni mehnatda kishi.
Ko‘nglum bu g‘ariblikda shod o‘lmadi, oh,
G‘urbatda sevinmas emish, albatta, kishi.

Yod etmas emish _____ g‘urbatda kishi,
Shod etmas emish _____ mehnatda kishi.
Ko‘nglum bu _____ shod o‘lmadi, oh,
_____ sevinmas emish, albatta, kishi.

Almashtirilgan misralarni o‘z o‘rniga to‘g‘ri joylashtirish vazifasi beriladi.

Ko‘pdin berikim yor-u diyorim yo‘qtur,
Keldim bu sori o‘z ixtiyorim birla,
Bir lahma-yu bir nafas qarorim yo‘qtur.
Lekin borurimda ixtiyorim yo‘qtur. (*chalkashtirilgan varianti*)

Ko‘pdin berikim yor-u diyorim yo‘qtur,
Bir lahma-yu bir nafas qarorim yo‘qtur.
Keldim bu sori o‘z ixtiyorim birla,
Lekin borurimda ixtiyorim yo‘qtur¹¹. (*to‘g‘ri varianti*)

Muhokama uchun savol-topshiriqlar

Ish yakunida talabalarga quyidagicha jadval tarqatiladi va mavzu yuzasidan tegishli tavsiyalar ishlab chiqish vazifasi topshiriladi:

¹¹ Ahmedov S. va boshq. Adabiyot. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik. – Toshkent: Sharq, 2020. – 154–160-b.

Savol-topshiriqlar	Natijalar
Mavzuni o‘rganishda qanday ish turlari va shakllaridan foydalandingiz?	
Bo‘lajak kasbiy faoliyat uchun zarur bo‘lgan qaysi jihatlarni o‘zlashtirdingiz?	
Bilib oldim:	
Tushunib yetdim:	
O‘rgandim:	
Mavzuni o‘zlashtirishda menga:	
Oson bo‘ldi:	
Qiyinchilik tug‘irdidi:	
Xalaqit berdi:	
1. 5-sinflarda ruboiy janrini o‘rganishga qaratilgan qanday didaktik o‘yin texnologiyasini ishlab chiqish mumkinligini o‘zlashtirdingiz? 2. Didaktik o‘yin texnologiyalarini ishlab chiqishda qanday qiyinchiliklarni his qildingiz? Ularni bartaraf etish bo‘yicha tavsiyalariningizni yozma tarzda bayon eting.	

LABORATORIYA ISHI TOPSHIRIQLARI

Eslatma: barcha variantdagi 1-topshiriqda didaktik o‘yin texnologiyasi bilan tanishish vazifasi qo‘yilgan.

1-variant

Adabiyot darslarida didaktik o‘yin turlaridan foydalanishning maqsad va vazifalari xususida tezis tayyorlang.

Bobur ruboiyalarini ishchanlik o‘yinlari asosida o‘rganishga doir dars ishlanmasi tuzing.

2-variant

Adabiy ta’limda intellektual o‘yinlardan foydalanishning ahamiyati yuzasidan tezis tayyorlang.

Bobur ruboiyalarini o‘rganshga doir integral (integratsiyalashgan) dars ishlanmasini tuzing.

3-variant

Adabiyot darslarida didaktik o‘yinlarni qo‘llash shart-sharoitlari yuzasidan tezis tayyorlang.

Boburning “Har kimki vafo qilsa...”, “Kim yor anga ilm tolibi...” ruboiylarini o‘rganishga doir “Mo‘jizalar maydoni” darsi ishlanmasini tayyorlang.

4-variant

Adabiyot darslari uchun didaktik o‘yin vositalari, ularni tayyorlash va mashg‘ulotlar samaradorligini oshirish omillari yuzasidan tezis tayyorlang.

“Ko‘pdin berikim...”, “Tole yo‘qi jonimg‘a...” ruboiylarini o‘rganishga mos didaktik o‘yinlarni tanlab, ularni qo‘llash yuzasidan dars ishlanmasi tuzing.

5-variant

Adabiyot darslari uchun didaktik o‘yin turlarini tayyorlash va amalda qo‘llashga doir mashqlarning qanday olib borilishiga doir tezis tayyorlang.

Bobur ruboiylarini “Tergovni bilimdonlar olib boradi” didaktik o‘yini asosida o‘rganishga doir dars ishlanmasi tayyorlang.

6-variant

Adabiy darslarida didaktik o‘yin turlarini tanlash mezonlarini yoritib tezis tayyorlang.

Boburning “Ko‘rdum”, “Kishi” radifli ruboiylarini o‘rganishda didaktik o‘yin turlarining qaysi mezonlariga amal qilish yuzasidan amaliy tavsiyalaringizni yozing.

7-variant

Adabiyot darslarida kompyuter vositasidagi didaktik o‘yinlardan foydalanishning samarali jihatlarini yoritib tezis tayyorlang.

“Ko‘ngli tilagan murodig‘a...”, “Tole yo‘qi...” va boshqa ruboiylaridagi muammolarni aniqlashga yo‘naltiruvchi didaktik o‘yinlarni qo‘llash texnologiyasi yuzasidan dars ishlanmasi yozing.

8-variant

Adabiyot darslarida ishbilarmonlik o‘yinlarini qo‘llash yuzasidan tezis tayyorlang.

Bobur ruboiylarini o‘rganishga doir rolli o‘yin darslari ishlanmasini yaratting.

9-variant

Adabiyot darslarida sujetli o‘yinlardan foydalanish mazmuni xususida tezis tayyorlang.

Bobur ruboiyalarini sujetli o‘yinlar asosida o‘rganishga doir dars ishlanmasi yarating.

10-variant

Adabiy ta’limda teatrlashtirilgan darslar tashkil etishga doir tezis tayyorlang.

Bobur ruboiyalarini o‘rganishga doir teatrlashtirilgan dars ishlanmasi tayyorlang.

11-variant

Adabiyot darslarida dramatik o‘yinlardan foydalanishning ahamiyatini bayon etib tezis taylorlang.

Bobur ruboiyalarini dramatik o‘yinlar asosida tashkil etish yuzasidan dars ishlanmasi tyyorlang.

12-variant

Mumtoz asarlarni o‘rganishda konsert darslarning ahamiyatini yoritib tezis tayyorlang.

Bobur ruboiyalarini o‘rganishga doir konsert darsi ishlanmasini tayyorlang.

13-variant

Didaktik o‘yin texnologiyasining o‘quvchilar bilish jarayonlariga ta’siri yuzasidan tezis tayyorlang.

Bobur ruboiyalarini o‘rganish bo‘yicha “Kim oshdi savdosi” darsi ishlanmasini tayyorlang.

14-variant

Adabiy ta’limda sujetli-rolli o‘yinlardan foydalanishning ahamiyati yuzasidan tezis tayyorlang.

Boburning ruboynavislik mahoratini namoyon etishga doir intellektual o‘yinlardan foydalanishga doir dars ishlanmasi yaratish.

15-variant

Ruboiy janrini o‘rganishda ijodiy o‘yinlarning ahamiyatini yoritib tezis tayyorlang.

Bobur ruboiyalarini o‘rganishga doir kompyuter darsi ishlanmasi tuzing.

6-SINFDA X.TO‘XTABOYEV IJODINI O‘RGANISH MAVZUSIGA OID VIDEODARS TAYYORLASH

Ishning maqsadi: talabalarni 6-sinfda X.To‘xtaboyev ijodini o‘rganish mavzusiga oid videodars tayyorlash texnologiyasi bilan tanishtirish va amalda videodars tayyorlashga o‘rgatish.

Foydalanish uchun adabiyotlar:

1. Umumiy o‘rta ta’limning 6-sinf adabiyot o‘quv dasturi.
2. Ahmedov S. va boshq. Adabiyot. Umumiy o‘rta ta’lim mакtabrlining 5-sinfi uchun darslik. – Toshkent: Sharq, 2020. – 208-216-b.
3. To‘xtaboyev X. Sariq devni minib. – Toshkent: Yangi asr avlodи, 2013. – 236 b.
4. Tosheva O. Taqdimot materiaillaridan foydalanish usullari // Til va adabiyot ta’limi. – Toshkent, 2012. – № 12. – B11-13.

Kerakli jihozlar: axborot kommunikatsiya texnologiyalari, ZOOM yoki “Power Point” dasturlari, “Sariq devni minib” asariga ishlangan “Sehrli qalpoqcha” filmidan kadrlar.

Ishni bajarish tartibi:

- 1) yozuvchi hayoti va ijodini chuqur o‘rganish;
- 2) 6-sinf “Adabiyot” o‘quv dasturi va darsligi bilan tanishish, unda X.To‘xtaboyev ijodi, xususan, “Sariq devni minib” asaridan berilgan parchalarni o‘rganishda e’tibor qaratilishi zarur bo‘lgan jihatlarni belgilash, shu asosda dars rejasini tuzish. Masalan, “X.To‘xtaboyev. “Sariq devni minib” romani. (4 soat, A2+: 6 soat). X.To‘xtaboyevning hayoti va ijodi haqida qisqacha ma’lumot. Roman qahramoni – Hoshimjon sarguzashtlarining obraz tabiatini bilan uyg‘unligi. Hoshimjondagi yalqovlik va intizomsizlik qusurlarining qahramon taqdirini nojoiz yo‘llarga solib yuborganligi va bu holning ta’sirchan ifodalanishi. Roman qahramoni tabiatidagi quvnoqlik, topqirlik, hozirjavoblik, qo‘nimsizlik singari xislatlarning asar voqealari rivojidagi o‘rni. Qalpoqcha yordamida “ulg‘aygan” va turli ixtisoslikni “egallagan” Hoshimjonning har safar chuv tushishi sabablari, qahramon tabiatining yoqimli va noxush jihatlari hamda ular o‘rtasidagi aloqadorlik. Asar tilining o‘ziga xosligi”¹².

¹² Umumiy o‘rta ta’limning Davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturi. Ona tili. Adabiyot. 5–9-sinflar // O‘zbekiston Respublikasi qонун hujjatlari to‘plami. – Toshkent: 2017-yil 14 (774)-son, 230-modda. – 37-38-b.

3) yozuvchi ijodini o‘rganishga doir dars ishlanmasi tuzish, “Power Point” dasturi asosida taqdimotlar tayyorlash (1-ilova), taqdimotlar ichiga filmdan kadrlar yoki radiopostanovkalardan qisqartirib olib yuklash;

4) asar asosida suratga olingan filmlar, “Online dars” teledasturlarini kuzatish;

5) rejalashtirilgan dars loyihasi asosida axborot texnologiyalari, xususan, ZOOM dasturi, Telegram kanali (videochat) yoki “Power Point” dasturlari imkoniyatlaridan foydalanib videodars tayyorlash.

6) videodars tayyorlash mazmuni bilan tanishish (2-ilova).

7) ZOOM dasturidan foydalanishda kompyuterga dasturni o‘rnatish, dars rejasи asosida o‘quvchilarga yetkazilishi zarur ma’lumotlarni muayyan tartib bilan bayon etish. Videodars tayyorlash uchun “Power Point” dasturidan foydalanishning qulayliklarini o‘zlashtirish. Buning uchun nazariy materiallarni tayyorlab olish, slayd-shou parametri imkoniyatlaridan foydalanish.

1-ilova

Dastlab taqdimot materiallarini tayyorlashga qanday talablar qo‘yilishi bilan tanishib chiqish maqsadga muvofiq. Bunda kompyuterning Microsoft Power Point amaliy dasturi imkoniyatlaridan unumli foydalanish mumkin. Bu dastur ko‘rgazmali va grafik xarakterdaligi bilan ma’lumotlarni vizual yetkazish vositasi sanaladi. Ms Power Point dasturi matn, tasvir, chizma, grafik va animatsiya effektlari, ovoz va videolavhalardan iborat slaydlarni yaratishga mo‘ljallangan.

Slayd bu muayyan o‘lchamdagи muloqot sahifasidir. Matn vazifasini o‘tovchi slaydlar jarayonni yoritishga xizmat qiluvchi chizma, grafik, fotosurat, animatsion effektlar yoki videotasvirlarni o‘z ichiga oladi. Slaydlardagi matnlar iloji boricha qisqa, aniq va lo‘nda bo‘lishi maqsadga muvofiq. Matn imkon qadar kamroq jonni egallashi, ya’ni 6–7 qatordan oshmasligi ma’qul. Aks holda harflar kichrayib ko‘rishni murakkablashtiradi. Matn harakatga kelishi, ularning almashishi, jihozlanishi uchun ko‘plab shablonlar, turlicha (oddiy, o‘rtacha, murakkab) tuzilishdagi animatsiya effektlaridan foydalanish tavsiya etiladi.

Taqdimot tayyorlashda dastlab g‘oyalarni shakllantirib olish, ma’lumotlar to‘plash, rejalashtirish, dizayn, animatsiya tanlash va ko‘rib chiqish amallari bajariladi.

G‘oyalarni shakllantirish bosqichida materialning qaysi auditoriya uchun mo‘ljallangani, hajmi va ko‘rinishi haqida aniq to‘xtamga kelish zarur.

Ma'lumotlar to'plashda mavzu yuzasidan tegishli materiallar aniqlanib, undagi zarur jihatlar tanlab olinadi. Xususan, biror ijodkorning tarjimayi holi, fotosuratlari, jadvallar, kitoblari, u haqda zamondoshlarining fikrlari, xaritalar, asarlari asosida suratga olingan filmlardan kadrlar kompyuter xotirasiga kiritiladi.

Rejalashtirish bosqichida to'plangan ma'lumotlarni joylashtirish ketma-ketligi belgilanadi. Masalan, dastlab mavzu nomi, rejasi, ijodkor hayoti va faoliyatiga oid matn joylashitirlib, ular orasida rasmlar, audio yoki videomateriallarga o'rinn beriladi.

Dizayn yaratishda slaydlarning tuzilishi, asosining rangi, harflar shrifti va kattaligi kabi xususiyatlar e'tiborga olinadi.

Animatsiya ma'lumotlarning qiziqarliroq bo'lishi, ta'lim oluvchilar diqqatini jalb etishini ta'minlaydi, matn va tasvirlarni harakatlantirish, unga ovoz berishiga ko'ra tanlanadi.

Ko'rib chiqish funksiyasi ekranning o'ng tomoni pastki qismidagi kataklar ichidagi "Pokaz slaydov", ya'ni slaydlarni ko'rsatish so'zi ustiga sichqonchaning chap tugmasini bosish orqali amalga oshiriladi.

Yuqoridagi amallarga tayanilib tayyorlangan taddqimot materialini kompyuter xotirasida saqlash, maxsus dasturlar orqali diskka ko'chirish yoki fleshkalarga o'tkazish orqali namoyish qilish mumkin.

2-*ilova*

Videodars tayyorlash uchun dastlab tegishli ma'lumotlarni kompyuter programmalariga mos holda tayyorlab olish maqsadga muvofiq. Bunda zarur moslama – videokarta bo'lishi talab etiladi. Moslamaga videokamera yoki televizorlar ham ulanishi mimkin. Ko'p hollarda videoelementlarni monitorda ifodalay bilishning o'zi kifoya. Shuningdek, videoadapter va monitoring bo'lishi ham yetarli hisoblanadi.

Videodars tayyorlash uchun smart qurilmalardan foydalaniladi. Smart qurilmalardan real muhitni anglash, ta'lim jarayonida qo'llash uchun multimedialar yaratishda foydalanish mumkin. Matnli izohlar, tasvirlar, audioyozuvlар yoki videoyozuvlар o'tilayotgan mavzuni o'zlashtirish imkoniyatini beradi. Talabalar belgilangan dars jarayonini smart qurilma orqali tasvirga olib ularni ijtimoiy media tarmoqlar (Instagram yoki Twitter, Foursquare yoki Yelp) orqali tegishli shaxslarga yuborishlari, ular ham mazkur dars mashg'ulotini o'rganib chiqishlari, shuningdek, bu borada boshqa hamkasblari bilan munozaralar tashkil etishlari mumkin.

Muhokama uchun savollar

Ish yakunida talabalarga quyidagicha jadval tarqatiladi va mavzu yuzasidan tegishli tavsiyalar ishlab chiqish vazifasi topshiriladi:

Savol-topshiriqlar	Natijalar
Mavzuni o‘rganishda qanday ish turlari va shakllaridan foydalandingiz?	
Bo‘lajak kasbiy faoliyat uchun zarur bo‘lgan qaysi jihatlarni o‘zlashtirdingiz?	
Bilib oldim:	
Tushunib yetdim:	
O‘rgandim:	
Mavzuni o‘zlashtirishda menga:	
Oson bo‘ldi:	
Qiyinchilik tug‘dirdi:	
Xalaqit berdi:	
1. 6-sinfda X.To‘xtaboyev ijodini o‘rganish mavzusiga oid videodars tayyorlashda, asosan, nimalarga tayandingiz? 2. Videodars tayyorlashga oid qanday talablar faoliyatingizda qo‘l keldi? Ular haqida batafsil so‘z yuriting.	

LABORATORIYA ISHI TOPSHIRIQLARI

Eslatma: barcha variantdagi 1-topshiriqda yozuvchi hayoti va ijodini o‘rganish metodikasi hamda ta’limda multimedia vositalari bilan ishslash texnikasi bilan tanishib chiqish vazifasi qo‘yilgan.

1-variant

Ijodkor tarjimayi holini loyihalash yuzasidan amaliy tavsiya tayyorlang.

6-sinfda X.To‘xtaboyevning tarjimayi holini o‘rgnishga doir videodars loyihasini tayyorlang.

2-variant

Yozuvchi uslubini o‘rganish mazmuni haqida amaliy tavsiya tayyorlang.

Darslikda X.To‘xtaboyev tarjimayi holini o‘rganish yuzasidan berilgan materiallarni tahlil qiling va videodars tayyorlang.

3-variant

Asarning yaratilish tarixi bilan bog‘liq ma’lumotlarning o‘rganilishi haqidagi fikrlaringizni bayon eting.

“Sariq devni minib” asarining yaratilishi tarixiga doir manbalar bilan tanishing va yozuvchi hayoti va ijodiga doir videodars tayyorlang.

4-variant

Adib biografiyasini o‘rganishda u haqda boshqalarning fikrlaridan foydalanish haqidagi qarashlaringiz asosida amaliy tavsiya tayyorlang.

“Shaytonning yelkasiga igna sanchganim” mavzusidagi parchani o‘rganish yuzasidan videodars tayyorlang.

5-variant

Yozuvchi ijodini o‘rganish estetik hodisaligi borasidagi qarashlarlarga munosabat bildiring.

“Baxtim kulib boqqan edi” parchasini o‘rganishga doir videodars tayyorlang.

6-variant

Badiiy asarni san’atning boshqa turlari bilan bog‘lab o‘rganishning afzallikliklarini yoriting.

Asarning o‘quv dasturida o‘rganilishi rejalashtirilmagan qismidan biror parchani o‘rganishga doir videodars tayyorlang.

7-variant

Badiiy asarni boshqa fanlar bilan integratsiyalab o‘qitishga doir qarashlaringizni bayon eting.

“Hasharotni kaltaklashga buyurganim” parchasini o‘rganishga doir videodars tayyorlang.

8-variant

Badiiy asarni kinosan’ati bilan qiyoslab o‘rganishga doir amaliy tavsiya tayyorlang.

“Sariq devni minib” asariga ishlangan film kadrlaridan foydalanib videodars tayyorlang.

9-variant

Yozuvchi ijodiga doir filmlarni o‘rganishning ahamiyatini yoriting.

Asar qahramonlari o‘rtasidagi munosabatlarni tahlil qilishga doir videodars tayyorlang.

10-variant

Yozuvchi ijodini o‘zi haqidagi esdaliklar bilan o‘rganish samaradorligini yoriting.

X.To‘xtaboyev ijodini o‘zi haqidagi adabiy manbalar bilan o‘rganishga doir videodars tayyorlang.

11-variant

Yozuvchi ijodini o‘rganishda asarning yuzaga kelishi haqidagi ma’lumotlarning o‘rnini izohlang.

“Sariq devni minib” asarini yaratishga bog‘liq omillar haqidagi fikrlarni o‘rganib videodars tayyorlang.

12-variant

Yozuvchining badiiy asarda tutgan o‘rnini aniqlash yuzasidan amaliy tavsiya tayyorlang.

Sarguzasht asarlarni o‘rganish yuzasidan videodars tayyorlang.

13-variant

Yozuvchining dasturdan o‘rin olmagan boshqa asarlarini o‘rganishga qiziqtirish yuzasidan amaliy tavsiya yozing.

X.To‘xtaboyevning Adabiyot o‘quv dasturga kirmagan asarlarini o‘rganishga doir videodars tayyorlang.

14-variant

X.To‘xtaboyev uslubini o‘rganishga doir amaliy tavsiya tayyorlang.

“Sariq devni minib” asarining badiiy xususiyatlarini o‘rganishga doir videodars tayyorlang.

15-variant

Badiiy asar tilining o‘ziga xosliklarini o‘rganish yo‘llari haqida amaliy tavsiya tayyorlang.

“Sariq devni minib” asari matni ustida ishlash yo‘llariga doir videodars tayyorlang (darslikdagi biror parcha matni asosida).

7-SINFLAR UCHUN EPIK ASARLARNI O‘QITISHGA QARATILGAN TOPSHIRIQLAR ISHLAB CHIQISH

Ishning maqsadi: talabalarni 7-sinflar uchun epik asarlarni o‘qitishga qaratilgan topshiriqlar ishlab chiqish yo‘llari bilan tanishtirish va amalda shunday mazmundagi topshiriqlarni tuzish ko‘nikmasini shakllantirish.

Foydalanish uchun adabiyotlar:

1. Husanboyeva Q., Niyozmetova R. Adabiyot o‘qitish metodikasi. – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2020. – 223-232-b.
2. To‘xliyev B. Adabiyot o‘qitish metodikasi. Amaliy mashg‘ulotlar. – Toshkent: Bayoz, 2011. – 240 b.
3. Ниёзметова Р.Х. Узлуксиз таълим тизимида ўзбек адабиётини ўрганиш методикаси. – Тошкент: Фан, 2007. – 216 б.
4. Kambarova S. O‘quvchilarni maxsus savol va topshiriqlar vositasida mutolaaga qiziqtirish. Metodik qo‘llanma. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018. – 312 b.
5. Суюнов X. Адабиёт дарсларида ўқувчиларни савол-топшириқлар устида ишлашга ўргатиш усуллари. Пед. фан. номз. ... дисс. авторефер. – Тошкент, 2005. – 24 б.
6. Mirzayeva Z., Jalilov K. Adabiyot o‘qitish metodikasi: an’anaviylikdan zamonaviylikka. – Toshkent: 2020. – 166 b.
7. Umumiy o‘rta ta’limning 7-sinf “Adabiyot” o‘quv dasturi.
8. Yo‘ldoshev Q. va boshq. Adabiyot. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik. – Toshkent: Sharq. 2017. – 368 b.


Kerakli jihozlar: kompyuter, multimedia vositalari.

Ishni bajarish tartibi:


- 1) epik tur haqidagi nazariy bilimlarni mustahkamlash (1-ilova);
- 2) epik asarlarni tahlil qilish mazmuni bilan tanishish (2-ilova);
- 2) savol va topshiriqlarning turlari bilan batafsil tanishish (3-ilova);
- 3) 7-sinf “Adabiyot” o‘quv dasturi va darsligida berilgan epik asarlar bilan tanishish;
- 4) dasturga kiritilgan muayyan epik asarni o‘rganish yuzasidan savol-topshiriqlar tuzish.

1-ilova


Voqealar ko‘lамини qamrab olishi va hajm jihatidan shakllanishiga ko‘ra epik tur quyidagi guruhlarga bo‘linadi:




Roman so‘zi fransuz tilidan olingan bo‘lib (“rumoviy tilda yozilgan asar”) o‘zida hayotning keng manzarasini aks ettiruvchi epik janr hisoblanadi. Roman mavzusiga ko‘ra turlari quyidagilardan iborat:



Hajimiga ko‘ra turlari:




Bir qahramon taqdiri bilan bog‘liq voqealar tasvirlangan janr qissa sanaladi. Kichik epik janrlarga quyidagilar kiradi:



2-illova

Epik asarlarni tahlil qilishning o‘ziga xos xususiyatlari. Adabiy tahlil adabiy ta’limning zaruriy bosqichi hisoblanadi. Badiiy asarning o‘quv tahlili adabiyotshunoslik tahlilidan farqlanadi. Agar ilmiy tahlilda adabiyotshunos fan ma’lumotlariga tayansa, o‘quv tahlilida o‘qituvchi DTS va dastur talablaridan kelib chiqib o‘quvchilarning yosh xususiyatlari va bilish darajasini hisobga olib ish ko‘radi. Ammo asarning sujet qurilishi, kompozitsion tuzilishi, g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari, obrazlar tizimi, tili o‘quv tahlilining muhim sharti bo‘lib qolaveradi va u, avvalo, o‘qituvchi va o‘quvchining asar g‘oyaviy yo‘nalishi, mavzusi, qahramonlar xarakterini ochib berish, tasviriy vositalarni mazmun bilan birgalikda o‘zlashtirish bo‘yicha hamkorlikdagi ishi hisoblanadi. Bu tamoyillar adabiy tahlilning quyidagi qator komponentlari yordamida amalga oshiriladi:



Badiiy asar mazmunining o'zlashtirilishini ta'minlovchi materiallardan biri uning mazmun-mohiyati yuzasidan tuzilgan savol va topshiriqlar hisoblanadi. Darsliklardan o'rin olgan bu didaktik ashyolarni uch guruhga bo'lish mumkin: bilimlarni mustahkamlash vazifasini bajaruvchi; mantiqiy fikrlash usullarini egallahsga imkoniyat beruvchi; o'zlashtirilgan bilimlarni amalda qo'llash imkonini beruvchi. Masalan, 7-sinfda A.Qodiriyning “Mehrobdan chayon” romani bosh qahramonlari obrazlarini badiiy matnga tayanilgan holda o'rganishga doir savol-topshiriqlar tuzishda o'quv dasturida ko'zda tutilgan quyidagi jihatlar bilan tanishish zarur:

“Abdulla Qodiri. “Mehrobdan chayon” romani. (3 soat, A2+: 5 soat) Adib haqida qisqacha ma'lumot. Romanning “Qo'rqinch bir jasorat” bobida mardlik va nomardlik, tantilik va pastkashlik o'rtasidagi to'qnashuvning keskin dramatik vaziyatlarda ko'rsatilishi. Anvar tabiatiga xos mardlik, halollik, tantilikning Xudoyorxon va Abdurahmon xarakteridagi fosiqlik,adolatsizlik, zo'ravonlik kabi xislatlarga qarshi qo'yilishi. Anvar va Ra'no imsollarining o'ziga xosligi.

Yozuvchining obrazlar tilini individuallashtirish mahorati. Asar yechimining mantiqiy asoslanganligi. Qobilboy, Safar bo'zchi singari timsollarning o'ziga xos jihatlari tasviri. Asarning to'liq o'qilishiga erishish”.

O'quv dasturida belgilanganidek, qahramonlarning o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qilishda quyidagicha mazmundagi savol-topshiriqlar tuzish maqsadga muvofiq:

1. *Qahramon portretini o‘rganishga doir*: matndan Anvar portreti tasvirlangan o‘rnlarni toping. Anvarning tashqi ko‘rinishida fe’l-atvorining qaysi jihatlari aks etgan?

2. *Qahramon nutqini o‘rganishga doir*: Anvarning nutqi boshqalarnikidan qaysi jihatlari bilan farqlanishini aniqlang. Bosh qahramon nutqining o‘ziga xos xususiyatlarini yoriting. O‘z fikringizni Anvar bilan Abdurahmon, Anvar bilan Solih maxdum nutqlarini taqqoslash orqali izohlang.

3. *Boshqa qahramonlarning Anvarga munosabatini o‘rganishga doir*: matndan boshqa qahramonlar tomonidan Anvarga munosabat bildirilgan o‘rnlarni toping. Asar qahramonlari Anvar haqida qanday fikrda ekanligini aniqlang. Kimlarning fikrlari Anvarning tashqi va ichki portreti tasviriga mos keladi? Uning boshqalar bilan o‘zaro munosabatiga baho bering.

4. *Qahramonning xatti-harakatlarini baholashga doir*: Sizningcha, Anvar obrazi tasvirida uning fe’l-atvoriga mos kelmaydigan chizgilar uchraydimi? U o‘z e’tiqodiga sodoqligini misollar orqali (Anvarning Sultonali, Anvarning Xudoyorxon bilan munosabatlari) asoslashga harakat qiling.

5. *Muallifning qahramonga munosabatini o‘rganishga doir*: asarda Anvar obrazi orqali qanday g‘oya ifodalangan? Muallif va qahramon o‘rtasidagi o‘xhash va farqli jihatlarni toping.

Muhokama uchun savollar

Ish yakunida talabalarga quyidagicha jadval tarqatiladi va mavzu yuzasidan tegishli tavsiyalar ishlab chiqish vazifasi topshiriladi:

Savol-topshiriqlar	Natijalar
Mavzuni o‘rganishda qanday ish turlari va shakllaridan foydalandingiz?	
Bo‘lajak kasbiy faoliyat uchun zarur bo‘lgan qaysi jihatlarni o‘zlashtirdingiz?	
Bilib oldim:	
Tushunib yetdim:	
O‘rgandim:	
Mavzuni o‘zlashtirishda menga:	
Oson bo‘ldi:	
Qiyinchilik tug‘dirdi:	
Xalaqit berdi:	

- | | |
|--|--|
| <p>1. 7-sinflarda epik asarlarni o‘qitishda qanday yondashuvlardan foydalanish ma’qulligini bilib oldingiz?</p> <p>2. Epik asarlarni o‘rganishda qanday topshiriqlar tuzdingiz va unda qaysi manbalardan foydalandingiz? Siz tuzgan topshiriqlarning afzallliklari nimada?</p> | |
|--|--|

LABORATORIYA ISHI TOPSHIRIQLARI

Eslatma: barcha variantdagi 1-topshiriqda epik asarlar ustida ishlash metodikasi bilan tanishib chiqish vazifasi qo‘yilgan.

1-variant

Badiiy asar matni ustida ishlah bosqichlari haqida fikringizni bayon eting.

Mirmuhsinning 7-sinfda o‘rganilishi rejallashtirilgan “Me’mor” asari qahramonlari xarakter xususiyatlarini qiyoslashga doir topshiriqlar tuzing.

2-variant

Badiiy asarda qahramonlar obrazini o‘rganish yuzasidan amaliy tavsiya tayyorlang.

O‘.Umarbekovning. 7-sinfda o‘rganilishi rejallashtirilgan “Qiyomat qarz” asaridagi qahramonlar obrazlari ustida ishlashga doir dars bosqichlarini rejallashtiring va yozing.

3-variant

Epik asarlarni o‘rganishga doir kirish mashg‘ulotlari mazmunini yoriting.

7-sinfda “Me’mor” romanidan berilgan matn tahlilida lug‘at bilan ishlash yo‘llarini yoriting.

4-variant

Epik asarlar tahlilida o‘qituvchining kirish so‘zi ahamiyati xususida amaliy tavsiya tayyorlang.

Ch.Aytmatovning “Oq kema” asari tilini o‘rganish usullarini ko‘rsating.

5-variant

Asarni badiiy idrok etishga qaratilgan savollarning ahamiyati haqida ma'lumot bering.

7-sinfda A.Qodiriyning “Mehrobdan chayon” romanini o‘qishga qiziqtirishga doir savollar tuzing.

6-variant

Epik asarlar tahlilida asarni o‘qish davomidagi savollarning o‘rnini yoriting.

“Mehrobdan chayon” romanidan berilgan parchani o‘rganishda asarni o‘qish davomidagi savollar tuzing.

7-variant

Epik asarlarni o‘rganishda o‘qishdan keyingi savollarning o‘rnini yoriting.

“Mehrobdan chayon” romanini o‘rganishga doir o‘qishdan keyingi savollar tuzing.

8-variant

Epik asarlar tahlilida lug‘at bilan ishslash usullarini yoriting.

“Mehrobdan chayon” romani matnida uchraydigan ma’nosi notanish so‘zlar ustida ishslash yo‘llarini yoriting.

9-variant

Epik asarlarni o‘rganishda muammoli tahlilning o‘rnini yoriting.

“Mehrobdan chayon” romanidan berilgan “Chayonning namoyishi” bobimi muammoli tarzda o‘rganishga doir dars ishlanmasi yarating.

10-variant

Epik asarlarni tadqiqot metodi asosida o‘rganishning ahamiyatini yoriting.

“Mehrobdan chayon” romanini tadqiqot metodi va uning tarkibidagi usullar doirasida o‘rganish loyihasini yarating.

11-variant

Badiiy asar qahramonlari nutqini o‘rganishda samarali bo‘lgan metod va texnologiyalarning o‘rnini yoriting.

“Mehrobdan chayon” asarida yozuvchining obrazlar tilini individuallashtirishdagi mahoratini anglatishga doir savollar tuzing.

12-variant

Yozuvchining tasvirlash mahorati, so‘z qo‘llash san’ati, inson ruhiyatining yashirin jihatlarini ocha bilish iste’dodi haqidagi fikrlaringizni bayon eting.

A.Qahhorning “O‘g‘ri” hikoyasidagi so‘z qo‘llash mahoratini yoritishga doir topshiriqlar tuzing.

13-variant

Badiiy asar qahramonlari ruhiyat tasvirini aniqlashga doir usullar mazmunini yoriting.

A.Qahhorning “Dahshat” hikoyasidagi har bir obraz tabiatining psixologik jihatdan asoslanganligi, tasvirning hayotiy va ta’sirchanligini tahlil qilishga doir metodlarni tanlang va mazmunini bayon eting.

14-variant

Epik asarlarni o‘rganishda ko‘rsatmalilikning turlarini yoriting.

Ernest Tompsonning “Yovvoyi yo‘rg‘a” asarini o‘rganishga doir ko‘rsatmali materiallar tayyorlang.

15-variant

Badiiy asar sujetini o‘rganishning maqbul yo‘llari haqida fikr yuriting.

“O‘g‘ri” hikoyasi sujetini o‘rganishga doir topshiriqlar tuzing.

YOZUVCHI HAYOTI VA IJODINI O'RGANISH YUZASIDAN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR ISHLAB CHIQISH

Ishning maqsadi: talabalarni yozuvchi hayoti va ijodini o'rganish yuzasidan savol va topshiriqlar ishlab chiqish mazmuni bilan tanishtirish va amalda shunday mazmundagi topshiriqlarni tuzish ko'nikmasini shakllantirish.

Foydalanish uchun adabiyotlar:

1. Husanboyeva Q., Niyozmetova R. Adabiyot o'qitish metodikasi. – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2020. – 292-305-b.
2. To'xliyev B. Adabiyot o'qitish metodikasi. Amaliy mashg'ulotlar. – Toshkent: Bayoz, 2011. – 240 b.
3. 7-sinf "Adabiyot" o'quv dasturi va darsligi.

Kerakli jihozlar: kompyuter va multimedia vositalari

Ishni bajarish tartibi:

- 1) yozuvchi hayoti va ijodigani o'rganishga oid metodik adabiyotlar bilan bat afsil tanishish;
- 2) "Adabiyot" o'quv dasturlarida rejalshtirilgan yozuvchilar ijodini o'rganish yuzasidan belgilangan jihatlarni aniqlash;
- 3) savol va topshiriqlar tuzish mazmuni bilan tanishish (1-ilova);
- 4) yozuvchi shaxsiyatini o'rganishga doir manbalar bilan tanishish va shu asosda savollar tuzish (2-ilova).

1-ilova

Amaliyotda o'qituvchi tahlilning u yoki bu yo'lini o'rganilayotgan asar janri, mazmuni, tuzilishi va hajmiga qarab tanlaydi. Badiiy asar yuzasidan tuziladigan savollar uning g'oyaviy-badiiy mazmunini ochishga qaratiladi. Har tomonlama puxta tuzilgan savollar "tafakkurning bilmaslikdan bilishga, bilishning chalaligi yoki noaniqligidan to'liq va aniq shakliga o'tkazadigan samarali vosita"¹³dir. O'quvchilar savol va topshiriqlar bo'yicha matndan tanlangan zaruriy materialni tahlil qiladi va mustaqil xulosalar chiqaradi.

Badiiy asarlarning umumlashma tahlili kamroq kuch sarflab, aniq materialni xotirada tiklashga yordam beradigan savol va topshiriqlar asosida amalga oshirilgani ma'qul. Ular o'quvchini fanni chuqur o'zlashtirishga tayyorlaydi, mustaqil ishlashni, o'z nuqtayi nazari orqali baho berishni talab qiladi. Izlanish muhiti ishni jonlantiribgina qolmasdan, qiziqarli ham qiladi. Bu esa, o'z navbatida, badiiyatning

¹³ Хусанбоева К. Адабиёт – маънавият ва мустақил фикр шакллантириш омили. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2009. – 119-б.

o‘quvchi shaxsiyatiga ta’sirini kuchaytiradi.

O‘qituvchi mashg‘ulotlarga tayyorgarlik chog‘ida savollarning xususiyatini o‘ylab ko‘rishi, maqsadini aniqlab olishi muhim. Savollar o‘rganilayotgan asarga qiziqtirishi, mazmunini tushunish va idrok etishga chorlashi, xulosa chiqarishga harakat qildirishi, muammoli vaziyatlarni chog‘ishtirish, qiyoslash, hal etishga yo‘naltirishi lozim. Agar o‘quvchi fikrlash jarayonida nafaqat kitobiy, balki hayotiy kuzatishlari, shaxsiy tajribalariga tayanib mulohaza yuritsa, bu uning aqliy faoliyatini yanada faollashtiradi, tafakkuriga hissiy ta’sir ko‘rsatadi.

Savol va topshiriqlar nafaqat umumiy mavzu, balki asosiy g‘oya, ma’lum fikr va ma’no jihatidan uzviy bog‘liq bo‘lgani ma’qul. Yangi materialni o‘rganish, mustahkamlash va umumlashtirish jarayonida uyushtiriladigan savol-javoblar o‘quvchilarning bilim darajasini baholashga yordam beradi. O‘quvchilarning savollarga javobini baholashda javobning to‘liq va to‘g‘riliqi, o‘rganilgan materialni tushunish darajasi hamda axborotning mantiqiy izchilligi hisobga olinishi zarur.

Savol va topshiriqlar muayyan fikr-mulohazalarga turlicha yondashuvlarni taqozo etib, shu orqali biror nuqtayi nazarning to‘g‘ri yoki aksinchaligini mantiqiy asoslashga zamin yaratadi. Shuningdek, yozuvchi uslubi va asarning asosiy xususiyatlarini o‘zlashtirish, muammoni shakllantirishga oid ichki va tashqi sabablarni o‘rganish, taxminlarni ilgari surish va asoslash, fikrni emas, fikrlashni singdirish, masalani yechishda yangi bilimlarni o‘zlashtirish maqsadiga xizmat qiladi.

Savol va topshiriqlar badiiy matn tarkibini mazmunli ochish vositasidir. O‘quvchilarda badiiy asar mutolaasiga qiziqish uyg‘otish adabiyot o‘qitish metodikasi, pedagogika va psixologiyaning mushtarak muammosi sifatida soha xodimlarini ko‘pdan buyon qiziqtirib keladi. Milliy o‘qitish tizimida savol va topshiriqlar ustida ishlash muammolari bir qator metodist olimlar izlanishlarida tadqiq etilgani ko‘zga tashlanadi. Jumladan, M.Mirqosimova tomonidan turli janrdagi asarlar tahlilida darslikda keltirilgan savol-topshiriqlar badiiy asarning shakl unsurlari bilan mazmun yaxlitligini uyg‘un holda tushunishga qaratilishi nuqtayi nazaridan o‘rganilsa¹⁴, Q.Husanboyevanining ilmiy tadqiqotida uy vazifalarini so‘rashning asosiy quroli sifatida izohlanadi¹⁵.

R.Niyozmetovaning tadqiqot ishida esa savol-topshiriqlarning

¹⁴ Миркосимова М.М. Ўқувчиларда адабий таҳлил малакасини шакллантириш ва такомиллаштириш усуслари. Пед. фан. док. ... дисс. – Тошкент, 1995. – 253 б.

¹⁵ Хусанбоева К. П. Адабий таълим жараёнида ўқувчиларни мустакил фикрлашга ўргатишнинг илмий-методик асослари. Пед. фан. док. ... дисс. – Тошкент, 2006. – 262 б.

matnga nisbatan joylashtirilishiga ko‘ra o‘qishgacha va o‘qishdan keyingi ikki turi, shuningdek, o‘qituvchi va o‘quvchilar hamkorligida adabiy asarni o‘qib-o‘rganishlari mobaynida ko‘rsatadigan faoliyatiga bog‘liq holda tuzilishiga e’tibor beriladi¹⁶. Tadqiqotda ilmiy asoslangan matnni o‘qishdan oldin bajariladigan leksik-grammatik mashqlar bilan bog‘liq o‘qish vaqtida va parcha o‘qilgandan keyin beriladigan savol-topshiriqlar samaradorligi allaqachon o‘z tasdig‘ini topgan bo‘lsa ham hanuzgacha umumta’lim maktablari adabiyot darsliklari mualliflari tomonidan e’tiborga olinmayotganligi e’tirozlidir. Amaldagi ba’zi darsliklarda yozuvchi hayoti va ijodi haqida so‘zlab berish, uning qaysi asarlarini bilishi mazmunidagi savol-topshiriqlar bugun o‘quvchilarni tahlilga yo‘llash, nazariy bilimlarni amalda qo‘llash, mutolaaga qiziqtirishdan ham ko‘ra ma’lumotlarni shunchaki yodda saqlab qolish, matnni qayta hikoya qilib berish kabi hollarga sabab bo‘lmoqda. Bu borada mualliflarning darslik yaratish jarayonida adabiy ta’limga oid tadqiqot ishlarida ilgari surilgan g‘oya va tavsiyalarga tayanishi haqidagi takliflar mavjud muammolarning bartaraf etilishiga ma’lum darajada xizmat qiladi.

Izlanishlar davomida rivojlangan xorij davlatlarida masalaga qay darajada yondashilgani ham o‘rganildi. Ayon bo‘ldiki, Yevropa va AQSH kabi davlatlar o‘qitish tizimida savol-topshiriqlar joylashish o‘rniga ko‘ra o‘zgacharoq: asarni o‘qish davomida (matn ichida) ta’kid va murojaatlar tarzida kelishi, shuningdek, o‘quvchi diqqatini jalg etadigan ko‘rinishlarda joylashtirilishi bilan farqlanadi (bu kabi yondashuvlar R.Niyozmanovning tadqiqot ishidan ham o‘rin olgan).

Darslik va majmualardan o‘rin olgan savol va topshiriqlar qurilishi shaklan bir necha bosqichda, mazmunan esa adabiyotning san’at sifatidagi o‘rnini belgilash, yozuvchi uslubi individualligini tekshirish, muayyan adib ijodi tadqiqotchilarini o‘rganish, tanqidiy fikrlashga yo‘naltirish, asarda davr ruhining aks etishi, faol o‘qish strategiyalari, o‘quvchilar fantaziysi hamda egallagan hayotiy tajribalari kabi omillarga tayanib tuzilishi; dizayni zamon va makon nuqtayi nazaridan: asarning yaratilish tarixi, mazmuniga oid shaxs, predmet yoki me’moriy obidalar tasvirlarining keltirilishi, turli o‘lcham va rangdagi shriftlarda, hoshiyadan tashqarida berilishi bilan noan’anaviylik kasb etadi (xususan, Amerika Qo‘shma Shtatlarining “MC Dougal littell literature. World literature”, 5-sinflar uchun “Literature. Read and Write”, Rossiyaning “B

¹⁶ Ниёзметова Р.Х. Узлуксиз таълим тизимида ўзбек адабиётини ўрганишнинг назарий ва методик асослари (рус гурухлари мисолида). Пед. фан. док. ... дисс. – Тошкент, 2007. – 149-б.

мире литературы”, Ukrainianing “Интегрированный курс: Литература русская и зарубежная” darslik-xrestomatiyalari va hokazo).

Rossiyalik metodist olimlar G.V.Pransova, V.Chalmayev va S.Zininlar amalda matn tahlilining bir qator samarali usullarini taklif etadilar. Bular namunaviy rejalar; modul-asoslar; “tayanch” materiallar. V.Chalmayev va S.Zininlarning fikricha, tahlilni qadamma-qadam izchil tarzda amalga oshirishga yordam beradigan “tayanch” materiallar maqsadi metodik xilma-xil va ayni paytda, yagona, ya’ni o‘quvchilarning analitik iqtidori va ijodiy potensialini oshirishga qaratiladi. Bu turdagи tahlil modeli vazifalarning asosiy qismi materialga savollar shaklida berilishidadir¹⁷.

Savol-topshiriqlar o‘quvchini mutolaaga qiziqtirishi, fikrlashga undashi, kontekstni tushunishga tayyorlashi, tahlilga yo‘naltirishi, sintez, baho berish, mavzuni boshqa fanlar, eng muhimi, hayotga bog‘lay olishi nuqtayi nazaridan ham samaralidir. Shuningdek, badiiy asarning tasvir obyekti, tuyg‘ular tarbiyasini to‘la yoritishga, obrazlilikni tasavvur ettirishga, kitob bilan hayot o‘rtasidagi aloqadorlik xususida mushohada yuritishga yo‘naltiradi.


O‘quvchilarning kitobxonlik ko‘nikmalarini kichik maktab yoshidan boshlab shakllantirishga doir optimal va rag‘batlantiruvchi texnologiyalarni tasniflar ekan, professor N.Egamberdiyeva matn ustida ishslash jarayonini o‘qishgacha, o‘qish davomida va o‘qishdan keyin uch bosqichda tashkil etish samara berishiga alohida urg‘u qaratadi¹⁸. Binobarin, o‘qituvchi asar matni ustida ishslash davomida o‘quvchi faoliyatini konkret yo‘nalishga solishi, nazariy tushunchalarni amalda qo‘llay olishini ko‘zda tutishi barobarida matn bilan ishslash bosqichlarini quyidagicha rejalashtirishi maqsadga muvofiq:

- o‘qishdan oldin;
- o‘qish davomida;
- o‘qishdan keyingi.

Matnga nisbatan joylashtirilishiga ko‘ra yuqorida ko‘rsatilgan shakldagi savol-topshiriqlar quyidagi maqsadlarga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir:

¹⁷ Чалмаев В.А., Зинин С.А. “Русская литература XX века” (11 кл.) при изучении предмета на базовом и профильном уровнях. Профильное обучение. 2-е изд. – Москва: 2005. – 11–12 с.

¹⁸ Эгамбердиева Н. Технологии формирования читательских умений у младших школьников / Адабиёт фанини замонавий ўқитиши масалалари. Республика илмий-назарий конференция материаллари. – Тошкент, 2017. – Б. 8–13.



Yo'naltiruvchi savol-topshiriqlar muallif kechinmalarini chuqr idrok etish, fikrni muayyan izchillikda ifodalash va asoslashga imkon beradi. Quyida N.Norqobilovning “Oqbo‘yin” qissasini mustaqil o‘qib-o‘rganishga doir savol-topshiriqlarga misollar keltiriladi:

Asarni o'qishdan oldingi savol-topshiriqlar

1. Qadrli o‘quvchi, sizning xonadoningizda ham qaysidir jonivorlardan birontasi bo‘lsa kerak. Hayvonlarning o‘ziga xos dunyosi bo‘lishi haqida nima deya olasiz?
2. Dala-yu dasht, o‘rmon va tog-u toshlarda yashovchi hayvonlarning ham o‘ziga tegishli hududi va u yerda qat’iy tartib bo‘lishi haqida nimalarni eshitgansiz? Shu haqda so‘zlab bering.
3. Begona jonzotlar o‘zlarini bahaybat, kuchli va zo‘r deb tasavvur qilishlari uchun hayvonlar bo‘ylari yetguncha daraxtlarning eng yuqori qismiga iz – maxsus belgi qoldirishi haqida o‘qiganmisiz? Agar biror joyda o‘shanday “ishora”larga ko‘zingiz tushgan bo‘lsa, ular haqida do‘stilarinigiz bilan suhbatlashing va mazmunini daftaringizga yozib qo‘yishni unutmang.

4. Hayvonlarga tegishli maxsus belgi, “shaxsiy mulk” haqidagi lavha va ma’lumotlar kimlarning asarlari yoki qaysi filmlarda uchraydi?

5. Biron marta bo‘lsa-da, xayolingizdan hayvonlar ham o‘z qondoshlarini tanirmikan, degan fikr o‘tganmi?

6. Hayvonlardagi o‘zaro munosabatlar haqida nima deya olasiz? Qaysi hayvonlarni bir-biriga yaqin “do‘st” yoki “dushman” deyish mumkin?

7. Agar “Lobbo ismli bo‘ri” yoki “Qizaloq va tulkicha” kabi filmlarni tomosha qilgan bo‘lsangiz qaysi birining sujeti N.Norqobilovning “Ovul oralagan bo‘ri” qissasiga o‘xshab ketadi? Hayvonlar haqidagi qaysi asarga film ishlanishini xohlar edingiz?

8. Asarni o‘qish davomida Oqbo‘yining harakatlari siz bilan sevimli jonivorlaringiz o‘rtasida bo‘lib o‘tgan qaysidir voqealarni yodga solsa, shunga o‘xhash lavhalarni belgilab, mutolaa kundaligiga qayd etib boring.

Asarni o‘qish davomidagi savol va topshiriqlar

“... Ko‘p o‘tmay tuyulishda Yoldor ko‘rindi. Ortidan bo‘y-bastiga qarab yana to‘rt sherigi qator kelishardi. Aftidan qorinlari xiyla to‘q shekilli, qadam olishlari lanjroq, hatto uzoq-yaqindan eshitilayotgan hamjinslarining uvlashlariga ham ko‘pda e’tibor berishmasdi. Saf oxirida kelayotgan jussasi kichikroq bo‘rining nimadandir betoqatlanishini hisobga olmaganda, to‘da tinch va sokin vaziyatda olg‘a siljirdi.

Ammo pistirmaga yetmish-sakson odim qolganda Yoldor kutilmaganda sergak tortdi. To‘xtadi. Cho‘nqaydi. Tumshig‘ini ko‘kka cho‘zib, iskalandi. O‘tgan kuni Oqbo‘yinni axmoq qilgan suyagi buzuq bo‘ri unga baqamti kelgach, ikkisi nima haqdadir uzoq kengashdilar.

*Aziz o‘quvchi, yirtqichlar nima haqida
fikrlashganini fahmladingizmi? Voqealarni sabr
bilan kuzatishda davom etamiz.*

So‘ngra shamolda vahimali shovullayotgan yulg‘unzorga tikilgancha turib qolishdi. Ularning nimadandir hadik oglani aniq edi.

Yirtqichlar tabiatan juda bardoshli bo‘lishadi. Ana shu xususiyatlari tufayligina ular ko‘pincha hayotlarini xavf-xatardan asrab qolishadi. Ozgina shoshqaloqlik yoki ehtiyotsizlik hamisha o‘lim bilan tugaydi.

Yoldor ko‘ngil bezovtaligini aniq idrok etolmagani uchun ham sabr qilishga qaror qilgandi. Bu yerda aql-idrokdan ham ko‘ra sabr-toqat ko‘proq ish beradi. Yulg‘unzorda mabodo ovchi bekingan bo‘lsa, baribir o‘zini bildirib qo‘yadi. Yoldor buni ko‘p sinagan. Agar it bo‘lsa, gar shunga jur’ati yetsa, hademay irillagancha yugurib chiqadi. Qo‘pol bu jonivorlar kutishdan ko‘ra qutqu solishni afzal bilishadi. Ammo Yoldor bu gal adashgandi. Adashgani shundaki, u Olaparni xayolidan chiqargandi. Yulg‘unzor Olaparga emas, Oqbo‘yinga yaqinligi tufayli hatto hurishga erinadigan Olaparning bu yerga kelishini tasavvuriga ham sig‘dirolmasdi.

To‘g‘ri, u bekorga vaqt yo‘qotmay, yulg‘unzorni aylanib o‘tishi ham mumkin edi. Unda ko‘ngliga shubha solgan xatar jumboqligicha qolib, keyin yuragi g‘ash tortib yuradi. Bundan tashqari, yana o‘tib-qaytishi bor. Agar xavfni bugun aniqlamas ekan, ertaga bu yerlarga qadam bosmoqni o‘ylamasa ham bo‘ladi.

*Qadrli o‘quvchi, jamoani
boshqarish hayvonlardan qanday
xususiyatlarni talab qilar ekan?*

... Chunki bir xavflangan joydan ikkinchi bor o‘tishda, hadik va qo‘rquvdan bo‘ri zoti xiyla et tashlaydi. Baxtga qarshi shamol ham uning zarariga ishlamoqda edi¹⁹.

Muhtaram o‘quvchimiz, mana mutolaani ham nihoyasiga yetkazdingiz. Albatta, sevimli qahramoningizga aylangan Oqbo‘yining halokati sizni quvontirmadi. Karim podachining fofiasiga ham achingan bo‘lsangiz kerak, shundaymi? Endi esa odamlar, sir-asrorlarga to‘la hayvonot olamining qaysi jihatlarini kashf qilganingizni sinamoq uchun sizga ba’zi savollar bilan murojaat qilmoqchimiz.

Mutolaadan keyingi savol va topshiriqlar

O‘YLANG! Inson va tabiat o‘rtasidagi muvozanat buzilgan yerda qanday illatlar qalqib chiqadi?

Hayvonlardagi ziyraklik, hid bilish uquvi, mas’uliyat kabi sifatlar tasvirida yozuvchi qanday omillarga tayangan deb o‘ylaysiz?

HAYOT BILAN BOG‘LANG! Siz hayotda Karim podachiga o‘xhash biror kimsaga duch kelganmisiz? Agar shunday bo‘lsa, ular

¹⁹ Норкобилов Н. Тоғдаги ёлғиз одам. –Тошкент: Ўзбекистон, 2011. – 106–107-б.

qaysi jihatlari bilan o‘xshashliklarini solishtiring. Ayrim farqlarini ham ko‘rsating.

Siz yashaydigan hududda *hadaha qamchi, dov, oqquray* kabi so‘zlar qanday ma’noni anglatadi?

Juftga sodiqlikda ba’zi insonlar bo‘ri, ayiq, sher kabi yirtqichlardan o‘rnak olsalar arziydi, qabilidagi fikrlarga nisbatan fikringizni bayon eting.

TASAVVUR QILING. Jon berayotganda Karim podachining xayolidan nimalar o‘tgan bo‘lishi mumkin? Qilgan yovuzliklaridan afsuslanishmi yoki buning aksimi? Shu haqda tasavvurlaringiz bilan o‘rtoqlashing.

KASHF ETING! Qadrli kitobxon, sizningcha, asar boshqacha yakun topishi mumkin edimi? Siz muallifning o‘rnida bo‘lganiningizda asarni qanday yakunlagan bo‘lar edingiz?

2-*ilova*

Ayrim asarlari yuzasidan shunchaki fikr yuritish orqali biror yozuvchi ma’naviy olamiga yetarlicha baho berib bo‘lmaydi. Shu nuqtayi nazardan olganda, ijodkor xarakteri, dunyoqarashi va hayotiy maslagi yaratgan asarlaridagina emas, balki zamondoshlari, yaqin insonlariga yo‘llagan xatlari, yuritgan kundaligi-yu tundaliklariga chuqurroq nazar tashlash orqali yanada oydinlashadi.

Umumiy o‘rta ta’lim mакtablarining “Adabiyot” fani o‘quv dasturida Said Ahmad umrbayoni va ijodi bilan tanishishga 6-, 8-sinflarda 2 soatdan vaqt ajratilgan²⁰. Yozuvchi tarjimayi holi u qatag‘on qilingan vaqtda rafiqasi Saida Zunnunovaga yozgan maktublar bilan uzviylikda o‘rganilsa, shaxsiyatining muhim qirralari, sho‘rolar davridagi muhitning biqiligi, adibning atrofidagi insonlar bilan munosabatlari haqida mustaqil fikr-mulohaza yuritishga zamin yaratiladi. Buning uchun esa maktublarga bag‘ishlangan sinfdan tashqari mashg‘ulotlar tashkil etilishi maqsadga muvofiq. Kutilgan natijalarga erishishida dastlab loyiha tayyorlanishi, ta’lim maqsadlari puxta rejalshtirilishi, metod va usullar to‘g‘ri tanlanishi hamda o‘rganilayotgan mavzu mazmun-mohiyatini ochishga qaratilgan topshiriqlar tizimi ishlab chiqilishi zarur.

Mustaqil izlanishlarni tashkil etishda vazifalar qanchalik aniq bo‘lsa, o‘quvchilar faoliyati shunchalik yengil kechadi. Mashg‘ulotga qadar o‘quvchilarga xatlarning mavzusi, tuzilishi, g‘oyasini o‘rganish;

²⁰ Umumiy o‘rta ta’limning Davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturi. Ona tili. Adabiyot. 5–9-sinfдфк // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. – Toshkent: 2017-yil 14 (774)-son, 230-modda. – 112-b.

badiiy tasvir vositalarini topish; taassurotlarini bayon qilish; o‘tgan asr va mustaqillik davri adiblari ijodining farqli jihatlarini belgilash vazifalari topshiriladi.

Manbalarni topishda esa axborot-kutubxona fondidan foydalanishga doir tavsiyalar berilib, adabiyotlar ro‘yxati ilova qilinadi. Vaqtı-vaqtı bilan topshiriqlar ijrosi yakka yoki jamoa tarzida savol-javob, suhbat usullarida nazorat qilib turiladi.

Mashg‘ulot maqsadi murakkab insoniy his-tuyg‘ular yuzasidan mushohada yuritish va muayyan xulosalar chiqarishni taqozo etadi. Shu bois o‘quvchilardan muallif ichki kechinmalari aks etgan jumlalarga ijodiy yondashishlari talab etiladi. Binobarin, yozuvchi xarakter xususiyatlari, tafakkur doirasi nafaqat asarlarida, balki maktublardagi har bir so‘zda o‘zining teran ifodasini topgan.

Yurakdan qog‘ozlarga ko‘chgan haroratli satrlar o‘quvchilarning hayotga bo‘lgan qarashlarini o‘zgartirishi, qahramonning sermashaqqat, ammo havas qilishga arzigulik umr sahifalari esa ibrat bo‘lishi, shubhasiz.

Botiniy ehtiyojlari mahsuli bo‘lgan yozishmalarda bu juftlikning bir-biriga samimiy muhabbatlari, maqsadi yo‘lidagi kurashlari va e’tiqod qo‘ygan jamiyat adolatsizligidan norozilik ohanglari sezilib turadi.

Adib po‘rtana misol tug‘yon urayotgan hislarini g‘oyatda nuktadonlik bilan tasvirlab, “chinakam do‘sti”ni yorug‘ kunlar kelishiga ishontiradi:

“... Yozgan xatingizda “hasratimni yozay desam, qalamga o‘t tushib qog‘oz kuyib ketdi”, debsiz.

O‘sha kuygan qalam bilan qog‘ozning yolqini mening ham qalbimda alanga olib ketdi. Qalamni kuydirmang. Hijron o‘tida toblansin, chiniqsin. Qalam qancha qora bo‘lsa oppoq qog‘oz betida jonli manzaralarni yanada jonliroq yaratadi. Mana shu qog‘ozlarda tasvir etganimiz manzaralardan poyondoz qilib kelajakka bormog‘imiz kerak. Ha, birga bormog‘imiz kerak. Ruhan tusha ko‘rmang. Kitob bilan qalam ulfatingiz bo‘lsin.

Men xuddi shunday qilyapman ...”²¹.

Da’vatlariga javoban Saida Zunnunova Said Ahmad kutganidan-da qat’iyatli bo‘ldi va hech qachon nomard kimsalar oldida bosh egmadi. Xo‘rliklar, ta’qiblar, “xalq dushmani”dan voz kechish kerakligi haqidagi da’volarga chidab, bardosh va sadoqatdan o‘zbek ayoliga haykal qo‘ya oldi.

²¹ Borlig‘im, kelajagim, taqdirimni baham ko‘rdim. Nashrga tayyorlovchi Nodira Said Ahmad qizi // Saodat. – Toshkent, 2011. – № 5–6. – 15-b.

Muallif o‘zligini yuzaga chiqarishi barobarida maktublar begona tuproqda yurt sog‘inchidan o‘rtangan inson qiyofasini yaqqol gavdalantiradi:

“... Radio Toshkentdan eshittiryapti. Tanish ovozlar, konsert va nihoyat torda “Cho‘li Iroq”.

Butun vujudim bilan torning titroq sadolariga berilib ketdim, balki ko‘zimdan yosh ham chiqqandir, sezmadim ...”²².

Kun kelib orzular amalga oshdi. Adib oqlandi va ozodlikka chiqdi. Vatani va xalqi oldida yuzi yorug‘ bo‘ldi. Bunga esa osonlikcha erishilgani yo‘q, albatta ...

Demak, xatlar bu juftlik ma’naviyati ko‘zgusi, armonlari ro‘yobi hamda haqiqat tantanasiga ilinj manbayi bo‘lganligini qayd etish mumkin.

Tahlildan kutilgan natijalarga erishishda o‘qituvchining quyidagi mazmundagi savollar tuzishi o‘quvchilarda ijodkor shaxsiyatidagi evrilişlar yuzasidan paydo bo‘lgan fikr-mulohazalar bilan o‘rtoqlashish imkonini beradi.

1. Oilasi boshiga tushgan baxtsizliklarda adibning faqat o‘zini aybdor sanashini to‘g‘ri deb hisoblaysizmi?

2. Bayram arafasidagi “Qutlov” maktubida “... Kechardim ertangi qolgan umrimdan, Kechardim jonimdan, bo‘lib minnatdor” satrlari ma’nosini izohlang.

3. Shoirning “Ajabmas, bir kun kelib Baxt qo‘nsa peshonamga” misralarini qanday tuyg‘ular mahsuli deb bildingiz?

4. Xatlardan biridagi ”Cho‘g‘ni qog‘ozga o‘rab bo‘ladimi?” jumlasining ma’nosini izohlang.

5. Ayol kishiga yolvorishni ojizlik va tubanlik deb bilishidan ijodkor tabiatidagi qaysi jihatlarni ilg‘adingiz?

6. Olis o‘lka iqlimi, odamlari kayfiyati ham yozuvchi nazaridan chetda qolmaganligi nimadan dalolat beradi?

7. Nima sababdan Toshkent shahrida o‘rnatalgan monumentda adib bilan umr yo‘ldoshi yonma-yon ishlangan?

Demak, mustaqil va sog‘lom tafakkurli, o‘z maslagida sobit shaxs tarbiyasida epistolyar janr namunalarini o‘rganish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

²² Borlig‘im, kelajagim, taqdirimni baham ko‘rdim. Nashrga tayyorlovchi Nodira Said Ahmad qizi // Saodat. – Toshkent, 2011. – № 5–6. – 15-b.

Muhokama uchun savollar

Ish yakunida talabalarga quyidagicha jadval tarqatiladi va mavzu yuzasidan tegishli tavsiyalar ishlab chiqish vazifasi topshiriladi:

Savol-topshiriqlar	Natijalar
Mavzuni o‘rganishda qanday ish turlari va shakllaridan foydalandingiz?	
Bo‘lajak kasbiy faoliyat uchun zarur bo‘lgan qaysi jihatlarni o‘zlashtirdingiz?	
Bilib oldim:	
Tushunib yetdim:	
O‘rgandim:	
Mavzuni o‘zlashtirishda menga:	
Oson bo‘ldi:	
Qiyinchilik tug‘dirdi:	
Xalaqit berdi:	
1.Yozuvchi hayoti va ijodini o‘rganish yuzasidan kimiarning tadqiqot ishlaridan foydalandingiz? Har birining o‘ziga xos jihatlarini yoriting. 2. Yozuvchi ijodini o‘rganishda savol va topshiriqlar ishlab chiqishda samarali deb topilgan jihatlarni bayon eting.	

LABORATORIYA ISHI TOPSHIRIQLARI

Eslatma: barcha variantdagi 1-topshiriqda yozuvchi hayoti va ijodini o‘rganish metodikasi hamda savol va topshiriqlar xususiyatlari bilan tanishib chiqish vazifasi qo‘yilgan.

1-variant

Adabiy ta’limda avval o‘rganilgan bilimlarni eslashga doir savollarning o‘rni xususida fikringizni bayon eting.

11-sinfda o‘rganilishi rejalashtirilgan “Devonu lug‘otit-turk” asaridan Mahmud Qoshg‘ariyning geograf, botanik, zoolog, biolog, etnograf, tilshunos, folklorshunos, adabiyotshunos, tarixchi olim sifatida namoyon bo‘lgan o‘rinlarni aniqlashga doir savol-topshiriqlar tuzing.

2-variant

Yozuvchining badiiy asarda tutgan mavqeyini o‘rganish yo‘llarini bayon eting.

Xamsachilik an’analari rivojida Alisher Navoiyning o‘mini qiyosiy tahlil orqali o‘rganishga doir tezis tayyorlang.

3-variant

Savol-topshiriqlarning uy vazifalarini so‘rashdagi o‘rni xususida amaliy tavsiya tayyorlang.

11-sinfda o‘rganilishi rejalashtirilgan “Saddi Iskandariy” dostonidan muallifning dunyoqarshi aks etgan o‘rinlarni topishga doir savollar tuzing.

4-variant

“Adabiyot” darsliklaridan umumlashtiruvchi xarakterdagи savollarga misollar toping. Ularning qo‘llanilishiga munosabat bildiring.

11-sinf “Adabiyot” darsligidan yozuvchi hayoti va ijodini o‘rganishda xotirlashga qaratilgan savollarni topib tahlil qiling. Ularning qay darajada samarali yoki samarasiz ekanligini baholang.

5-variant

9-sinf “Adabiyot” darsligidan har tomonlama o‘ylash va tahlil qilishni talab qiladigan savollarni topib, ularga munosabat bildiring.

7-sinf “Adabiyot” darsligidan yordamchi manbalarga murojaat qilishga undaydigan savollarni aniqlab, ularning o‘quvchi tafakkuriga ta’sirini bayon eting.

6-variant

Xorij mamlakatlaridagi darsliklarda savol-topshiriqlarning joylashtirilishi va mazmuni qanday bo‘lishini aniqlang. Ularning o‘quvchilar tafakkuri va estetik didini o‘sirishdagi jihatlariga baho bering.

11-sinfda Bobur hayoti va ijodini o‘rganishga qiziqtirishda o‘qishdan oldingi savollarga namunalar tuzing.

7-variant

O‘qish davomidagi savollarning maqsadi nimaga qaratilishi yuzasidan amaliy tavsiya tayyorlang.

7-sinfda o‘rganilishi rejalashtirilgan O.Yoqubovning “Muzqaymoq” asarida muallif va qahramon hayoti bilan bog‘liq mushtarak jihatlarni aniqlashga yo‘naltiruvchi topshiriqlar tuzing.

8-variant

Ijodkorlar o‘rtasidagi yozishmalarni o‘rganishning ular shaxsiyati, ichki dunyosini ochishdagi o‘rni haqida amaliy tavsiya tayyorlang.

Uzluksiz adabiy ta’lim jarayonida Said Ahmad va Saida Zunnunova ijodini o‘rganishda ular o‘rtasidagi yozishmalarni o‘rganing. Ular ijodikor ichki dunyosini, o‘zaro munosabatlarni qay darajada aks ettirishi bilan bog‘liq jihatlarini aniqlashga doir savollar tuzing.

9-variant

Yozuvchi ijodi fondidagi g‘oyaviy mazmun uning asarlari sarlavhasida qay darajada aks etishi bilan bog‘liq xususiyatlar haqida fikringizni bayon eting.

11-sinfda o‘rganilishi rejalashtirilgan Cho‘lpon ijodidagi g‘oyaviylik va xalqchillikni o‘rganishda uning hayoti va ijodi bilan bog‘liq jihatlarni anglashga doir savol-topshiriqlar tuzing.

10-variant

“Adabiyot” darsliklaridan ijodkorning o‘z tilidan hikoyalash tarzida berilgan tarjimayi hollarni o‘rganing. Bunday yondashuvlarning o‘quvchilarga ta’sirini tahlil qiling.

Umumta’lim maktablari “Adabiyot” darsliklarida (sinflar kesimida) yozuvchi tarjimayi holining berilishiga doir yondashuvlarga baho bering va taqriz yozing.

11-variant

Biror chet davlat “Adabiyot” darsligini topib, undan ijodkor tarjimayi holining berilishi masalasini o‘rganing va amaliy tavsiya tayyorlang.

“Adabiyot” darsliklarida yozuvchi hayoti va ijodini o‘rganish masalasiga doir qarashlaringzni tezis tarzida bayon eting (biror sinf darsligi misolida).

12-variant

“Adabiyot” darsliklarini tabiiy, aniq va gumanitar yo‘nalishdagi boshqa darsliklar bilan qiyoslang. Ulardagi yondashuvlarning qaysilarini “Adabiyot” darsliklariga qo‘llash mumkinligi haqida tavsiya tayyorlang.

Yozuvchi hayoti va ijodining o‘rganilishiga doir taqdimot tayyorlang.

13-variant

“Adabiyot” darsliklari mazmunidan o‘quvchilarni zeriktiradigan jihatlarini aniqlab tahlil qiling. Bunday kamchiliklarni bartaraf etishga doir tavsiyalaringizni bayon eting.

Yozuvchi tarjimayi holining berilishini biror chet davlat darsliklaridagi yondashuvlar bilan qiyoslab, amaliy tavsiyalaringizni bayon eting.

14-variant

Umumita’lim maktablari “Adabiyot” darsliklarida yozuvchi hayoti va ijodining berilishi masalasiga qanday o‘zgartirish kiritgan bo‘lar edingiz? Takliflaringizni tezis shaklida yoriting.

Yozuvchi hayoti va ijodini o‘rganishga doir qanday zamonaviy yondashuvlarni taklif qilgan bo‘lardingiz? Takliflaringizni bayon eting.

15-variant

Amaldagi “Adabiyot” darsliklarini yaratishda darsliklarni yaratishga qo‘yiladigan qaysi talablar to‘liq aks etmagan deb o‘ylaysiz? Shi haqdagi fikringizni bayon eting.

Yozuvchi tarjimayi holini o‘rganishga o‘quvchini qiziqtiradigan amaliy takliflaringizni bayon eting.

AKADEMIK LITSEYLAR UCHUN NAVOIY DOSTONLARINI O'RGANISHGA VA TAHLIL QILISHGA QARATILGAN MULTIMEDIA MAHSULOTLARI TAYYORLASH

Ishning maqsadi: talabalarning akademik litseylar uchun Alisher Navoiy dostonlarini o'rganishga va tahlil qilishga qaratilgan multimedia mahsulotlarini tayyorlash ko'nikma va malakalarini rivojlantirish.

Foydalanish uchun adabiyotlar:

1. To'xliyev, B. Adabiyot [Matn] 10-sinf: darslik-majmua /B.To'xliyev va boshq. – Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2017. – 184 b.

To'xliyev, B. Adabiyot [Matn] 11-sinf: darslik-majmua /B.To'xliyev va boshq. – Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2018. – 200 b.

Kerakli jihozlar: Navoiy asarlari, multimedia vositalari

Ishni bajarish tartibi:

- 1) o'quv dasturi va darslik bilan yaqindan tanishib chiqish;
- 2) multimedia mahsulotlari tayyorlash texnologiyasi bilan batafsil tanishish;
- 3) miniatyura asarlarini o'qish yo'llarini o'rganish (1-ilova).

1-ilova

Adabiyotni estetik yo'nalishdagi fanlar, jumladan, tasviriy san'at asarlari bilan uyg'unlikda o'rganish o'quvchilarning xalqimiz madaniy rivojlanish tarixi, san'ati va an'analarini keng ko'lamda o'zlashtirishlari barobarida tadqiqotchilik faoliyatiga yo'naltirishi jihatidan ham katta imkoniyatlarga ega. Uzluksiz ta'lim tizimida Alisher Navoiy ijodini miniatyuralarga bog'lab o'rganish mavzuga nisbatan jiddiy yondashuvlarni talab etadi. Chunki hajm jihatidan kichik va ixchamligi; murakkab kompozitsiyasi; ko'rinishlarning yuqorida pastga qarab joylashtirilishi; asar markazidan chuqur g'oyaviy mazmun singdirilgan voqeanning o'rin olishi; arab yozuvidagi turkiy xat namunalari, tabiat, hayvonot va o'simliklar dunyosi tasvirlari; ranglar va detallar zamiriga singdirilgan ramziy ma'nolarni "o'qish" alohida tushuntirishlarga zarurat tug'diradi.

"Xamsa" dostonlarini miniatyura asarlari bilan uzviylikda o'rgatishda quyidagilarga e'tibor qilish maqsadga muvofiq:

mavvuga doir adabiyotlarni tavsiya qilishi, zarur hollarda ularni topishga yordamlashishi;

o‘quvchilar esa Sharq miniatura san’atining rivojlanish bosqichlarini o‘rganishi;

Navoiy asarlariga ishlangan illyustratsiyalar bilan yaqindan tanishishi;

“Xamsa” dostonlarining muhim o‘rinlariga doir rasmlar chizishi maqsadga muvofiq.

“Yosuman Shirinning “o‘limi” haqida Farhodga xabar bermoqda” miniaturasi umumta’lim maktablarining 9-sinfida “Farhod va Shirin” dostonini o‘rganishga zarur manba bo‘la oladi. Bunda quyidagi rejaga tayaniadi:

1. Tabiat manzarasi tasviri.

2. Ranglarning voqealar va qahramonlar ruhiyatini yoritishdagi ahamiyati.

3. Zolim Xisravning Yosumanni yollashi.

4. Makkora Farhod huzurida.

5. Farhodni qayg‘uga solgan xabar.

6. Farhod – yovuzlik qurbanoni.

Musavvir tafakkuri va taxayyuli in’ikosi sifatida dunyo yuzini ko‘rgan mazkur miniatyura chuqur g‘oyaviy mazmunga ega ko‘rinishlar silsilasidan iborat. Asarda arab alifbosidagi xat namunalari, tabiat tasviri, Farhod va Yosuman qiyofalari gavdalantirilgan.

Yuqorida mahobatli tog‘ cho‘qqilari uzra poyonsiz osmon. U go‘yo Farhod taqdiriga soya solayotgan mudhish falokat xavfini oldindan ko‘rib turganday xomush. Kartinaning asosiy qismini ulug‘vorlik va ezgu ishlarga ruhlantirish timsoli bo‘lgan muazzam tog‘lar egallaydi. Viqorli tog‘lar bag‘rini yorib, ko‘kka bo‘y cho‘zgan azim daraxtlar siy whole side of the page mosida insoniyatning oliyjanob maqsadlar yo‘lidagi zahmatlari va oydin hayot sari intilishlari ma’nosini uqish mumkin.

Agar diqqat bilan razm solinsa, yaxshilik bilan yomonlik o‘rtasidagi kurash kartinaning vertikaliga chap va o‘ng tomonida bir-biriga qaramaqarshi qo‘ylgan hayvonot dunyosi orqali ochib berilganining shohidi bo‘lamiz. Kiyiklar va tog‘ echkilari beozor, g‘ayratli jonivorlar bo‘lganligi sababli rahmdil, mehnatkash Farhodning ezgu amallariga xayrixohlikda uning orqa fonida aks ettirilgan.

Nigohimizni yanada balandroq cho‘qqilar sari o‘rmalayotgan bahaybat ayiqning harakatlari o‘ziga tortadi. Uning nimadandir

hadiksirab ortiga o‘girilishidan kishi ko‘ngliga shubha-xavotir oralaydi. Qoyalar atrofidagi ungurlarning biridan chiqib kelayotgan sherigini yuqoridan kuzatib turgan yirtqich qoplonning vahimali salobatidan yovuzlik alomatlari seziladi.

Kartina markaziga Farhodning bunyodkorlik ishlari joylashtirilgan. U bu yerda yuksak aql-idroki, bukilmas irodasi bilan suv chiqarish uchun tog‘ qazib, tosh yo‘nadi. Rassom asar mazmunini boyitish, qahramonlarning nafaqat tashqi qiyofalari, balki ma’naviy olamini yoritish maqsadida ranglardan mohirlik bilan foydalangan. Jumladan, Yosumanning niyati buzuqligi ustidagi kiyimi, qo‘lidagi hassasi, tizzasiga mahkam cho‘nqayib olgan maymun bolasi va u o‘tirgan tog‘ tepasidagi hayvonlarning qora rangda tasvirlanishi orqali ko‘zga tashlanadi.

Miniatyurada ko‘k rang qandaydir bezovtalik va mahzun holatni eslatadi. Tevarak-atrofdagi dov-daraxtlar, xarsang toshlarning moviy, Farhod egnidagi liboslarning quyuq ko‘k va qora rangda ifodalanishi uning boshiga yopirilib kelayotgan balo-qazodan ogoh etadi. Chunki asarda bu ranglar kimningdir yorug‘ olamni tark etishi, motam va g‘alam ramzi sifatida aks ettirilgan. Eron shohi johil Xisrav arman xalqiga yordam berayotgan Farhodni yo‘q qilish payiga tushadi. Qabih maqsadiga etishish uchun yaramas bir jodugarni yollab, uni Farhod qoshiga jo‘natadi.

Kartinaning pastki qismida Farhod va Yosuman o‘rtasida kechayotgan muloqot jarayoni tasvirlangan. Farhod ariq qaziyotgan yalanglikdagi katta xarsang ustiga yaxshilab joylashgan makkora yuziga yolg‘ondan qayg‘uli tus berib, yig‘lab, Shirinning “o‘limi” haqidagi uydirmani etkazadi. Yordan judolik daragi Farhodning yurak-bag‘rini qon qiladi. Butun borlig‘ini zimistonga aylantirgan mash‘um xabardan uning qo‘lidagi bolg‘a va teshalari har yonga sochilib ketadi. Suhbatni qoyalar ortidan mo‘ralab, yashirincha tinglayotgan notanish bir kimsaning yuz ifodalaridan uning zabun holiga achinish hislari zohir bo‘lgan. Hatto u chekkan nola-fig‘ondan ma’suma kiyiklar ham sergak tortishgan. Chuqur iztirobga tushgan Farhod boshini toshlarga urib, achchiq ko‘z yosh to‘kadi va jon taslim qiladi.

Miniatyuralar tilsimini shu tariqa yechish orqali o‘quvchilar go‘zallik, yaratuvchanlikka muhabbat, razolat va buzg‘unchilikka nafrat ruvida tarbiyalanadi, shuningdek, kichik tadqiqotlar olib borish ko‘nikmalari shakllanadi.

Demak, adabiyot fanini boshqa fanlar bilan bog‘liqlikda o‘rganish o‘quvchilarning ikki yoki undan ortiq fanlarning yagona mavzu yoki

umumiylar masalalar atrofida birlashuvi, o‘quvchilarning o‘quv-biluv darajasini oshirish, bilimlarini sintez qilish, dunyoning yaxlit manzarasi, kishilar o‘rtasidagi o‘zaro munosabat va bog‘liqlikni anglash tarzini qaror toptiradi.

Muhokama uchun savollar

Ish yakunida talabalarga quyidagicha jadval tarqatiladi va mavzu yuzasidan tegishli tavsiyalar ishlab chiqish vazifasi topshiriladi:

Savol-topshiriqlar	Natijalar
Mavzuni o‘rganishda qanday ish turlari va shakllaridan foydalandingiz?	
Bo‘lajak kasbiy faoliyat uchun zarur bo‘lgan qaysi jihatlarni o‘zlashtirdingiz?	
Bilib oldim:	
Tushunib yetdim:	
O‘rgandim:	
Mavzuni o‘zlashtirishda menga:	
Oson bo‘ldi:	
Qiyinchilik tug‘dirdi:	
Xalaqit berdi:	
1. Alisher Navoiy asarlarini o‘rganishga doir multimedia mahsulotlari tayyorlashda, asosan, nimalarga e’tibor berish kerakligini bayon eting. 2. Shoир asarlarini o‘rganishda qanday muammolar mavjudligini aniqlab, ularni bartaraf etish yo‘llarini yoriting.	

LABORATORIYA ISHI TOPSHIRIQLARI

Eslatma: barcha variantdagи 1-topshiriqda akademik litseylar “Adabiyot” o‘quv dasturi va darsliklarini tahlil qilib, Navoiy ijodining berilishi yuzasidan taqdimot tayyorlash vazifasi qo‘yilgan.

1-variant

Akademik litseylarda shoир ijodini o‘rganishga doir videomaterial tayyorlang.

Alisher Navoiy umrbayonini o‘rganishga doir audiomaterial tayyorlang.

2-variant

Alisher Navoiy siymosi aks ettirilgan rang-tasvir namunalaridan birini tanlab, uni o‘rganish yuzasidan videomaterial tayyorlang.

Alisher Navoiy siymosi aks ettirilgan rang-tasvir namunalaridan birini tanlab, uni o‘rganish yuzasidan audiomaterial tayyorlang.

3-variant

Alisher Navoiy yashagan, borgan joylarni xaritadan o‘rganib, panoramik tasvirlar tayyorlang.

Alisher Navoiy haqida yaratilgan filmlardan foydalanib videolavha tayyorlang.

4-variant

Darslikdagi “Makorim ul-axloq” asaridan berilgan parchalar asosida videomaterial tayyorlang.

Darslikdagi “Makorim ul-axloq” asaridan berilgan parchalar asosida audiomaterial tayyorlang.

5-variant

Alisher Navoiy haqida berilgan hikoyatlar asosida videomaterial tayyorlang (darslikdagi 120–121-b.).

Alisher Navoiy haqida berilgan hikoyatlar asosida (darslikning 120–121-b.) audiomaterial tayyorlang.

6-variant

“Saddi Iskandariy” dostoniga ishlangan miniatyuralar, xususan, “Iskandarning donishmandlar bilan suhbati” miniatyurasi asosida videomaterial tayyorlang .

“Saddi Iskandariy” dostonining XXXIX bobi asosida audiomaterial tayyorlang.

7-variant

“Saddi Iskandariy” dostonining XL bobi asosida videomaterial tayyorlang.

“Saddi Iskandariy” dostonining XL bobi asosida audiomaterial tayyorlang.

8-variant

“Iskandar chin mulkida” nomli “Saddi Iskandariy” dostoniga ishlangan miniatyura asosida videomaterial tayyorlang.

“Iskandar chin mulkida” nomli “Saddi Iskandariy” dostoniga ishlangan miniatyura asosida audiomaterial tayyorlang.

9-variant

“Saddi Iskandariy” dostonidagi hikmatlar asosida videomaterial tayyorlang.

“Saddi Iskandariy” dostonidagi hikmatlar asosida audiomaterial tayyorlang.

10-variant

“Iskandar va jon berayotgan Doro” nomli “Saddi Iskandariy” dostonidagi miniatyura asosida videomaterial tayyorlang.

“Iskandar va jon berayotgan Doro” nomli “Saddi Iskandariy” dostonidagi miniatyura asosida audiomaterial tayyorlang.

11-variant

“Saddi Iskandariy” dostonidan berilgan hikmat asosida videomaterial tayyorlang.

“Saddi Iskandariy” dostonidan berilgan hikmat asosida audiomaterial tayyorlang.

12-variant

“Hind hokimi Iskandar huzurida” nomli “Saddi Iskandariy” dostoniga ishlangan miniatyura asosida videomaterial tayyorlang.

“Hind hokimi Iskandar huzurida” nomli “Saddi Iskandariy” dostoniga ishlangan miniatyura asosida audiomaterial tayyorlang.

13-variant

“Saddi Iskandariy” dostonining asosiy tuzilmasi yuzasidan videomaterial tayyorlang.

“Saddi Iskandariy” dostonining asosiy tuzilmasi yuzasidan audiomaterial tayyorlang.

14-variant

Darslikda “Saddi Iskandariy” dostonidan berilgan so‘zlar lug‘ati asosida videomaterial tayyorlang.

Darslikdagi “Saddi Iskandariy” dostonidan berilgan so‘zlar lug‘ati asosida audiomaterial tayyorlang.

15-variant

“Saddi Iskandariy” dostonining XL bobi asosida videomaterial tayyorlang.

“Saddi Iskandariy” dostonining XL bobi asosida audiomaterial tayyorlang.

O‘QITISH METODLARI BO‘YICHA MATERIALLAR TAYYORLASH

Ishning maqsadi: talabalarda o‘qitish metodlari bo‘yicha materiallar tayyorlash ko‘nikmasini shakllantirish.

Foydalanish uchun adabiyotlar:

1. Husanboyeva Q., Niyozmetova R. O‘zbek adabiyotini o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma. –Toshkent: Innovatsiya-Ziyo. 2020. – 87-114-b.

2. To‘xliyev B. Adabiyot o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010. – 167 b.

3. Zunnunov va boshq. Adabiyot o‘qitish metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1992.

4. Pedagogika (pedagogika nazariyasi va tarixi). Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik. J.Hasanboyev va boshq. – Toshkent: Noshir, 2011. – 456 b.

Kerakli jihozlar: yuqori sinflar “Adabiyot” darsliklari, multimedia vositalari

Ishni bajarish tartibi:

1) o‘qitish metodlari yuzasidan nazariy bilimlarni takrorlab mustahkamlash (1-ilova);

2) ularni qo‘llash bo‘yicha qanday shakl va mazmundagi materiallar tayyorlashni aniqlab olish;


3) muayyan janrdagi asarlarni o‘rganish yuzasidan metodlarni qo‘llash mazmunini o‘rganish.

1-ilova

O‘qitish metodlari ta’lim jarayonida ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchi faoliyatining qanday bo‘lishi, o‘qitish jarayonini qanday tashkil etish va olib borish kerakligini hamda shu jarayonda ta’lim oluvchilar qanday ish-harakatlarini bajarishlari zarurligini belgilab beradi. Shuningdek, ta’lim metodi o‘qituvchi va ta’lim oluvchilarning o‘qish vazifalarini bajarishga qaratilgan nazariy va amaliy bilish faoliyati yo‘lidir.

Metodlar bir qancha asosiy guruhlardan iborat bo‘lib, ularning har biri, o‘z navbatida, kichik guruhlari va ularga kiruvchi alohida metodlarga bo‘linadi. O‘quv-biluv faoliyatini tashkil qilish va amalgalashish jarayonining o‘zi esa axborot uzatish, qabul qilish, anglash va o‘quv axborotlarini esda saqlashni hamda olinadigan bilim va ko‘nikmalami amaliyotda qo‘llay olishni nazarda tutishni hisobga


olsak, **birinchi guruh** metodlariga **so‘z orqali** axborotni uzatish va eshitish orqali qabul qilish metodlari – og‘zaki metodlar; hikoya, ma’ruza, suhbat va boshqalar; **ikkinchi guruh** metodlariga o‘quv axborotlarini **ko‘rgazmali uzatish** va ko‘rish orqali qabul qilish metodlari – ko‘rsatmali metodlar: tasviriy, namoyish qilish va boshqalar; **uchunchi guruh** metodlariga o‘quv axborotini **amaliy mehnat** harakatlari orqali berish (amaliy metodlar, mashqlar, laboratoriya tajribalari, mehnat harakatlari va boshqalar) kiradi²³. Ularni grafik organayzerlar shaklida quyidagicha aks ettirish mumkin:



Laboratoriya metodi ta’lim oluvchilarga obyektiv borliqdagi narsa-hodisalar, ularning shakli, hajmi, tarkibi, tuzilishi, o‘zgarishi va rivojlanishi yuzasidan yangi bilim berish, o‘zlashtirayotgan ilmiy bilimlarni mustahkamlash va shu asosda DTSda belgilangan malaka talablarini shakllantirishga xizmat qiladi. Bunda ta’lim beruvchi ko‘magida ta’lim oluvchilarning reja asosida tajribalar o‘tkazishi yoki amaliy vaziflarni bajarishi ko‘zda tutiladi. Ta’lim oluvchilar aynan shu jarayonda mavjud bilimlarini yangilaydi va tushunib yetadi. Shuning uchun ham ular qat’iy reja asosida ish olib boradilar.

²³ Pedagogika (pedagogika nazariyasi va tarixi). Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik. J.Hasanboyev va boshq. – Toshkent: Noshir, 2011. – 357–359-b.


Reja bu ta’lim oluvchilar tomonidan tajribalar va amaliy ishlarni o’tkazish va o‘rganishga oid ko‘rsatmalarini mujassam etuvchi ta’lim beruvchining hujjatidir. U mashg‘ulot mavzusi, ishning maqsadi, ajratilgan vaqt, mashg‘ulot mavzusining mazmuni va tegishli adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘ladi. Laboratoriya metodi deyarli barcha fanlar bo‘yicha qo‘llaniladi. Uning o‘z xususiyatiga ko‘ra quyidagicha turlari va shakllari mavjud:



Adabiy ta’limda kognitiv va kreativ metodlar. Istiqlol davri pedagogikasida bilish jarayonlarini rivojlantirish orqali yosh avlodni ijodkorlikka yo‘naltirish, mustaqil o‘qib-o‘rganish, nazariyani amaliyotga tatbiq etish masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ham kognitiv, ham kreativ jarayon bilan yaqin aloqadorligiga ko‘ra ta’limning izlanish metodi bu borada yaxshi samara beradi. Izlanish (evristik) metod o‘quvchilarda faollik, izlanuvchanlik sifatlarini shakllantirishga, muammo va uning yechimiga oid eng muhim hamda muqobil

variantlarini topishga yo‘naltiruvchi savollar orqali bilish jarayonlarini rivojlantirishga qaratilgan ta’lim berish tizimidir.

Kognitiv (“bilmoq, anglamoq, tushunmoq”) **metodlar** ta’lim oluvchilarda butun olam haqidagi mavjud bilim va tushunchalarni yanada orttirish, shuningdek, masalani tarkibiy qismlarga ajratib tadqiq qilish ko‘nikma va malakalarini shakllantirishga qaratiladi. Kognitiv o‘qitish asosida shaxsni biologik, psixologik va ijtimoiy tashkillashtirishning dinamik tizimi yotadi. Uning “strategiya va aqliy qobiliyatlarning butun majmuuni rivojlantirib, o‘qitish jarayoni va individning yangi sharoitlarga o‘rganish jarayoniga imkoniyat yaratishi”²⁴ni qayd etmoq o‘rinlidir.



So‘nggi paytlarda jahon falsafasi va tilshunoslik sohasida keng ommalashgan ushbu tahlil metodlari negizida o‘quvchilarning ongi, ruhiyati va bilish jarayonlari rivojiga ijobiy ta’sir ko‘rsatish masalalari nazarda tutiladi. Zamirida ta’limiy mahsulot yaratishga erishish va, asosan, obyektni bilish maqsadi ustuvor kognitiv metodlar natijasi o‘qituvchining o‘quvchi bilan do‘stona munosabat o‘rnatishida, darsda qulay pedagogik va psixologik muhit yarata olishida namoyon bo‘ladi. Ta’kidlash o‘rinligi, empatiya, obrazli ko‘rish, ramziy ko‘rish, evristik savollar, taqqoslash, evristik kuzatish, tadqiqot, tushunchalarni yig‘ish va ilmiy faraz (gipoteza) kabi qator metodlar kognitivlik xususiyatiga ega.

Adabiyot darslari inson kechinmalari va his-tuyg‘ularini turli rakurslarda tadqiq etish nuqtayi nazaridan ham hayotiydir. Shu bois, ta’limiy obyektlar ichiga kirib borish jarayonida o‘quvchi his qilish darajasida fikrlashga harakat qiladi. Buning samarasi o‘laroq ong va tasavvurda muayyan qahramonning omuxtalashgan tashqi va ichki

²⁴ <https://www.mirznanii.com/a/179562/kognitivnye-metody-obucheniya>

portreti, emotsiyal-bo‘yoqdor hayotiy manzaralar tasviri paydo bo‘ladi, turli fanlar doirasidagi bilimlar sarhisob qilinadi, qiyoslanib, umumlashtiriladi hamda voqelikning tub mohiyati idrok qilinadi. “Asarda tasvirlangan voqelik bilan hayot voqeligini farqlash jonli muloqot natijasidir. Kitobxon ularni taqqoslash uchun bosh qotiradi – o‘ylashga majbur bo‘ladi. Shu jarayonda asar voqeligini xayolida qayta jonlantiradi, qahramonlarning o‘rniga o‘zini qo‘yib ko‘radi, muayyan xulosalar chiqaradi. Ko‘rinadiki, u ham o‘ziga xos ijod qiladi”²⁵.

Umumiyl o‘rta ta’lim maktablari 7-sinfida “Hayrat ul-abror” dostoni “Salotin” bobidagi “Shoh G‘oziy haqida hikoyat”ni empatiya metodiga tayanib mustaqil o‘qib-o‘rganishda o‘quvchilarga quyidagicha murojaat qilish mumkin (mazkur metod mazmuni haqida avval ma’lumot berilgan):

“Tasavvur qiling, siz asar voqealari sodir bo‘lgan zamon va makonga tushib qoldingiz. O‘zingizni shoh G‘oziy qiyofasida ko‘ring. Kampir sizdan o‘g‘lining xunini talab qilmoqda. Kampirning da’vosiga nisbatan qanday chora ko‘rasiz? Uni jazolaysizmi yoki hukmdordek yo‘l tutasizmi? Jabrlanuvchi adolat talab qilgandagi holatingizni so‘z bilan ifodalang”.

Qahramonlar obraziga xayolan “kirib olish” obyekt xususiyatlarini ichdan o‘rganish, tuyg‘u va kechinmalarini anglash jarayonini integratsiyalaydi. Ta’limiy obyektlar ichiga kirish holatidagi his-tuyg‘ular (ishonch, quvonch, qoniqish, ikkilanish, qo‘rquv, nafrat, g‘azab), fikrmulohazalar o‘quvchining istiqbolda namoyon bo‘ladigan intellektual faoliyati mahsulidir. Personajlar o‘rtasidagi suhbat, tortishuv, bahsmunozaralarni aks ettirish orqali o‘quvchilarda dialoglarni monologik, polifonik nutqqa, matndagi ko‘chirmalarni o‘zlashtirma gaplarga aylantirish malakalari ham shakllantiriladi.

Empatiya metodini qo‘llashning ahamiyati o‘quvchida personajlar qiyofasiga kirish orqali obyekt muammolarini tushunish, kechinmalarini his qilish va jarayonni belgili, harakatli yoki rasmlı tarzda tasvirlash ko‘nikma va malakalari shakllanishi; mavjud imkoniyatlar yuzaga chiqishi; obyekt ichiga kirish holatida o‘quvchi o‘zini kuzatish va baholash imkoniga ega bo‘lishida namoyon bo‘ladi.

Fanda ilmiy gipoteza ilmiy dalillarga tayanishi yaxshi ma’lum. Shu nuqtayi nazardan olganda ilmiy faraz haqiqatligi isbotlanishi talab etiladigan bilimdir. **Ilmiy faraz (gipoteza)** olamdagи aniq narsa, hodisa va jarayonlarning mohiyati, qonuniyatlarini yoritish masalasi ustuvor

²⁵ Матчонов С. Умумтаълим тизимида адабиётдан мустакил ишларни ташкил этиш. Пед. фан. док. ...дисс. - Тошкент, 1998. – 84 б.

bo‘lgan metoddir. Har qanday fan empirik materiallar tahliliga tayanadi va ularni anglashdan boshlanadi. Bu esa, o‘z navbatida, ichki mohiyat, o‘zaro bog‘liqlik va munosabatlarning in’ikosi bo‘lmish yangi g‘oyalar ijod qilinishiga zamin yaratadi.

Adabiyot darslarida ilmiy faraz (gipoteza) metodini qo‘llashning afzalliklari shundaki, bunda o‘rganilayotgan mavzu doirasida savol-topshiriqlar yoki muammoli vaziyatlarning bir qator variantlari yaratilishi ko‘zda tutilib, g‘oyalarning asoslari aniqlanadi, muhokama qilinib, mantiqan mukammal hisoblangan fikr-mulohazalar tanlab olinadi.

9-sinfda Nazar Eshonqulning “Shamolni tutib bo‘lmaydi” yoki jahon adabiyotidan P.Koeloning “Alkimyogar” asarlarini mustaqil o‘rganishda “Agar Bayna momo nafrat va qasos hislarini yengishga o‘zida kuch topa bilganida edi...”, “Agar momo hayotini yangidan boshlashga urinib ko‘rganida edi...”, “Agar momo yangi avlodning samimiynun munosabatini qabul qilganida edi...” yoxud “Agar Santyago tushiga ishonmasdan qo‘ylarini boqib yuraverганida edi....”, “Agar Santyago qo‘rroqlik qilib sahroyilarga ichki imkoniyatlarini ko‘rsata olmaganida edi...” tarzidagi voqelik zamiriga chuqur yo‘naltiruvchi savol-topshiriqlar tizimi taqdim etilishi asosida ta’lim oluvchilarning metod doirasidagi faoliyatları belgilanadi. Natijalar esa mantiq va idrokka asoslangan javob variantlari shakllantirilishi bilan xulosalanadi.

“Ramziy ko‘rish” metodi. Mazkur metod obyekt va uning ramzi o‘rtasidagi aloqadorlikni aniqlash va yaratishga yo‘naltiradi. “Ramz – bu o‘zida mohiyatni mazmun etgan voqelikning chuqur obrazidir va u shu voqelikni bilish va kuzatish vositasida namoyon bo‘lishi mumkin²⁶.

Har qanday nazariya unga asos bo‘ladigan ilmiy dalil va qonunlar bilan mavjuddir. “Kognitiv nazariyada “sxema” tushunchasi qabul qilingan bo‘lib, bu tushuncha inson xotirasida mavjud bo‘lgan ma’lumotlar va xotiralar yig‘indisini bildiradi. Inson miyasi yangi ma’lumotni qabul qilayotganda o‘zida mavjud sxema bilan solishtiradi va bu sxemaga mos tushadigan ma’lumot yaxshiroq va osonroq o‘zlashtiriladi”²⁷.

Bu borada o‘quvchilarga ramzlarni matnga bog‘liq holda talqin qilish, ular o‘rtasidagi g‘oyaviy mushtaraklikni so‘z, turli belgilar yoki grafik shakllarda tasvirlashga doir topshiriqlar berish mumkin. Masalan, “Saxiy bulutdir, xirmon-xirmon don hosili, balki xazina beradi; baxil

²⁶ Турсунов Ж. Ўқувчиларда креатив қобилиятларни шакллантиришда эвристик таълим методларидан фойдаланиш // Maktab va hayot. – Тошкент, 2013. – № 3. – Б. 27.


²⁷ Жалилов К. Навоий асарларини тушунишга тайёрлаш стратегиялари / Alisher Navoiy va XXI asr. Республика илмий-назарий анжумани материаллари. – Тошкент, 2017. – Б. 235.

chumolidir, don-dun, mashoq teradi. Oliyhimmat odam – balandparvoz lochindir, behimmat – sichqon ovlovchi kalkatdir”²⁸ kabi ta’riflar misolida muayyan obyekt xususiyatlari o‘rganilib, kuzatishlar asosida uning ramziy ma’nolarini aks ettirish taklifini kiritish mumkin. Demak, kognitiv metodlar ta’lim oluvchilarning borliqni turli ramzlar orqali fikran tasavvur qilish, obyekt timsolini xayolan yaratish, voqeа-hodisalar, narsa-buyumlar o‘rtasidagi sabab-natijalar mohiyatini idrok qilish ko‘nikmasini shakllantirishga xizmat qiladi. Masalan, fikrimizga misol sifatida quyidagi qiyoslashni keltiramiz:



Kreativ metodlar. Tadqiqot xarakteridagi kreativ metodlar tarbiyalanuvchilarda maqsadga qaratilgan ijodiy tafakkurni qaror toptirib, shaxsiy ta’lim mahsuli yaratish bilan natijalanadi. U o‘z tarkibiga “O‘ylab topish”, “Agarda...”, “Obrazli tasvir”, “Giperbolizatsiya”, “Tasodifiy assotsiatsiyalar”, “Agglyutinatsiya”, “Aqliy hujum”, “Sinektika”, “Morfologik quti”, “Inversiya yoki murojaat qilish” kabi metodlarni qamrab oladi.

²⁸ Ahmedov S. va boshq. Adabiyot. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik. – Toshkent: Sharq. 2017. – 38-b.



“O’ylab topish” metodi avvaldan ma’lum bo‘lmagan aqliy faoliyat natijalari mahsulini yaratish maqsadini nazarda tutadi. Bunda muayyan bir obyektning qaysidir sifatini boshqasiga ko‘chirish orqali yangi obyekt yoki unga xos qandaydir xususiyatlarni kashf qilinadi; o‘zga sharoitda obyektga xos ma’lum jihatlar izlab topiladi; tadqiq qilingan obyekt elementlari aniqlanib, o‘zgartirishlar kiritiladi.

“O’ylab topish” metodi vositasida o‘quvchilarga muayyan bir obraz xarakterida mujassam xususiyatlarni fikran boshqasiga o‘tkazish taklifini kiritish mumkin. Mazkur jarayonda o‘quvchilar aynan qaysidir qahramonni tamomila boshqa qiyofada ko‘rishi va xayolan o‘zlarini inkishof etgan evrilishlarni yuzaga chiqarish imkoniga ega bo‘ladilar. Jumladan, taniqli adib Muhammad Alining “Ulug‘ saltanat” tetralogiyasi personajlari Amir Kayxusrav, Mahmudshoh Buxoriy, Abu Is’hoq Yasovuriy, Odilshoh jaloyir kabi xudbin amirlar Amir Temurning kechirimlilik, bag‘rikenglik, oljanoblik bobidagi xatti-harakatlari ta’sirida o‘zlarini jaholatdan asray bilgan kishilar obrazlari sifatida gavdalanishi nazarda tutiladi.

Agglyutinatsiya metodi shakl va mohiyatan qarama-qarshi narsa-buyumlar, hodisalarni yaxlit bir butunlikda ko‘ra olishga yo‘naltiradi. Evristik ta’lim metodlari ustida izlanishlar olib borgan tadqiqotchi J.Tursunovning fikricha, ushbu metod ta’lim oluvchilarga ayrim narsa va predmetlarni haqiqiy voqelikda o‘zaro muvofiq kelmaydigan belgi, sifat, xususiyat yoki qismlarga tayanib birlashtirishga qulay sharoit yaratadi. Bunga issiq qor, chuqurlik cho‘qqisi, yugurayotgan daraxt, shirin tuz, qora yorug‘lik, uchayotgan ayiq kabi obyektlar misol qilib olinadi²⁹.

²⁹ Турсунов Ж. Ўқувчиларда креатив қобилиятларни шакллантиришда эвристик таълим методларидан фойдаланиш // Maktab va hayot. – Тошкент, 2013. – № 3. – Б. 28.

Uzluksiz adabiy ta'lif jarayonida: “Ushbu metoddan qaysi mavzular doirasida foydalanish mumkin?” degan savol tug‘ilishi tabiiy. Bunda obyektning ichki va tashqi xususiyatlariga zid jihatlar tanlab olinib, masalaning asl mohiyatini teran anglash muammosi hal qilinadi. Masalan, “Qorajon – xiyonatkor va bemehr ini” (“Alpomish” dostoni), “Bo‘ri polvon – xudbin va andishasiz do‘st” (Tog‘ay Murod. “Yulduzlar mangu yonadi”), “Muhsin guppi – halol, xalqparvar boy” (Zohir A’lam. “Afandining qirq bir pashshasi”), “Tursunboy – mehribon va g‘amxo‘r o‘g‘il” (Said Ahmad. “Ufq”), Durroj – to‘g‘riso‘zlik timsoli (“Sher va Durroj”) va hokazo.

Xulosa qilganda, kognitiv va kreativ metodlar zamirida nazariy xulosalarni real shaklga keltirish, o‘quvchining yangi bilimlarni o‘zlashtirishi natijasida o‘zi kashf qilish faoliyatiga yo‘l ochish, bilim borliqdan ko‘chirilgan nusxa emas, balki inson tafakkuri mahsuli ekanligini o‘quvchilarga anglatish faoliyatiga e’tibor qaratish mavjudligini ta’kidlash mumkin.

Muhokama uchun savollar

Ish yakunida talabalarga quyidagicha jadval tarqatiladi va mavzu yuzasidan tegishli tavsiyalar ishlab chiqish vazifasi topshiriladi:

Savol-topshiriqlar	Natijalar
Mavzuni o‘rganishda qanday ish turlari va shakllaridan foydalandingiz?	
Bo‘lajak kasbiy faoliyat uchun zarur bo‘lgan qaysi jihatlarni o‘zlashtirdingiz?	
Bilib oldim:	
Tushunib yetdim:	
O‘rgandim:	
Mavzuni o‘zlashtirishda menga:	
Oson bo‘ldi:	
Qiyinchilik tug‘irdidi:	
Xalaqit berdi:	
1. Metod, texnologiya, usul, yo‘l, vosita, shakl kabi tushunchalar mazmuni, ular o‘rtasidagi farqli jihatlarni izohlang.	

2. Ularni biror janrdagi asarlarga qo'llash texnologiyasini bayon eting.

1-variant

1-topshiriq. O'quv materialini og'zaki bayon qilish metodlari yuzasidan taqdimot tayyorlang.

2-topshiriq. Ertaklarni hikoya metodidan foydalanib o'rganish yuzasidan dars ishlanmasi tayyorlang.

3-topshiriq. Darslik ustida ishlashga tayyorgarlik davri xususida amaliy tavsiya tayyorlang.

2-variant

1-topshiriq. Yuqori sinflarda ma'ruba metodini qo'llash mazmuni yuzasidan taqdimot tayyorlang.

2-topshiriq. Epik turdag'i asarlarni o'rganishda suhbat metodidan foydalanish xususida amaliy tavsiya tayyorlang.

3-topshiriq. Darslik ustida ishlash bilan bog'liq bilimlarni o'zlashtirish bosqichi xususida amaliy tavsiya tayyorlang.

3-variant

1-topshiriq. Pedagogik jarayonda atamalarni tog'ri qo'llash va amaliyotga tatbiq etish yuzasidan taqdimot tayyorlang.

2-topshiriq. Lirk asarlarni evristik metoddan foydalanib o'rganish loyihasini tuzing.

3-topshiriq. Darslik ustida ishlash billan bog'liq bilimlarni o'zlashtirish bosqichi xususida amaliy tavsiya tayyorlang.

4-variant

1-topshiriq. O'quv materialini ko'rsatmalilik asosida o'rganish yuzasidan taqdimot tayyorlang.

2-topshiriq. Adabiyot darslarida xaritalardan foydalanish yuzasidan amaliy tavsiya tayyorlang.

3-topshiriq. Adabiyot darslarida miniatyura asarlarini o'qishga o'rgatish yuzasidan tezis tayyorlang.

5-variant

1-topshiriq. Ijodkor shaxsiyatini uning portreti bilan uyg'unlikda o'rganish masalasini yoritib tezis tayyorlang.

2-topshiriq. Adabiyot darslarida virtual sayohatlar tashkil etish yuzasidan loyiha tayyorlang.

3-topshiriq. O‘quvchilarni kitob ustida ishlashga o‘rgatish mustaqil ishlarning faol usuli ekanligi yuzasidan taqdimot tayyorlang.

6-variant

1-topshiriq. Adabiyotdan laboratoriylar tashkil etish yuzasidan amaliy tavsiya tayyorlang.

2-topshiriq. Yozuvchi hayoti va ijodini tadqiqot metodi asosida o‘rganish loyihasini tuzing.

3-topshiriq. O‘quvchilarni badiiy asardan ko‘chirmalar olish faoliyatini tashkil etish bo‘yicha taqdimot tayyorlang.

7-variant

1-topshiriq. Tabiiy (aslicha ko‘rsatish mumkin bo‘lgan) ko‘rsatmali materiallarni qo‘llash yuzasidan taqdimot tayyorlang.

2-topshiriq. Adabiyot darslarida taqqoslash metodini qo‘llash loyihasini yarating.

3-topshiriq. O‘quvchilarni badiiy asar yuzasidan reja tuzishga o‘rgatish mazmunini yoritib amaliy tavsiya yozing.

8-variant

1-topshiriq. Adabiyot darslarida reproduktiv metodni qo‘llash mazmuni yuzasidan taqdimot tayyorlang.

2-topshiriq. Asar qahramonlari nutqini dialoglarga aylantirishda e’tibor qaratilishi zarur bo‘lgan jihatlar xususida amaliy tavsiya tayyorlang.

3-topshiriq. O‘quvchilarni adabiy material yuzasidan konspekt olishga o‘rgatish mazmunini yoritib tezis tayyorlang.

9-variant

1-topshiriq. Adabiyot darslarida induktiv metodni qo‘llash mazmuni yuzasidan taqdimot tayyorlang.

2-topshiriq. Og‘zaki nutqni o‘sirishga doir didaktik materiallar qanday xususiyatlarga egaligi xususida amaliy tavsiya tayyorlang.

3-topshiriq. Asarning g‘oyaviy-badiiy xususiyatini o‘rganish va umumiylarini o‘zlashtirishga doir savol-topshiriqlar tuzing.

10-variant

1-topshiriq. Yuqori sinflarda ijodiy o‘qish metodini qo‘llashga doir loyiha tuzing.

2-topshiriq. Badiiy asarni muammoli o‘qitish yuzasidan tezis yozing.

3-topshiriq. O‘zlashtirilgan adabiy-nazariy tushunchalarni mustahkamlashga doir savol-topshiriqlar tuzing.

11-variant

1-topshiriq. Yozuvchi hayoti va ijodini o‘rganishga doir videoalbum tayyorlang.

2-topshiriq. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositasida tayyorlangan didaktik materiallarning o‘quvchi psixofiziologik xususiyatlariga ta’siri yuzasidan amaliy tavsiya tayyorlang.

3-topshiriq. Badiiy asarilarda yozuvchi shaxsiyati bilan bog‘liq lavhalar aks etgan o‘rnlarni aniqlashga doir topshiriqlar tuzing.

12-variant

1-topshiriq. Tasviriylar ko‘rsatmali materiallarni qo‘llash yuzasidan taqdimot tayyorlang.

2-topshiriq. Adabiyot darslarida induktiv metodni qo‘llash mazmuni yuzasidan taqdimot tayyorlang.

3-topshiriq. Badiiy asarlarni o‘rganishda o‘qituvchining hikoyasi yuzasidan taqdimot tayyorlang.

13-variant

1-topshiriq. Amaliy metodlarni qo‘llash o‘rnlari xususida taqdimot tayyorlang.

2-topshiriq. Ko‘rsatmali materiallar asar matni mazmunini qay darajda ochib berishiga doir fikrlaringizni bayon eting.

3-topshiriq. O‘quv adabiyotlari bilan ishlash texnologiyasini yoritib tezis yozing.

14-variant

1-topshiriq. O‘quv materialini og‘zaki bayon etish metodlariga qo‘yiladigan zamonaviy talablar xususida taqdimot tayyorlang.

2-topshiriq. Badiiy asarni o‘rganishda multimedia vositalarining o‘quvchi psixologik xususiyatlariga ta’siri yuzasidan amaliy tavsiya yarating.

3-topshiriq. O‘qitishda rag‘batlantirish va tanbeh berish metodi xususida tezis tayyorlang.

15-variant

1-topshiriq. O‘qitishda nazorat va o‘z-o‘zini nazorat qilish metodi xususida amaliy tavsiya tayyorlang.

2-topshiriq. Ovozli ko‘rsatmali materiallarning tinglab tushunishdagi ahamiyatini yoritib, tezis tayyorlang.

3-topshiriq. Ta’lim metodlarining qiyosiy tahliliga doir taqdimot tayyorlang.

AKADEMIK LITSEYLAR UCHUN BOBUR HAYOTI VA IJODINI O'RGANISHGA QARATILGAN MULTIMEDIA MAHSULOTLARINI TAYYORLASH

Ishning maqsadi: talabalarni akademik litseylar uchun Bobur hayoti va ijodini o'rganishga qaratilgan multimedia mahsulotlarini tayyorlash yo'llari bilan tanishtirish.

Foydalanish uchun adabiyotlar:

1. To'xliyev B. Adabiyot o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010. – 167 b.

3. To'xliyev, B. Adabiyot [Matn] 10-sinf: darslik-majmua / B.To'xliyev va boshq. – Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2017. – 184 b.

4. To'xliyev, B. Adabiyot [Matn] 11-sinf: darslik-majmua / B.To'xliyev va boshq. – Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2018. – 200 b.

5. Захириддин Мухаммад Бобур. Бобурнома. – Тошкент: Юлдузча, 1989. – 250-б.

6. "Бобурнома" миниатюралар / Тахрир ҳайъати: А.Қаюмов, Ҳ.Султонов, Б.Алимов ва бошқ. – Тошкент: "О'qituvchi" НМИУ, 2008. – 240 б.

7. Бўлатов С. Тимсол – суратдаги сўз / Ma'rifat. – Toshkent, 2018-yil 10-fevral. – № 12 (9077). – Б. 8-9.

8. Маҳмудов Б. Портрет яратиш маҳорати // Халқ таълими. – Тошкент, 2010. – № 2. – Б. 66-67.

9. Тўхлиев Б. Адабиёт ўқитиш методикаси. Ўқув қўлланма. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2006. – 116-б.

Kerakli jihozlar: Bobur asarlari, "Boburnoma" asariga ishlangan miniatyuralar, multimedia vositalari

Ishni bajarish tartibi:

multimedia mahsulotlari haqidagi materiallar mazmuni bilan tanishish (1-ilova);

yozuvchi hayoti va ijodini o'rganish mavzusi yuzasidan metodik adabiyotlar bilan tanishish (2-ilova);

yozuvchi hayoti va ijodini o'rganish bo'yicha panoramik tasvirlar yaratish mazmunini o'rganish (3-ilova).

Multimedia (multimedia – ko‘p muhitilik) – bu kompyuter texnologiyasining turli xil fizik ko‘rinishiga ega bo‘lgan (matn, grafika, rasm, tovush, animatsiya, video va h.k.) va turli xil tashuvchilarda mavjud bo‘lgan (magnit va optik disklar, audio va videolentalar va h.k.) axborotdan foydalanish bilan bog‘liq sohasidir. Multimedia foydalanuvchiga fantastik (virtual haqiqiy) dunyoni yaratishda juda ajoyib imkoniyatlarni yaratib beradi, bunda foydalanuvchi chekkadagi sust kuzatuvchi rolini bajarmasdan, balki u yerda avj olayotgan hodisalarda faol ishtirok etadi; shu bilan birga muloqot foydalanuvchi uchun odatlangan tilda – birinchi navbatda tovushli va videoobrazlar tilida bo‘lib o‘tadi.

Multimedia – kompyuterda axborotning turli xil ko‘rinishlari: rangli grafika, matn va grafikda dinamik effektlar, ovozlarning chiqishi va sintezlangan musiqalar, animatsiya, shuningdek, to‘laqonli videokliplar, hatto videofilmlar bilan ishlashdir.

Multimedia – bu zamonaviy kompyuterli axborot texnologiyalari bo‘lib, matn, tovush, videotasvir, grafik tasvir va animatsiyani (multiplekatsiyani) yaxlit kompyuter tizimiga birlashtirish imkonini yaratadi. Multimedia amaliyotdagи ish tartibi – bu apparat-dasturiy muhit bo‘lib, kompyuterga axborotni kiritish, ishlov berish, saqlash, uzatish va matn, chizmalar, videotasvir, tovush hamda nutqlarni insonga zarur va qulay holatda yetkazishdir.

Birinchidan – foydalanuvchiga, albatta, interfaollikni taqdim etadigan, ya’ni inson va kompyuter o‘rtasida buyruqlar va javoblar almashinuvini ta’minlab, dialog muhitini yaratadigan dasturiy mahsulot.

Ikkinchidan, turli video va audio effektlar ishlatiladigan muhit. Utomoshabinga o‘zicha u yoki bu ilovani tanlash imkonini beruvchi videofilmni eslatadi.

Multimedia mahsuloti – tarkibida musiqa taraladigan, videokliplar, animatsiya, rasmlar va slaydlar galereyasi, turli ma’lumotlar bazalari va boshqalar kirishi mumkin bo‘lgan interfaol, kompyuterda ishlangan mahsulotdir.

Multimedia texnologiyasi axborotni bir vaqtning o‘zida insonga tushunarli, ko‘p shakllar (jumladan, nutq, rasm, chizma, tasvir, musiqa, raqam va harflar) kombinatsiyasida havola qila oladi. Bu texnologiya axborotni qidirish, nusxa olish va boshqa biror kompyuterga ko‘rsatilgan shaklda, ko‘chirib o‘tkaza oladi hamda ularning xohlagan kombinatsiyasini yarata oladi. Bundan tashqari, multimedia

texnologiyasidan foydalanuvchi o‘zi dizayn bilan shug‘ullana olishiga imkon beradi, shuningdek, statik (harakatsiz) va dinamik (harakatlanuvchi) tasvirlarni yaratishi hamda o‘z ijodiy ishining natijalarini aloqa kanallari orqali tashqi muhitga tarqatishi mumkin.

Multimedia vositalari – bu apparat va dasturlar to‘plami bo‘lib, u insonga o‘zi uchun tabiiy bo‘lgan turli-tuman muhitlarni: tovush, video, grafika, matnlar, animatsiya va boshqalarni ishlatgan holda kompyuter bilan muloqot qilish imkonini beradi.

Tasvirlarni ko‘rish va ular bilan ishlash uchun mo‘ljallangan dasturiy vositalarga Adobe Photoshop, Corel Photo-Paint, Paint Shop Pro, Microsoft Picture It, Visualizer Photo Studio, Pixel image editor, PixBuilder Photo Editor, Fo2Pix ArtMasterlar kiradi³⁰.

2-ilo va

Yozuvchi biografiyasi, ijodi o‘rganishga kirishilar ekan, eng avvalo, uning shaxsiyati sirini anglash zarur. Aynan yozuvchi shaxsiyati va uni o‘rab turgan atrof-muhit bu holatda asar tahlilining tayanch nuqtasi bo‘lib qoladi. Ijodkor shaxsiyati, u yashagan davr va tasvirlanayotgan hayot voqeligiga munosabatni oolib berish talabi ta’lim oluvchilarning intelektual salohiyatini rivojlantirish bilan bog‘liq bir qator vazifalar ijrosini ko‘zda tutadi. Yozuvchi ijodini o‘rganish metodikasi ilmda allaqachon o‘z yechimini topgan bo‘lsa ham jamiyatning axborotlashuvi, ta’limdagi innovatsiyalar mavjud an’analarni davrga hamohang tarzda takomillashtirishni, o‘quvchi shaxsiga yo‘naltirilgan samarali usul va metodlarni taqozo etmoqda. Bu esa, o‘z navbatida, o‘qituvchi oldiga masalaga doir maqsadli strategiyalarni tatbiq etish zaruratini ko‘ndalang qo‘yadi.

Metodik adabiyotlarda yozuvchi biografiyasini o‘rganish ularning o‘zları yozib qoldirgan hasbi hollari, zamondoshlarining e’tiroflari tarzidagi yozma materiallar, fotoalbumlar, filmlar, uy-muzeylarga sayohat, ular bilan uyuştirilgan suhbat, intervju kabi vositalarning ahamiyati bayon etiladi. Zero, bunday turdagи didaktik ashyolar professor B.To‘xliyev to‘g‘ri qayd etganiday, “badiiy ijodning o‘ziga xos xususiyatini tushunish uchun ham, adibning shaxsiyatiga aloqador bo‘lgan ma'lumotlarni oydinlashtirish uchun ham, o‘rni-o‘rni bilan esa muayyan bir adabiy hodisaning ijtimoiy-estetik ahamiyatini tasavvur etish uchun ham favqulodda katta yordam berishi mumkin bo‘ladi”³¹. Shu nuqtayi nazardan yondashilganda yozuvchi tarjimai holini turdosh fanlar

³⁰ Файзиева М., Сайфуров Д. Виртуал таълим технологияси. – Toshkent: ТДПУ, 2006. – 27-32-6.

³¹ Тўхлиев Б. Адабиёт ўқитиши методикаси. Ўкув кўлланма. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2006. – 116-6.

doirasida qiyosiy o‘rganish, fanlararo aloqaga asoslanish asarlarining g‘oyaviy-badiiy xususiyatiga chuqurroq kirish, ijodining estetik qimmati hamda jamiyat va xalq oldidagi xizmatlarini haqqoniy baholashga xizmat qiladi.

Fanlararo aloqani o‘rnatishda dastlab o‘quv materiali mazmuniga xos yetakchi xususiyatlarni aniqlash, boshqa predmetlarga tegishli bilimlardan oqilona foydalanish, mavzu mohiyatini chuqurroq yoritishga doir mustaqil ishlar o‘tkazilishi belgilansa, keyingi bosqich o‘qituvchi oldiga o‘quv jarayonining tuzilishi bilan ishlarni maqsadga muvofiq holda rejalashtirish talabini qo‘yadi. Fanlararo aloqadorlik bilimlarni integratsiyalash asosida o‘qituvchi modelini invariant va variativ qismlarga ajratishni nazarda tutadi.

Invariant tuzilishi (shaxsiy tavsifi) mazmuni ixtisosligidan qat’iy nazar, o‘qituvchining axborot madaniyati, umumta’lim tayyorgarligi darajasi hamda pedagogik-psixologik mahoratini o‘zida aks ettiradi.

Variativ tuzilishi (ixtisoslik tavsifi) esa o‘qituvchining aniq ixtisosligi, fan sohasining o‘ziga xosligi, o‘qitishning xususiy metodikasi hamda ta’lim jarayonida fanlararo bog‘lanishni amalga oshirish vositalarini mujassam etuvchi bilim va ko‘nikmalari hisoblanadi. Variativ tuzilma bilimlarga nisbatan xususiy va metodik tayyorgarlik qatorida ta’limning integrativ va umummetodologik masalalari bo‘yicha ham qo‘srimcha talablarni o‘z ichiga oladi.

Yozuvchi tarjimayi holini tasviriy san’at fani bilan bog‘lab o‘rganish, bunda turli janrlar, xususan, portret namunalariga murojaat qilish o‘qituvchi zimmasiga rang-tasvirning ifoda vositalari, san’atga doir tushunchalar mazmuni, ularga xos xususiyatlar bilan batafsil tanishish, so‘ngra o‘rganilayotgan namunalarga xoslikni belgilash va o‘quvchilar faoliyatini shu masalaga yo‘naltirish maqsadga muvofiq.

Adabiyot darslarida portret janridagi asarlarni o‘rganish quyidagilarga imkon yaratadi:

- ijodkor yashagan davr ruhini anglash;
- adabiyot va san’atning taraqqiyot tendensiyalarini belgilash;
- adabiyotning boshqa sohalar bilan aloqasini o‘rganish;
- portret janrining rivojlanish bosqichlarini kuzatish;
- muallifning individualligi va mahoratini baholash;
- asardagi asosiy elementlarni o‘qish yo‘llarini o‘zlashtirish;
- portretdagи falsafiy-psixologik mazmunni yoritish va h.k.

Ma’lumki, jahon tasviriy san’atida portret janrida Leonardo do Vinchi, Titsian, Rembranat, Repin singari iste’dodli rassomlar mahorat

bilan ijod qilishgan. O‘zbekistonda bu janr takomili A.Abdullayev, M.Nabiiev, Ch.Axmarov, J.Umarbekov, R.Ahmedov kabi mo‘yqalam ustalari faoliyati bilan uzviy bog‘liq. Portret janrida samarali qalam tebratish uchun ijodkordan zarur sifatlar talab etiladi. Xususan, bu borada B.Mahmudovning quyidagi fikrlari o‘rinlidir:

“Birinchi navbatda, rassom inson husn-jamoliga maftunkor bo‘lishi, ikkinchidan inson psixologiyasini yaxshi bilishi, uchinchidan, intellektual salohiyati baland, to‘rtinchidan, inson va tabiat, inson va jamiyat haqida teran fikr-mulohazalar sohibi bo‘lmog‘i lozim. Chunki har bir badiiy jihatdan mukammal portret yakka shaxsning shunchaki ko‘rinishi emas, balki bu shaxsning kasb-kori, millati, davri, ma’naviy qiyofasi orzu-umidlarining ifodasi bo‘ladi. Buning uchun rassom ko‘p narsalarga qiziqishi, bilishi va fikr yuritishi, olam va odamga falsafiy munosabatda bo‘lishi kerak”³². Bu jihatlar o‘quvchida obrazning tashqi qiyofasi, psixologik xususiyatlarini ochib berish bilan birga muayyan davrning ijtimoiy-madaniy manzarasi yuzasidan ham tasavvur uyg‘otadi.

Yaxshi ayonki, uzlucksiz ta’lim bosqichlarida Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti hamda “Boburnoma” asarini o‘rganishga oid aksariyat darslarda portret, miniatyura yoki illyustratsiya janridagi asarlarga murojaat qilinadi. Xususan, Bobur obraziga oid rang-tasvir namunalaridan biri XVII asrda noma’lum rassom tomonidan ishlangan portretdir³³. Mazkur asar Bobur hayoti va ijodi haqidagi materiallarda uchramaydigan ayrim jihatlarni ochishda zarur manba bo‘lishi bilan ham ahamiyatlidir.

Musavvir Bobur obrazidagi shohlik va shoirlik sifatlarini yaxlit gavdalantirish uchun mos shakl va tasvir vositalarini topa olgan. Puxta tanlangan detallar sujetning ichki mohiyatini to‘liq ochib bergen. Qahramon hayot yo‘lining yorqin va tashvishli damlarini tasviriy san’atga xos bo‘lgan badiiy umumlashtirish, ko‘p qirrali talqin, mazmun va shakl uyg‘unligi, teran mushohada asosida ko‘rsata bilgan. Bunda obrazning gavda tuzilishidagi aniqlik, ranglar uyg‘unligi, tasvir vositalarining lo‘ndaligi va shohona nafislik yaqqol ko‘zga tashlanadi. Bobur portretining tasviriy sxemasi o‘ziga xos va original, mantiqiy yechimi ham innovatsion xarakterda. Asar kompozitsiyasida detallarning mutanosibligi to‘liq ta’minlangan.

Portret namunalarini badiiy talqin qilishda san’atshunos olimlar

³² Махмудов Б. Портрет яратиш маҳорати // Халқ таълими. – Тошкент, 2010. – № 2. – Б. 66-67.

³³ “Бобурнома” миниатюралар / Ташриф ҳайъати: А. Каюмов, Х. Султонов, Б. Алимов ва бошк. – Тошкент: “О‘qituvchi” НМИУ, 2008. – 47-б.

fikrlari hamda sohadagi mavjud nazariyalardan foydalanish asarni idrok etishning samarali yo'llaridan hisoblanadi. Jumladan, noma'lum rassom yaratgan Bobur portreti tahlilida professor S.Bo'latov talqiniga³⁴ tayanish obrazning xarakter xususiyatlari, ruhiyati va ma'naviy dunyosini olib berishi qatori har bir sinchining shaxsiy talqinlariga ham imkon beradi.

Portret mazmunini o'qish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

1. Asardagi har bir elementni ajratib olish.
2. Ranglar va elementlardagi ramziylikni aniqlash.
3. Ularning ma'nosini izohlash.
4. Portretning mantiqiy yechimini topish.

Portret elementlari ma'nosini ustida ishslash. Dastlabki vazifa tasvirdagi elementlar (bulutlar, turnalar, tog'lar, salla va ukpar, mevasiz daraxt, gullagan daraxt, bulut ortidagi quyosh, ustki libos, ohular, belbog', zirak va tumor, hamyon, kitob, taxt va uning bezaklari, mahsi-kavush, suv, gullar, toshlar, rassom muhri, uzuk kabi)larni alohida ajratib olishdan iborat.

Detal va ranglardagi ramziylik ma'nosini tahlil qilish. Bunda har bir element anglatadigan ma'no o'quvchilar ko'z o'ngida shoirning tabiatini, didi, dunyoqarashi, orzu-tilishlari, hayot yo'llini jonlantirishga vosita bo'lib xizmat qiladi. Xususan:

Obrazning tashqi ko'rinishi. Yuz-ko'zlarida zuhurlangan mayinlik, vazminlik, sokinlik va nim tabassum hayot sinovlarida toblangan Bobur obrazining ma'naviy yuksalishidan dalolatdir. Salobat, viqor, nigoh, libos, umuman, har bir detal mustaqil holda obrazning badiiy-estetik mohiyatini o'zida mujassam etgan.

Bulutlar tasvirida musavvir Boburning murakkab qismatiga ishora qilgandir, balki. Zero, mazkur detalning fizik xususiyatlari, ya'ni turli shakl va ranglarda (oq, qora) namoyon bo'lishi, ma'lum vaqt ichida bir necha marta bor turlanishi, quyosh, shamol yoki yomg'ir ta'sirida harakatini o'zgartirishi shoirning *sarson-sargardonlikdagi yaxshi-yomon kunlarini* aks ettirishda qo'l kelgan. Albatta, yuqoridagi kabi tashqi omillar bulutlar holatiga ta'sir ko'rsatganidek, yaqin kishilari xiyonati, toj-taxt ilinjidagi bosqinchiliklar qahramon boshiga tushgan ko'rgiliklar sababi sifatida izohlanishga asos bo'ladi.

Turnalar tasvirining badiiy talqinida mudom yurt ishqida yongan shoir ruhiyati manzaralari, ichki kechinmalari gavdalanadi. Demak, turnalar timsoli qog'ozdag'i sog 'inch suvratidir.

Tog'lar – Bobur shaxsiyatidagi *ulug'vorlik* va *oliyanoblik* ramzi.

³⁴ Бўйлатов С. Тимсол – суратдаги сўз / Ma'rifat. – Toshkent, 2018-yil 10-fevral. – № 12 (9077). – Б. 8–9.

Bu detalda sarkardaning metin irodasi, ezgu maqsadlar yo‘lidagi chidam, matonat va qat’iyati ma’nosи mujassam. Shuningdek, tog‘lar badiiy adabiyotda ruhlantiruvchi timsol ma’nosini ham iste’foda etadi.

Salla va ukpar. Salla *shohlik belgisi*. O‘ralish uslubining dabdabaligi sohibining baland martabasi va mansub mazhabidan darak beradi. Ukpar esa Boburning yuksak *qalb sohibi*, *buyuk iste’dod egasi* ekanligini anglatadi. Bu ikki elementning sandal rangda tasvirlanishi ham bejiz emas. Zero, sandal shifobaxshlik va xotirjamlik timsolidar. Demak, insonning barcha qiyinchiliklarni yengib o‘tishida vaqt oliv hakam. Vaqt barcha narsaning davosi, bu o‘rinda ruhiy osoyishtalik belgisi hamdir.

Mevasiz daraxt qahramonning *armonlari*, taxtdan ayrilib, besamar o‘tgan kunlari ifodasidir.

Oppoq tusda gullagan daraxt Bobur *sultanatining ravnaq topishi*, *ijodining avj pallasi*, *orzu-umidlari ro ‘yobi*. Oq rang poklik, halollik va murod-maqsadga yetganlik ramzi.

Bulut ortidagi quyosh tasvirida shoirning *yorug‘ kunlarga ishonch tuyg‘ulari* yashiringan. Quyoshning gullagan daraxt tepasida botishi zamirida uning o‘zi obod qilgan o‘lkada mangu qo‘nim topganligi ma’nosini uqish mumkin.

Ustki libos (nimcha) – libosiga naqshlangan zarhal ranglardagi kiyiklar tasviri Boburning *beg‘ubor va sohir qalb egasiligiga ishora*. Nimchasiagi chizgilar *tabiatga munosabatini*, *didining qanchalik nozikligini ko‘rsatadi*. Libosidagi alvon rang ma’nosи Boburdagi aql, ilm va poklik sifatlarining birlashuvidir.

Ohular shoirning *erkinlik va maqsad sari dadil intilishi* nishonasi.

Belbog‘ tasvirining kuch-qudrat va *davlat* ma’nosida ishlangani seziladi.

Zirak va tumor. Boburning Hind o‘lkasi shohligi zirak tasvirida akslansa, tumor uning ko‘p *ofat va balolardan sog‘-omon qolganini* bildiradi. Ko‘plab xalqlarda tumor asrovchi timsol sifatida qadrlanadi.

Hamyon – boylik, davlat va farovonlik belgisi.

Kitob bilim, donolik va ijodkorlikka ishoradir.

Ko‘chma taxtiravon toj-taxtning abadiy emasligi, bugun senga, ertaga boshqasiga nasib etishi mumkinligi, ya’ni o‘tkinchilik ma’nosini o‘zida aks ettiradi. Dunyoning bir butunligi ma’nosи taxtiravonning to‘rtta oyog‘i tasviriga singdirilgan.

Taxtiravon bezaklari. Taxtiravondagi ikkita charxapalak *fonyi* va *boqiy dunyo* timsoli.

Mahsi-kavush. Suratda shohning bir oyog‘i muallaq holda turishi

uning hech qachon Vatanidan ko‘ngil uzolmagani sababi bilan izohlash mumkin. Saltanatining mustahkamligini ikkinchi oyog‘ining yerga tegib turishi bilan bog‘lash o‘rinlidir. Maxsi uchun tanlangan yashil rang tarixiga nazar solinsa, bu rangning Sharq xalqlarida hayot ramzi ekanligi, unga o‘tmish bilan kelajakni bog‘lovchi timsol sifatida qaralishi, so‘fiylik ta’limotida ham ulug‘ ranglardan sanalishi ayon bo‘ladi. Bu rang zamirida Boburning yaqin insonlari uchun qayg‘urishiga ham ishora bordek, nazarimizda. Kavushining ko‘k rangi qahramonning o‘ziga ishonchi, vazminligi-yu va boshqalarga xayrixohligini bildiradi.

Suv – hayot ramzi. Umrning yeldek o‘tishi, har bir lahzaning g‘animatligi demakdir.

Gullar timsoliga rassom go‘zallik, hayot quvonchi va undan zavqlanish hissini singdirgan. Qizil va sariq tusli chechaklar tabiatdagi ilqlikni, binafsharang esa ruhiy xotirjamlikni ifoda etgan.

Toshlar (katta-kichik) tasviriga hayotda uchrashi muqarrar bo‘lgan turli muammolar va ularni kuchli iroda bilan yengishga da‘vat ma’nosini singdirilgan.

Rassom muhri. Muhr – asar muallifining “tashrif qog‘ozi”.

Uzuk taxt sohibining siyosati, davlati mustahkamligi ma’nosini anglatadi.

Mantiqiy yechim. Bobur portretining asosiy elementlari kompozitsion sxematik joylashuvi modelini shakllantirish orqali muayyan yechimga kelish mumkin. Masalan:


kartina markazida mutolaa bilan mashg‘ul **shoir** obrazi – asosiy (yonidagi ikkita shaklga nisbatan balandroq) uchburchak shakl;

mevasiz buta – o‘ng tomondagi uchburchak shakl;

gullagan daraxt – chap tomondagi uchburchak shakl;

bulut ortidagi quyosh – orqa planda (so‘l tomon)gi aylana shaklidagi figura.

Geometrik shakllardagi o‘zaro paralellikni qarama-qarshi kuchlar: ezgulik va yovuzlik, g‘oliblik va mag‘lublik, “oq va qora kunlar”ning hamisha yonma-yon kelishi ifodasi sifatida qabul qilish mumkin. Uchburchaklarning yuqoriga bo‘ylagan qirralarini komillik, maqsadga erishish yo‘lidagi intilish deb olinsa, aylana shaklida turli xalq, din va oqimlarni birlashtirish g‘oyasi yotishini qayd etish mumkin. Kompozitsion yechim grafik tarzda quyidagi ko‘rinishni oladi:



Bobur portreti va uning mantiqiy yechimi tasviri

Asardagi har bir detal va ranglar Boburning butun hayot yo‘li, maslagi, didi va tafakkuri ma’nosini o‘zida mujassam etgan. Umuman olganda, noma’lum rassom qahramonning psixologik holatini falsafiy yo‘sinda ochib bera olgan. Bu muallifning mahorati, fantaziyasi va dunyoqarashi, asar yaratilgan davr ruhi, taraqqiyotning muhim belgisi, shuningdek, ajdodlarimiz badiiy tafakkurining yorqin namunasidir.

Xulosa qilganda, yozuvchi shaxsiyatini o‘rganishga doir har qanday ko‘rgazmali vosita aniq maqsadga yo‘naltirilsa, adabiy ta’lim samaradorligi ortadi. O‘quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyati, tasavvuri kengayishiga, badiiy-estetik didi yuksalishiga zarur shart-sharoit yaratadi. Ajdodlarimizning dunyo tamadduniga qo‘sghan hissasi xususida bilimlari ortishiga xizmat qiladi. Eng muhimi, o‘quvchiga turli manbalarda yozuvchi haqida keltirilgan materiallarda aynan aks etmagan bo‘lsa ham, uning takrorlanmas individualligi, o‘zgacha tafakkur tarzi va ijodiy fenomeni namoyon bo‘lganligidan darak beradi.

3-ilo va

Panoramik tasvirli veb sayohatlar. Virtual borliq – inson real borliqda harakat qilayotgan illyuziyasini kompyuterda yaratish imkonini beruvchi interaktiv texnologiya³⁵. Virtual borliqda reallik insonning sezgi organlari orqali emas, maxsus interfeys (foydalanuvchi, tarmoq yoki tizim o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirni aniqlash shakli), kompyuter grafikasi va ovoz yordamida hosil qilingan sun’iy axborotlar yordamida idrok qilinadi.

Multimediya ilovalari (matn, rasm, tovush, panorama, animatsiya, video) vositasida simulyasiyalangan veb sayohatlarga omma e’tiborini tortishda panoramik tasvirlar faollashtiruvchi kuch sanalib, amalda ularning suratga olingan, videofilm yoki chizilgan ko‘rinishiga murojaat qilinadi.

Kitobxonlikka oid panoramik virtual sayohatlarni asar sujeti va kompozitsion qurilishi, obraz-personaj xarakterini yoritish, matnga doir animatsiyalar ishlash, subyektga mos ovoz tanlash kabi operatsiyalar yordamida amalga oshirish mumkin. Panoramik tasvirlar interaktiv xarakterdaligi foydalanuvchini o‘ziga jalb etib, manbalarga takror munosabatni yuzaga keltiradi. Masalan, o‘quvchida biror ijodkor to‘g‘risida ma’lumot olish istagi tug‘ilsa, u muayyan joydan ta’lim

³⁵ Файзиева М., Сайфуров Д. Барча таълим йўналишлари учун “Виртуал таълим технологияси” модули бўйича ўкув-услубий мажмua. – Тошкент: Низомий номидаги ТДПУ, 2016. – 45-б.

muassasasi saytiga kirib, mavzu yuzasidan yaratilgan veb sayohatlarning faol ishtirokchisiga aylanishi mumkin.

Veb sayohatlar: dastur bo‘yicha muhim mavzularning tanlanishi; sayohat obyektining belgilanishi va unga oid muhim axborotlar omborining shakllantirilishi; zarur o‘rinlarda sujet yo‘nalishi bo‘yicha elektron xaritalar tayyorlanishi (masalan, 9-sinfda Bobur umrbayonini o‘rganishda uning lashkari bilan yurgan yo‘llari yoki shoir merosini o‘rganish borasida tashkil etilgan xalqaro ekspeditsiyaning sayohat marshruti kabi); yig‘ilgan ma’lumotlar asosida rasm yoki videotasvir olinib, panorama tayyorlanishidan yaxlit ta’limiy mahsulot darajasiga keltiriladi.

Yozuvchi ijodining takrorlanmas adabiy-estetik hodisaligini yetkazishda, albatta, tarixiy sharoit, davr ruhi, madaniyati, san’ati namunalari va an’analarini virtual akslantirish o‘quvchi badiiy didi va mantiqiy tafakkuri takomiliga bevosita daxldor. Bunda, ijodkor fotoalbomidagi suratlarga qo‘srimcha holda muqaddas qadamjolar, tarixiy yodgorliklar ansambllari, muzey, kutubxonalar, ko‘rgazmalar galereyasi, xalq amaliy san’ati namunalari, hatto o‘simgilik va hayvonot olami chizgilaridan kompleks foydalanib, ijodiy muhit yaratiladi, shu asosda o‘quvchi milliy o‘zlikni anglash ruhida kamol toptiriladi.

Ayrim tarixiy shaxslar o‘tmishiga oid fotolavhalar mavjud emasligi e’tiborga olinsa, ular yashab o‘tgan joylarning geografik tuzilishi, kitob va yaratgan kashfiyotlari mazmuni asosida maxsus panoramik jamlanma tuzishga ehtiyoj mavjudligini ta’kidlash o‘rinlidir. Masalan, 5-sinfda hadislar mavzusini o‘rganishda Samarqanddag‘i Imom al-Buxoriy me’moriy majmuasini tasvirga olib videopanorama tayyorlash, mavzu ichiga chuqurroq kirib, hatto muhaddis ma’lum muddat umrguzaronlik qilgan va tahsil olgan o‘lkalarda virtual sayrni davom ettirishga qulay muhit yaratiladi. Shuningdek, 9-sinf o‘quvchilariga mustaqil mutolaaga tavsiya qilish mumkin bo‘lgan taniqli adib Tog‘ay Murodning o‘zbek xalqi milliy an’ana va qadriyatları yaxlit kompozitsiyasi chizilgan “Oydinda yurgan odamlar” qissasidagi marosim folklori, xalq og‘zaki ijodi namunalari panoramik tasvirlar yaratishga zarur manba bo‘lishi mumkin.

Yaxshi ayonki, xalq og‘zaki ijodining epik turidan biri sanalgan afsonalarda haqiqiy hayotda ro‘y bermagan bo‘lsa ham, ro‘y berishi mumkin bo‘lgan voqealar hikoya qilinadi. Badiiy to‘qima afsona janrining yetakchi xususiyatidir. Afsonalarda o‘ylab topilgan to‘qima hikoyalarga asoslanilsa, rivoyatlarda farqli o‘larоq hayot haqiqatiga

yaqinlik xarakterlidir. “Oydinda yurgan odamlar” qissasida shaxs faoliyati hamda joy nomlarining kelib chiqishi bilan bog‘liq afsona va rivoyatlar farzandga zor qahramonlarning istaklariga bog‘lab hikoya qilinadi.

Farzandsizlik azobida o‘rtanib kul bo‘layotgan asar qahramonlari Oymomo va Qoplonbeklar farzand ilinjida har tomonga yelib-yugurishadi: aziz-avliyolar qabrlarini ziyorat qilishadi, muqaddas qadamjolarga sig‘inishadi, folchi-yu tabiblarga ko‘rinishadi. Bu kabi harakatlar ularning So‘fi Olloyor mozori poyida qo‘y so‘yib, qon chiqarish lavhasida aniqlashadi.

Xo‘sh, Olloyor otli bu zot kim? U qanday karomatli shaxs bo‘lganki xalq unga sig‘ingan? Uning nomi bilan bog‘liq qanday rivoyatlar ommalashgan?

Olloyor asli samarqandlik bo‘lib, XVII–XVIII asrlarda yashab o‘tgan. Shayxlar maktabida hamda Buxorodagi Jo‘ybor shayxlari dargohida tahsil olgan. “Murod ul-orifin”, “Tuhfat ul-tolibin”, “Maslak ul-muttan”, “Sabot ul-ojizin”, “Musannib alayhi rahmonni vasiyatları” devonlari muallifidir. Asarda Olloyor nomining ilohiyashib, avliyolashtirilishi quyidagi rivoyatga bog‘lanadi:

“Emishki, Olloyor bunday qarasa, Vaxshimorda suv bo‘lmadi.

Shunda Olloyor soy yoqalab bordi. Soy ostiga tushdi.

Bir yer namlanib turdi, suv yiltillab turdi. Olloyor shu namni tayog‘i bilan turtdi. Yerdan suv sizib-sizib chiqdi. Olloyor xalifasiga:

– Shu tayoq bilan yer chizib, Vaxshimorga iz qila ber, – dedi.

Shunda xalfasi:

– Suv pastda bo‘lsa, Vaxshimor yuqorida bo‘lsa, suv qanday qilib chiqadi? – dedi.

– Sen ilon izi qilib yuqorilab bora ber, suv chiqmasdan qolmaydi, – dedi Olloyor. Chindan-da, suv tayoq izidan yuqorilab bordi, Vaxshimorlab bordi.

Suv quyidan yuqorilab oqdi! Olloyor suvni elga ko‘z-ko‘z qildi.

– Qara – buloq! – dedi. Shu-shu, buloq Qarabuloq, deya ataldi. Mana, ikki asrdirkim, Qarabuloq quyidan yuqorilab oqdi. Qishin-yozin qurimadi. Qishda iliq bo‘ldi, yozda sovuq bo‘ldi”³⁶.

Asarda keltirilgan So‘fi Olloyor hazratlari maqbarasi bugungi kunda Surxondaryo viloyatining Oltinsoy tumanidagi Vaxshivor qishlog‘ida joylashgan. Qorabuloq gidronimi aynan shu hududga tegishli. Farzandsiz oilalarning So‘fi Olloyor ziyoratgohiga borib sig‘inishi lavhalari zamirida

³⁶ Тогай Мурод. Танланган асарлар. I жилд. – Тошкент: Шарқ, 2008. – 255-6.

xalqning yarim hayotiy, yarim xayoliy voqealarga ixlos qilishlari ma’nosini uqish mumkin. Demak, yozuvchining xalq orasidagi e’tiqodlarga ijodiy yondashishidan foydalanib, panoramik tasvirlar yaratish o‘quvchilarni yashayotgan hududlaridagi joy nomlari (toponim, gidronim, oronim) bilan bog‘liq tadqiqotlarga qiziqtirishi mumkin.

Muhokama uchun savollar

Ish yakunida talabalarga quyidagicha jadval tarqatiladi va mavzu yuzasidan tegishli tavsiyalar ishlab chiqish vazifasi topshiriladi:

Savol-topshiriqlar	Natijalar
Mavzuni o‘rganishda qanday ish turlari va shakllaridan foydalandingiz?	
Bo‘lajak kasbiy faoliyat uchun zarur bo‘lgan qaysi jihatlarni o‘zlashtirdingiz?	
Bilib oldim:	
Tushunib yetdim:	
O‘rgandim:	
Mavzuni o‘zlashtirishda menga:	
Oson bo‘ldi:	
Qiyinchilik tug‘dirdi:	
Xalaqit berdi:	
1. Yozuvchi ijodini o‘rganish bo‘yicha multimediali mahsulotlar yaratishning qanday afzallliklari bor deb o‘ylaysiz? 2. Multimedia mahsulotlari yoki panoramik tasvirli videomahsulotlar yaratishdagi muammolar yuzasidan fikrlaringizni bayon eting. Ularni bartaraf etish bo‘yicha qanday takliflar berasiz?	

LABORATORIYA ISHI TOPSHIRIQLARI

1-variant

1-topshiriq. XVII asrda noma'lum rassom tomonidan yaratilgan Bobur portreti orqali uning umr yo‘li, e’tiqodi, shaxsiyati sirini ochish mumkinligi yuzasidan kichik tadqiqot olib boring va natijasini maqola sifatida rasmiylashtiring.

2-topshiriq. Tadqiqot ishingiz natijasi asosida videomaterial tayyorlang.

3-topshiriq. Tadqiqot ishingiz natijasi asosida audiomaterial tayyorlang.

2-variant

1-topshiriq. Bobur hayotini o‘rganish yuzasidan olib borilgan taqdiqotlar bilan tanishing. Shu asosda taqdimot tayyorlang.

2-topshiriq. Bobur umrbayonini o‘rganishga doir videomaterial tayyorlang.

3-topshiriq. Bobur umrbayonini o‘rganishga doir audiomaterial tayyorlang.

3-variant

1-topshiriq. “Bobur yurgan yo‘llar” mavzusida taqdimot tayyorlang.

2-topshiriq. Xorijda Bobur ijodining o‘rganilishi yuzasidan videomaterial tayyorlang.

3-topshiriq. Xorijda Bobur ijodining o‘rganilishi yuzasidan audiomaterial tayyorlang.

4-variant

1-topshiriq. Xalqaro Bobur jamg‘armasi faoliyatini o‘rganib, adabiyot darslarida foydalanish uchun taqdimot tayyorlang.

2-topshiriq. Xalqaro Bobur jamg‘armasi faoliyatidan namunalar asosida shoir ijodini o‘rganishga doir videomaterial tayyorlang.

3-topshiriq. Xalqaro Bobur jamg‘armasi faoliyatidan namunalar asosida shoir ijodini o‘rganishga doir audiomaterial tayyorlang tayyorlang.

5-variant

1-topshiriq. Andijondagi “Bobur va jahon madaniyati” muzeyi faoliyati haqida ma’lumotlar to‘plab shoir ijodini o‘rganishga doir taqdimot tayyorlang.

2-topshiriq. “Bobur va jahon madaniyati” muzeyi faoliyatidan namunalar asosida shoir ijodini o‘rganishga doir videomaterial tayyorlang.

3-topshiriq. “Bobur va jahon madaniyati” muzeyi faoliyatidan namunalar asosida shoir ijodini o‘rganishga doir audiomaterial tayyorlang.

6-variant

1-topshiriq. Boburning Hindistondagi hayoti va faoliyati yuzasidan taqdimot tayyorlang.

2-topshiriq. “Boburnoma”dan berilgan “To‘qqiz yuz o‘n ikkinchi yil (1506–1507-y.) voqealari” parchasi matni asosida videomaterial tayyorlang.

3-topshiriq. Mashhur kishilarning Bobur haqida aytgan fikrlari asosida audiomaterial tayyorlang.

7-variant

1-topshiriq. “Boburning “Osoyish”, “Oroyish”, “Gunjoyish” va “Farmoyish” qayiqlari” nomli miniatyura asarini o‘rganishga doir taqdimot tayyorlang.

2-topshiriq. “Boburnoma”dan berilgan “To‘qqiz yuz o‘ttiz oltinchi yil (1529) voqealari” parchasi matni asosida videomaterial tayyorlang.

3-topshiriq. “Boburnoma”dan berilgan “To‘qqiz yuz o‘ttiz oltinchi yil (1529) voqealari” parchasi matni asosida audiomaterial tayyorlang.

8-variant

1-topshiriq. Darslikdagi N.G‘.Nizomiddinovning “Boburiylar davri Hindiston turkiy tili va adabiyoti” kitobidan olingan ko‘chirma asosida audiomaterial tayyorlang..

2-topshiriq. Boburning “Xazon yaprog‘i yanglig‘...” g‘azalini ifodali o‘qish yuzasidan audiomaterial tayyorlang.

3-topshiriq. Boburning “Xazon yaprog‘i yanglig‘...” g‘azalini o‘rganish yuzasidan videodars tayyorlang.

9-variant

1-topshiriq. Boburning “Xazon yaprog‘i yanglig‘...” g‘azalini sharhli o‘qish yuzasidan audiomaterial tayyorlang.

2-topshiriq. “Xazon yaprog‘i yanglig‘...” g‘azali matnidagi ma’nosini notanish so‘zlar lug‘atining elektron variantini tayyorlang.

3-topshiriq. “Xazon yaprog‘i yanglig‘...” g‘azali mazmuniga doir videomaterial tayyorlang.

10-variant

1-topshiriq. Boburning “Jonimdin o‘zga yori vafodor topmadim...” g‘azali matnnini yuzasidan taqdimot tayyorlang.

2-topshiriq. “Jonimdin o‘zga yori vafodor topmadim...” g‘azalini o‘rganish yuzasidan audiomaterial tayyorlang.

3-topshiriq. G‘azalda qo‘llanilgan tasviriy-ifodaviy vositalarini o‘rganish yuzasidan taqdimot tayyorlang.

11-variant

1-topshiriq. “Xating aro uzoring...” g‘azalini sharhli o‘qish yuzasidan audiomaterial tayyorlang.

2-topshiriq. “Xating aro uzoring...” g‘azalida qo‘llanilgan tasviriy-ifodaviy vositalarni o‘rganish yuzasidan taqdimot tayyorlang.

3-topshiriq. “Xating aro uzoring...” g‘azalida qo‘llanilgan tasviriy-ifodaviy vositalarni o‘rganish yuzasidan videomaterial tayyorlang.

12-variant

1-topshiriq. Boburning Hindistondagi faoliyatini o‘rganishga doir taqdimot tayyorlang.

2-topshiriq. Bobur ruboiylarini o‘rganishga doir audiomaterial tayyorlang.

3-topshiriq. Bobur ruboiylarini o‘rganishga doir videomaterial tayyorlang.

13-variant

1-topshiriq. Bobur g‘azallari asosida adabiy kecha tashkil etish yuzasidan videomaterial tayyorlang.

2-topshiriq. Bobur g‘azallari asosida adabiy kecha tashkil etish yuzasidan audiomaterial tayyorlang.

3-topshiriq. Bobur g‘azallari asosida tashkil etiladigan adabiy kecha uchun videorolik tayyorlang.

14-variant

1-topshiriq. Bobur ruboiylari asosida adabiy viktorina tashkil etish yuzasidan videomaterial tayyorlang.

2-topshiriq. Bobur ruboiylari asosida adabiy viktorina tashkil etish yuzasidan audiomaterial tayyorlang.

3-topshiriq. Bobur g‘azallari asosida tashkil etiladigan adabiy viktorina uchun videorolik tayyorlang.

15-variant

1-topshiriq. “Boburnoma” asarini o‘rganish uchun vebsayohat loyihasini tuzing.

2-topshiriq. “Boburnoma” asarini o‘rganish uchun panoramik tasvirlar tayyorlang.

3-topshiriq. “Boburnoma” asarini o‘rganish uchun taqdimot tayyorlang.

CHO'LTONNING “KECHA VA KUNDUZ” ASARINI OBRAZLAR TIZIMI ORQALI O’RGANISHGA QARATILGAN VIDEODARS VA TAQDIMOT TAYYORLASH

Ishning maqsadi: talabalarni Cho'lponning “Kecha va kunduz” asarini obrazlar tizimi orqali o’rganishga qaratilgan videodars va taqdimot tayyorlash yo’llari bilan tanishtirish.

Foydalanish uchun adabiyotlar:

1. Husanboyeva Q., Niyozmetova R. O’zbek adabiyotini o‘qitish metodikasi. O’quv qo’llanma. –Toshkent: Innovatsiya-Ziyo. 2020. – 352 b.

2. To’xliyev B. Adabiyot o‘qitish metodikasi. O’quv qo’llanma. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O’zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010. – 167 b.

3. To’xliyev B. Adabiyot o‘qitish metodikasi. Amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlari. –Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O’zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2012. – 144 b.

4. Qozoqboy Yo‘ldosh, Muhayyo Yo‘ldosh. Badiiy tahlil asoslari. – Toshkent: Kamalak, 20216. – 306 b.

5. Adabiyot [Matn] 11-sinf: darslik-majmua / B.To’xliyev va boshq.]. – Toshkent: “O’zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2018. – 200 b.

6. Hakimov M. Badiiy asarda qahramon, mazmun va shakl. Mavzu hamda g‘oya // Til va adabiyot ta’limi. – Toshkent, 2015. – № 3. – B. 25-26.

Kerakli jihozlar: Cho'lpon asarlari, multimedia vositalari

Ishni bajarish tartibi:

personaj, obraz, xarakter, tip va estetik ideal kabi tushunchalar mazmunini o’rganish, ularga misollar keltirish (1-ilova);

badiiy asar qahramonlari xarakter xususiyatlarini o’rganishga oid yondashuvlar mazmuni bilan tanishish;

“Kecha va kunduz” romanidagi obrazlarga xos xususiyatlarni o’rganish;

asardagi obrazlarni o’rganishga oid videodars tayyorlash yo’llarini o’zlashtirish;

muayyan qahramonning o’ziga xos xususiyatlari yuzasidan taqdimot yaratish.

1-ilova

Asarda ishtirok etadigan shaxslar badiiy asar qahramoni deb yuritiladi. U hayotiy kuzatishlar asosida yuzaga keladi, badiiy to‘qima

orqali aks ettiriladi, ma'lum g'oyani tashuvchi inson hayotini konkret va umumlashtirgan holda tasvirlaydi. Xullas, qahramonlar vositasida asar voqealari yuzaga chiqishida asarda ishtirok etadigan har qanday qahramon ham birday ahamiyatga ega emas. Ya'ni, qahramon (obraz) asarda tutgan o'rni va voqealardagi ishtirokiga ko'ra quyidagi guruhlarga bo'linadi:

1. Personaj.
2. Obraz.
3. Xarakter.
4. Tip.

Personaj (lotincha "persona" – shaxs") tutgan o'rni va vazifasidan qat'i nazar, badiiy asarga ishtirok etadigan shaxslar jamlanmasidir.

Personajlar asarda o'zining muhimlik darajasiga qarab ikki xil bo'ladi:

1. Voqealar markazida turib konfliktni hal etuvchi va ijodkor g'oyasini boshqaruvchi – *asosiy qahramon*.
2. Voqealar markazida turmay ijodkor g'oyasini ifodalovchi, uni to'ldiruvchi – *ikkinchi darajali qahramon*.

Obraz – voqealar markazida turib konfliktni hal etuvchi va jodkor g'oyasini boshqaruvchi personaj. Ya'ni, obraz personaj ichidan o'sib chiqadi va unga nisbatan tor tushunchani ifodalaydi.

Xarakter (grekcha "charakter" – "belgi", "alohida xususiyat", "o'ziga xoslik") – xususiyatlari aniq ko'rinib turuvchi mukammal qahramon. U obrazdan o'sib chiqadi. Demak, xarakter obrazga nisbatan torroq tushunchani anglatadi – har qanday obraz xarakter bo'la oladi, lekin har qanday xarakter obraz bo'la omaydi.


Tip (yunoncha "tupos" – "nusxa", "tamg'a") – qahramonning nihoyatda mukammalashgan ko'rinishi bo'lib, u xarakter singari ma'lum bir tabaqa va shaxslarga oid maishiy muammolarni emas, balki butun bir jamiyat va millat muammolarini o'zi bilan yetaklab yuradi. Shuning uchun u xarakterga nisbatan torroq tushunchani ifoda etadi.

Qahramon (obraz)larning bir-biridan o'sib chiqishi va ichki bog'lanishini bir-birining ichida joylashgan doiralar ko'rinishida tasavvur qilish mumkin.

Ijodkorning qahramon yaratishdan maqsadi o'z fikr va qarashlarini ilgari surish ekan, u qahramonlarga nisbatan neytral turmaydi. Ezgulikni ilgari suruvchi qahramonlarda insonlardagi barcha yaxshi xislatlarni, yovuzlik va xudbinlikni ilgari suruvchi qahramonlarda yomon xislatlarni

jamlashga harakat qiladi. Ezgulikni tarannum etuvchi qahramonlar **ideal** yoki **estetik ideal** deb yuritiladi.

Estetik ideal – obraz (qahramon)ning kitobxon orzusidagi ko‘rinishidir. U faqat hayotiy voqelik ko‘rinishlari asosida emas, nafosat qonuniyatlari jihatidan ham tasvirlanadi. U ijtimoiy jihatdan ham, jismoniy jihatdan ham misli ko‘rilmagan qahramonliklar ko‘rsatadi. Kitobxon go‘yo asar voqealarini u bilan birga boshdan kechiradi: ideal duch kelgan qiyinchilik va sinovlarda kitobxon ham qayg‘uradi, yaxshi kunlarida sevinadi³⁷.



Muhokama uchun savollar

Ish yakunida talabalarga quydagicha jadval tarqatiladi va mavzu yuzasidan tegishli tavsiyalar ishlab chiqish vazifasi topshiriladi:

Savol-topshiriqlar	Natijalar
Mavzuni o‘rganishda qanday ish turlari va shakllaridan foydalandingiz?	
Bo‘lajak kasbiy faoliyat uchun zarur bo‘lgan qaysi jihatlarni o‘zlashtirdingiz?	
Bilib oldim:	
Tushunib yetdim:	
O‘rgandim:	
Mavzuni o‘zlashtirishda menga:	
Oson bo‘ldi:	
Qiyinchilik tug‘dirdi:	
Xalaqit berdi:	

³⁷ Hakimov M. Badiiy asarda qahramon, mazmun va shakl. Mavzu hamda g‘oya // Til va adabiyot ta’limi. – Toshkent, 2015. – № 3. – B. 25.

- | | |
|---|--|
| <p>1. Qahramon (asosiy, yordamchi), obraz, xarakter, tip kabi tushunchalarning mazmunini tushuntirishga doir jadval tayyorlang. Bunda qanday didaktik tamoyillarga asoslandingiz?</p> <p>2. Ta’limiy mahsulot yaratish bilan bog‘liq muammolarni yoriting va ularni bartaraf etish yo’llarini tavsiya qiling.</p> | |
|---|--|

LABORATORIYA ISHI TOPSHIRIQLARI

Eslatma: barcha variantdagi 1-topshiriqda timsolli tahlilni tashkil etish mazmuni bilan tanishish vazifasi qo‘yiladi.

1-variant

Adabiyot o‘quv dasturi va darsligida Cho‘lpon ijodi, uning “Kecha va kunduz” romanini o‘rganishda e’tibor qilinishi zarur jihatlar yuzasidan taqdimot tayyorlang.

Zebi obrazining nutqini o‘rganishga oid videodars tayyorlang.

2-variant

Adabiyot o‘quv dasturi va dasrligida Cho‘lpon ijodi, uning “Kecha va kunduz” romanini o‘rganishda e’tibor qilinishi zarur jihatlar yuzasidan taqdimot tayyorlang.

Miryoqub obrazining nutqini o‘rganishga oid videodars tayyorlang.

3-variant

Adabiyot o‘quv dasturi va dasrligida Cho‘lpon ijodi, uning “Kecha va kunduz” romanini o‘rganishda e’tibor qilinishi zarur jihatlar yuzasidan taqdimot tayyorlang.

Qurvonbibi obrazining nutqini o‘rganishga oid videodars tayyorlang.

4-variant

Adabiyot o‘quv dasturi va dasrligida Cho‘lpon ijodi, uning “Kecha va kunduz” romanini o‘rganishda e’tibor qilinishi zarur jihatlar yuzasidan taqdimot tayyorlang.

Razzoq so‘fi obrazining nutqini o‘rganishga oid videodars tayyorlang.

5-variant

Adabiyot o‘quv dasturi va dasrligida Cho‘lpon ijodi, uning “Kecha va kunduz” romanini o‘rganishda e’tibor qilinishi zarur jihatlar yuzasidan taqdimot tayyorlang.

Zebi obrazining xarakter xususiyatlarini o‘rganishga oid videodars tayyorlang.

6-variant

Adabiyot o‘quv dasturi va dasrligida Cho‘lpon ijodi, uning “Kecha va kunduz” romanini o‘rganishda e’tibor qilinishi zarur jihatlar yuzasidan taqdimot tayyorlang.

Razzoq so‘fi obrazining xarakter xususiyatlarini o‘rganishga oid videodars tayyorlang.

7-variant

Adabiyot o‘quv dasturi va dasrligida Cho‘lpon ijodi, uning “Kecha va kunduz” romanini o‘rganishda e’tibor qilinishi zarur jihatlar yuzasidan taqdimot tayyorlang.

Akbarali mingboshi obrazining nutqini o‘rganishga oid videodars tayyorlang.

8-variant

Adabiyot o‘quv dasturi va dasrligida Cho‘lpon ijodi, uning “Kecha va kunduz” romanini o‘rganishda e’tibor qilinishi zarur jihatlar yuzasidan taqdimot tayyorlang.

Miryoqub obrazining xarakter xususiyatlarini o‘rganishga oid videodars tayyorlang.

9-variant

Adabiyot o‘quv dasturi va dasrligida Cho‘lpon ijodi, uning “Kecha va kunduz” romanini o‘rganishda e’tibor qilinishi zarur jihatlar yuzasidan taqdimot tayyorlang.

O‘lmas obrazining xarakter xususiyatlarini o‘rganishga oid videodars tayyorlang.

10-variant

Adabiyot o‘quv dasturi va dasrligida Cho‘lpon ijodi, uning “Kecha va kunduz” romanini o‘rganishda e’tibor qilinishi zarur jihatlar yuzasidan taqdimot tayyorlang.

Enaxon obrazining xarakter xususiyatlarini o‘rganishga oid videodars tayyorlang.

11-variant

Adabiyot o‘quv dasturi va darsligida Cho‘lpon ijodi, uning “Kecha va kunduz” romanini o‘rganishda e’tibor qilinishi zarur jihatlar yuzasidan taqdimot tayyorlang.

Akbarali mingboshi obrazining nutqini o‘rganishga oid videodars tayyorlang.

12-variant

Adabiyot o‘quv dasturi va dasrligida Cho‘lpon ijodi, uning “Kecha va kunduz” romanini o‘rganishda e’tibor qilinishi zarur jihatlar yuzasidan taqdimot tayyorlang.

Qahramonlar o‘rtasidagi dialoglarni o‘rganishga oid videodars tayyorlang.

13-variant

Adabiyot o‘quv dasturi va dasrligida Cho‘lpon ijodi, uning “Kecha va kunduz” romanini o‘rganishda e’tibor qilinishi zarur jihatlar yuzasidan taqdimot tayyorlang.

Asar qahramonlari ichki kechinmalarining tabiat bilan uyg‘unligini o‘rganishga doir videodars tayyorlang.

14-variant

Adabiyot o‘quv dasturi va dasrligida Cho‘lpon ijodi, uning “Kecha va kunduz” romanini o‘rganishda e’tibor qilinishi zarur jihatlar yuzasidan taqdimot tayyorlang.

Asardagi tabiat tasviri bilan bog‘liq lavhalarni o‘rganishga oid videodars tayyorlang.

15-variant

Adabiyot o‘quv dasturi va dasrligida Cho‘lpon ijodi, uning “Kecha va kunduz” romanini o‘rganishda e’tibor qilinishi zarur jihatlar yuzasidan taqdimot tayyorlang.

Qahramonlarning monologini o‘rganishga doir videodars tayyorlash.

AKADEMIK LITSEYLAR UCHUN ZULFIYA HAYOTI VA IJODINI O'RGANISHGA QARATILGAN MULTIMEDIA MAHSULOTLARINI TAYYORLASH

Ishning maqsadi: talabalarni akademik litseylar uchun Zulfiya hayoti va ijodini o'rganishga qaratilgan multimedia mahsulotlarini tayyorlash yo'llari bilan tanishtirish.

Foydalanish uchun adabiyotlar:

1. Husanboyeva Q., Niyozmetova R. O'zbek adabiyotini o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. –Toshkent: Innovatsiya-Ziyo. 2020. –352 b.

2. To'xliyev B. Adabiyot o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010. – 167 b.

3. To'xliyev B. Adabiyot o'qitish metodikasi. Amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari. –Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2012. – 144 b.

4. Qozoqboy Yo'ldosh, Muhayyo Yo'ldosh. Badiiy tahlil asoslari. – Toshkent: Kamalak, 2016. – 306 b.

5. Adabiyot [Matn] 11-sinf: darslik-majmua / B.To'xliyev va boshq.]. – Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2018. – 200 b.

Kerakli jihozlar: Navoiy asarlari, multimedia vositalari

Ishni bajarish tartibi:

akademik litseylar "Adabiyot" o'quv dasturi va darsliklari mazmuni bilan tanishish;

unda Zulfiya ijodining berilishini tahlil qilish;

shoira ijdini o'rganishga doir istalgan turdag'i multimedia mahsulotlarini tayyorlash yo'llari bilan tanishish;

vebinarlar tashkil etish masalasi yuzasidan ma'lumotlar to'plash, ularni adabiy ta'limga qanday tatbiq etish yo'llarini o'rganish.

Muhokama uchun savollar

Ish yakunida talabalarga quyidagicha jadval tarqatiladi va mavzu yuzasidan tegishli tavsiyalar ishlab chiqish vazifasi topshiriladi:

Savol-topshiriqlar	Natijalar
Mavzuni o‘rganishda qanday ish turlari va shakllaridan foydalandingiz?	
Bo‘lajak kasbiy faoliyat uchun zarur bo‘lgan qaysi jihatlarni o‘zlashtirdingiz?	
Bilib oldim:	
Tushunib yetdim:	
O‘rgandim:	
Mavzuni o‘zlashtirishda menga:	
Oson bo‘ldi:	
Qiyinchilik tug‘dirdi:	
Xalaqit berdi:	
1. Zulfiya ijodini o‘rganish masalasi uzluksiz adabiy ta’lim bosqichlarida qay darajada aks etganligi xususida fikr bildiring. 2. Shoira ijodi bo‘yicha tayyorlangan multimedia mahsulotingiz bundan avval o‘rganilgan boshqa ijodkorlarnikidan qaysi jihat bilan farqlandi deb o‘ylaysiz?	

LABORATORIYA ISHI TOPSHIRIQLARI

Eslatma: barcha variantdagi 1-topshiriqdida akademik litseylarda Zulfiya ijodini darsdan tashqari mashg‘ulotlar yoki mustaqil o‘qish mazmuni yuzasidan yuzasidan taqdimot tayyorlash vazifasi qo‘yiladi.

1-variant

Zulfiya hayoti va ijodini o‘rganish yuzasidan videorolik tayyorlang.

Zulfiyaning “Bog‘lar qiyg‘os gulda” she’rini o‘rganish yuzasidan videomaterial tayyorlang.

2-variant

Zulfiya hayoti va ijodini o‘rganish yuzasidan videorolik tayyorlang.

“Bahor keldi seni so‘roqlab” hikoyasini o‘rganishga doir audiomaterial tayyorlang.

3-variant

Zulfiyaning jamoat arbobi sifatidagi faoliyati yuzasidan videomatl tayyorlang.

Zulfiyaning “Xotiram siniqlari” she’rini o‘rganish yuzasidan videomaterial tayyorlang.

4-variant

Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti va uning ahamiyati yuzasidan videomaterial tayyorlang.

“Baxtim bor, ajoyib kishilar aro” she’rini o‘rganishga doir audiomaterial tayyorlang.

5-variant

“O‘g‘lim, sira bo‘lmaydi urush” she’rini o‘rganish yuzasidan videomaterial tayyorlang.

“O‘g‘lim, sira bo‘lmaydi urush” she’rini o‘rganish yuzasidan audiomaterial tayyorlang.

6-variant

Zulfiya ijodida bahor mavzusini yoritib videomaterial tayyorlang.

Zulfiya ijodida bahor mavzusini yoritib audiomaterial tayyorlang.

7-variant

Zulfiya ijodida hijron mavzusini yoritib videomaterial tayyorlang.

Zulfiya ijodida hijron mavzusini yoritib audiomaterial tayyorlang.

8-variant

Zulfiyaning hayotsevarlik, umidbaxsh tuyg‘ular tarannum etilgan she’rlari yuzasidan videorolik tayyorlang.

Zulfiyaning hayotsevarlik, umidbaxsh tuyg‘ular tarannum etilgan she’rlari yuzasidan audiomaterial tayyorlang.

9-variant

Zulfiyaning “Saodat” jurnalidagi faoliyati yuzasidan videorolik tayyorlang.

Zulfiyaning “Saodat” jurnalidagi faoliyati yuzasidan audiomaterial tayyorlang.

10-variant

“Nilufar”, Javoharlal Neru nomidagi hamda Davlat mukofotlari haqida videomaterial tayyorlang.

“Nilufar”, Javoharlal Neru nomidagi hamda Davlat mukofotlari haqida audiomaterial tayyorlang.

11-variant

“Mushoira” she’rini o‘rganish yuzasidan videomaterial tayyorlang.

“Mushoira” she’rini o‘rganish yuzasidan audiomaterial tayyorlang.

12-variant

Zulfiyaning boshqa tillardan o‘zbek tiliga tarjima qilgan asarlari ro‘yxatini tuzing va videorolik tayyorlang.

Shoiraning “Quyoshli qalam” poemasini o‘rganish yuzasidan audiomaterial tayyorlang.

13-variant

Shoiraning o‘zi o‘qigan she’rlarini topib, audioto‘plam tayyorlang.

Shoira suratlarini to‘plib videoalbum tayyorlang.

14-variant

Zulfiya ijodi yuzasidan vebinarlar tashkil etish loyihasini tuzing.

Zulfiya she’rlari asosida panoramik tasvirlar yarating.

15-variant

Shoira ijodini o‘rganish yuzasidan videokonferensiya o‘tkazish rejasini tuzing.

Shoira uy-muzeyiga veb sayohat mavzusida loyiha tayyorlang.

BADIY ASAR QAHRAMONLARINI BAHOLASHGA O'RGATISHGA YO'NALTIRILGAN DARS ISHLANMALARI TAYYORLASH

Ishning maqsadi: talabalarni badiiy asar qahramonlarini baholashga o'rgatishga yo'naltirilgan dars ishlanmalari tayyorlash yo'llari bilan tanishtirish.

Foydalanish uchun adabiyotlar:

1. Husanboyeva Q., Niyozmetova R. O'zbek adabiyotini o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. –Toshkent: Innovatsiya-Ziyo. 2020. –352 b.

2. To'xliyev B. Adabiyot o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010. – 167 b.

3. To'xliyev B. Adabiyot o'qitish metodikasi. Amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari. –Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2012. – 144 b.

4. Qozoqboy Yo'ldosh, Muhayyo Yo'ldosh. Badiiy tahlil asoslari. – Toshkent: Kamalak, 2016. – 306 b.

5. Adabiyot [Matn] 11-sinf: darslik-majmua / B.To'xliyev va boshq.]. – Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2018. – 200 b.

Boltayeva O. O'quvchilarda asar qahramonlarini tavsiflash va tanqidiy baholashni shakllantirish // Til va adabiyot ta'limi. – Toshkent, 2012. – № 12. – B. 23-, 26-27.

Kerakli jihozlar: metodik adabiyotlar, "Til va adabiyot ta'limi" jurnallari, multimedia vositalari

Ishni bajarish tartibi:

badiiy asar qahramonlarini baholashga o'rgatishga doir yondashuvlar mazmuni bilan tanishish;

dars ishlanmalari tayyorlash mazmuni bilan tanishish.

Muhokama uchun savollar

Ish yakunida talabalarga quyidagicha jadval tarqatiladi va mavzu yuzasidan tegishli tavsiyalar ishlab chiqish vazifasi topshiriladi:

Savol-topshiriqlar	Natijalar
Mavzuni o'rganishda qanday ish turlari va shakllaridan foydalandingiz?	

Bo‘lajak kasbiy faoliyat uchun zarur bo‘lgan qaysi jihatlarni o‘zlashtirdingiz?	
Bilib oldim:	
Tushunib yetdim:	
O‘rgandim:	
Mavzuni o‘zlashtirishda menga:	
Oson bo‘ldi:	
Qiyinchilik tug‘dirdi:	
Xalaqit berdi:	
1. Ta’lim oluvchilarni badiiy asar qahramonlarini baholashga o‘rgatishda e’tibor qaratilishi zarur bo‘lgan jihatlarni bayon eting. 2. Qahramonlarni baholashga doir dars ishlanmalari tayyorlashda nimalarga e’tibor qaratdingiz? Dars ishlanmasi tayyorlashga qo‘yiladigan qanday muhim talablarni o‘rgandingiz?	

LABORATORIYA ISHI TOPSHIRIQLARI

1-variant

1-topshiriq. Badiiy asar qahramonlari shaxsiy sifatlarini baholash mazmuni xususida amaliy tavsiya yozing.

2-topshiriq. A.Qodiriyning “O’tkan kunlar” romani qahramonlarini baholashga doir dars ishlanmasi tayyorlang.

2-variant

1-topshiriq. Badiiy asar qahramonlari shaxsiy sifatlarini baholash metodlari xususida amaliy tavsiya yozing.

2-topshiriq. Ch.Aytmatovning “Oq kema” asari qahramonlarini baholashga doir dars ishlanmasi tayyorlang.

3-variant

1-topshiriq. Badiiy asar qahramonlari shaxsiy sifatlarini baholash usullari xususida amaliy tavsiya yozing.

2-topshiriq. Said Ahmadning “Qoplon” hikoyasi qahramonlarini baholashga doir dars ishlanmasi tayyorlang.

4-variant

1-topshiriq. Badiiy asar qahramonlari tushib qolgan murakkab vaziyatlarning sabab va oqibatlarini aniqlashga doir amaliy tavsiya tayyorlang.

2-topshiriq. A.Qodiriyning “Mehrobdan chayon” asari qahramonlarini baholashga doir dars ishlanmasi tayyorlang.

5-variant

1-topshiriq. O‘quvchilarni badiiy asar qahramonlarini baholashga o‘rgatishga doir darslarni tashkil etish texnologiyasini yoritib tezis yozing.

2-topshiriq. Jek Londonning “Hayotga muhabbat” asari qahramonlarini baholashga doir dars ishlanmasi tayyorlang.

6-variant

1-topshiriq. Badiiy asar qahramonlari shaxsiy sifatlarini baholash usullari xususida amaliy tavsiya yozing.

2-topshiriq. “Alpomish” dostoni qahramonlarini baholashga doir dars ishlanmasi tayyorlang.

7-variant

1-topshiriq. Badiiy asar qahramonlari shaxsiy sifatlarini baholash usullari xususida amaliy tavsiya yozing.

2-topshiriq. A.Chevovning “Garov” asari qahramonlarini baholashga doir dars ishlanmasi tayyorlang.

8-variant

1-topshiriq. O‘quvchilarni badiiy asar qahramonlarini baholashga o‘rgatishga doir darslarni tashkil etish texnologiyasini yoritib tezis yozing.

2-topshiriq. Fitratning “Abulfayzzon” fofiasi qahramonlarini baholashga doir dars ishlanmasi tayyorlang.

9-variant

1-topshiriq. O‘quvchilarni badiiy asar qahramonlarini baholashga o‘rgatishga doir darslarni tashkil etish texnologiyasini yoritib tezis yozing.

2-topshiriq. O‘.Hoshimovning “Ikki eshik orasi” asari qahramonlarini baholashga doir dars ishlanmasi tayyorlang.

10-variant

1-topshiriq. O‘quvchilarni badiiy asar qahramonlarini baholashga o‘rgatishga doir darslarni tashkil etish texnologiyasini yoritib tezis yozing.

2-topshiriq. Said Ahmadning “Qorako‘z Majnun” asari qahramonlarini baholashga doir dars ishlanmasi tayyorlang.

11-variant

1-topshiriq. O‘quvchilarni badiiy asar qahramonlarini baholashga o‘rgatishga doir darslarni tashkil etish texnologiyasini yoritib tezis yozing.

2-topshiriq. Behbudiyning “Padarkush” dramasi qahramonlarini baholashga doir dars ishlanmasi tayyorlang.

12-variant

1-topshiriq. O‘quvchilarni badiiy asar qahramonlarini baholashga o‘rgatishga doir darslarni tashkil etish texnologiyasini yoritib tezis yozing.

2-topshiriq. Ch.Aytmatovning “Asarga tatigulik kun” asari qahramonlarini baholashga doir dars ishlanmasi tayyorlang.

13-variant

1-topshiriq. Badiiy asar qahramonlari shaxsiy sifatlarini baholash usullari xususida amaliy tavsiya yozing.

2-topshiriq. Shekspirning “Hamlet” asari qahramonlarini baholashga doir dars ishlanmasi tayyorlang.

14-variant

1-topshiriq. Badiiy asar qahramonlari shaxsiy sifatlarini baholash usullari xususida amaliy tavsiya yozing.

2-topshiriq. O.Yoqubovning “Ulug‘bek xazinasi” romani qahramonlarini baholashga doir dars ishlanmasi tayyorlang.

15-variant

1-topshiriq. Badiiy asar qahramonlari shaxsiy sifatlarini baholash usullari xususida amaliy tavsiya yozing.

2-topshiriq. S.Ahmadning Ufq” trilogiyasidan olingan “Qochoq” parchasi qahramonlarini baholashga doir dars ishlanmasi tayyorlang.

XULOSA

Laboratoriya pedagogik jarayonning tashkil etuvchi mashg‘ulotlaridan biri hisoblanib, uning asosiy maqsadi bo‘lajak mutaxassislarda kasbiy-pedagogik kompetentlilikni rivojlantirishdan iborat. Bu esa ta’limiy-kasbiy muhitni tashkil etish vositalari asosida amalga oshirilib, unda ta’lim jarayonini tashkil etuvchilar va ta’lim muhiti muhim o‘rin egallaydi. O‘qitish jarayoniga faoliyatli nuqtayi nazardan yondashishni talab etadigan bunday xarakterdagi mashg‘ulotlar jamiyat va hayot haqida talabalarda kengroq tasavvurlarni shakllantirish, amaliy yo‘nalganlik, fanlar integratsiyasiga asoslanishni ham taqozo etadi. Shu nuqtayi nazardan olganda, O‘zbek adabiyotini o‘qitish metodikasi fanidan laboratoriya mashg‘ulotlarini tashkil etish va o‘tkazishda kasbiy mazmundagi masalalarni yechishga e’tibor qaratish talabalarni ilmiy mushohada yuritishga o‘rgatadi, ijodiy fikrlash qobiliyatini rivotlantiradi. Ularni o‘quv fani mazmuniga chuqurroq nazar solish, jamiyat hayotini kuzatish, o‘zaro munosabatlarni tahlil qilish, tevarak-atrofda sodir bo‘layotgan voqeа-hodisa va jarayonlarning mohiyatini anglagan holda ish ko‘rishga undaydi. Bu esa, o‘z navbatida, fanga bo‘lgan jiddiy munosabatining ortishiga, bilim darajasining chuqurlashuvi va dunyoqarashining kengayishiga sabab bo‘ladi.

O‘zbek adabiyotini o‘qitish metodikasi fanidan laboratoriya mashg‘ulotlarini o‘tkazish bo‘lajak adabiyot o‘qituvchisining aniq ifodalangan kasbiy bilish faolligi bo‘yicha o‘zlashtirilgan ijtimoiy tajribani ijodiy faoliyatda va izlanish jarayonida namoyon etishini ham ko‘zda tutadi. Kelgusi pedagogik faoliyatida ko‘p duch keladigan nostandart vaziyatlarda mustaqil qarorlar qabul qilish va tahlil qilishga imkon beruvchi mantiqiy fikrlashini rivojlantiradi. O‘zining pedagogik imijini yaratish va mustahkamlashiga imkon beruvchi ichki ehtiyoohlari va imkoniyatlarini safarbar etishga yo‘naltiradi.

Laboratoriya mashg‘ulotlarining samaradorligi adabiyotshunoslik, tilshunoslik yoki ijtimoiy-gumanitar turkumdagи fanlarga oid bilimlarni integratsiyalash orqali talabalarda tanlagen kasbiga nisbatan mas’uliyat hissini oshirish, bilimlarini faollashtirish, jarayonda ko‘rsatmalilikni ta’minlashga xizmat qiladi. Faoliyatining asosini tashkil etuvchi mutaxassislik fanlarini chuqur o‘rganishga yordamlashadi, kasbiy mazmundagi o‘quv materiallarini yaratish bo‘yicha malaka hosil qiladi. Ichki ma’naviy ehtiyoji, pedagogik faoliyatiga motivatsiya beradi, eng muhimi, kelgusidagi faoliyatini yo‘lga qo‘yishga doir metod, usul, shakl va vositalaridan oqilonqa foydalanishing optimal yo‘llarini belgilashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –Toshkent: O‘zbekiston, 2016. – 76 b.
2. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-sonli Qonuni // <https://lex.uz/docs/-5013007>
3. O‘zbekiston Respublikasining “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” // Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent: Sharq, 1997. – B. 31–62.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmoni // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. – Toshkent: 2017 yil, 6-son, 70-modda.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-son Farmoni // Xalq so‘zi. – Toshkent, 2019-yil 30-aprel. № 88 (7318).
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmoni // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 09.10.2019-y., 06/19/5847/3887-son.
7. Umumi o‘rta ta’limning Davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturi. Ona tili. Adabiyot. 5–9-sinflar // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. – Toshkent: 2017-yil 14 (774)-son, 230-modda. – 29-b.
8. Ahmedov S. va boshq. Adabiyot. Umumi o‘rta ta’lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik. – Toshkent: Sharq, 2020. – 272 b.
9. Ahmedov S., Qo‘chqorov R., Rizayev Sh. Umumi o‘rta ta’lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik-majmua. II qism. – Toshkent: Ma’naviyat, 2017. –160 b.
10. Алишер Навоий асарлариға ишланган миниатюралар. Тузувчи ва сўзбоши муаллифи Фозила Сулаймонова. – Тошкент: Шарқ. 2001. – 35-б.
11. “Бобурнома” миниатюралар / Тахрир ҳайъати: А.Қаюмов, Ҳ.Султонов, Б.Алимов ва бошқ. – Тошкент: “О‘qituvchi” НМИУ, 2008. – 47-б.

12. Borlig‘im, kelajagim, taqdirimni baham ko‘rdim. Nashrga tayyorlovchi Nodira Said Ahmad qizi // Saodat. –Toshkent, 2011. – № 5-6. – 15-b.
13. Бўлатов С. Тимсол – суратдаги сўз / Ma’rifat. – Toshkent, 2018-yil 10-fevral. – № 12 (9077). – 8–9-б.
14. “Dars muqaddas” tadbiri. <https://hozir.org/dars-muqaddas.html>
15. Эгамбердиева Н. Технологии формирования читательских умений у младших школьников / Адабиёт фанини замонавий ўқитиш масалалари. Республика илмий-назарий конференция материаллари. – Тошкент, 2017. – С. 8–13.
16. Файзиева М., Сайфуров Д. Виртуал таълим технологияси. – Тошкент: ТДПУ, 2006. – 155 б.
17. Hakimov M. Badiiy asarda qahramon, mazmun va shakl. Mavzu hamda g‘oya // Til va adabiyot ta’limi. – Toshkent, 2015. – № 3. – В. 25–26.
18. Ҳасанов С. Навоийнинг етти тухфаси. – Тошкент: Fafur Fулом номидаги нашриёт матбаа бирлашмаси, 1991. – 165-б.
19. Ҳусанбоева Қ. Адабиёт – маънавият ва мустақил фикр шакллантириш омили. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2009. – 368 б.
20. Ҳусанбоева Қ.П. Адабий таълим жараёнида ўқувчиларни мустақил фикрлашга ўргатишнинг илмий-методик асослари. Пед. фан. док. ... дисс. – Тошкент, 2006. – 262 б.
21. Husanboyeva Q., Niyozmetova R. Adabiyot o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2020. – 352 b.
22. Жалилов К. Навоий асарларини тушунишга тайёрлаш стратегиялари / Alisher Navoiy va XXI asr. Республика илмий-назарий анжумани материаллари. – Тошкент, 2017. – Б. 234–236.
23. Маматов А. Нутқ маданияти ва тил нормасига оид терминлар ва тушунчалар изоҳи. – Тошкент: Баёз, 2012. – 60 86.
24. Матчонов С. Умумтаълим тизимида адабиётдан мустақил ишларни ташкил этиш. Пед. фан. док. ...дисс. – Тошкент, 1998. – 308 б.
25. Маҳмудов Б. Портрет яратиш маҳорати // Халқ таълими. – Тошкент, 2010. – № 2. – Б. 66-67.
26. Мирқосимова М.М. Ўқувчиларда адабий таҳлил малакасини шакллантириш ва такомиллаштириш усуллари. Пед. фан. док. ... дисс. – Тошкент, 1995. – 253 б.
27. Mirzayeva Z., Jalilov K. Adabiyot o‘qitish metodikasi. Metodik qo‘llanma. –Toshkent: 2020. – 145 b.

28. Ниёзметова Р.Х. Узлуксиз таълим тизимида ўзбек адабиётини ўрганишнинг назарий ва методик асослари (рус гурухлари мисолида). Пед. фан. док. ... дисс. – Тошкент, 2007. – 149-б.
29. Норқобилов Н. Тоғдаги ёлғиз одам. – Тошкент: Ўзбекистон, 2011. – 106–107-б.
30. Pedagogika (pedagogika nazariyasi va tarixi). Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik. J.Hasanboyev va boshq. – Toshkent: Noshir, 2011. – 456 b.
31. Қозоқбой Йўлдош, Муҳайё Йўлдош. Бадий таҳлил асослари. – Тошкент: Камалак, 2016. – 306 б.
32. Салимова С. Лаборатория машғулоти – бўлажак мутахассислар касбий тайёргарлигини оширишнинг муҳим омили // Kasb-hunar ta’limi. – Toshkent, 2012. – № 4. – Б. 18-20.
33. Собиров А. Она тили дарсларида какография усулидан фойдаланиш // Til va adabiyot ta’limi. – Тошкент, 2016. – № 4. – Б. 37-39.
34. Тайлақов Н.И., Элмурадов Б.Э. Лаборатория машғулотларини ташкил этишга қўйиладиган талаблар // Uzluksiz ta’lim. – Toshkent, 2009. – № 3. – Б. 74-79.
35. Турсунов Ж. Ўқувчиларда креатив қобилиятларни шакллантиришда эвристик таълим методларидан фойдаланиш // Maktab va hayot. – Тошкент, 2013. – № 3. – Б. 26–28.
36. Тоғай Мурод. Танланган асарлар. I жилд. – Тошкент: Шарқ, 2008. – 255 б.
37. To‘xliyev B. Adabiyot o‘qitish metodikasi. Amaliy mashg‘ulotlar. – Toshkent: Bayoz, 2011. – 240 b.
38. To‘xliyev B. Adabiyot o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010. – 167 b.
39. Йўлдошев Ж.Ф., Усмонов С. Замонавий педагогик технологияларни амалиётга жорий этиш. – Тошкент: Fan va texnologiya, 2008. – 84–88-b.
40. Зуннунов А. ва бошқ. Адабиёт ўқитиш методикаси. Ўқув қўлланма. – Тошкент: Ўқитувчи, 1992. – 329 б.
41. Чалмаев В.А., Зинин С.А. “Русская литература XX века” (11 кл.) при изучении предмета на базовом и профильном уровнях. Профильное обучение. 2-е изд. – Москва: 2005. – 11-12 с.
- 42.<https://www.mirznanii.com/a/179562/kognitivnye-metody-obucheniya>

MUNDARIJA

Kirish.....	3
5-sinflar uchun “Dunyoning ishlari” mavzusi yuzasidan didaktik materiallar tayyorlash.....	6
Adabiy-nazariy tushunchalarni o‘rganishga oid jadvallar tayyorlash. 6-sinfda Erkin Vohidovning “Nido” dostonining o‘rgанишiga oid elektron dars ishlanmasi tayyorlash.....	17
5-sinflarda ruboiy janrini o‘rganishga qaratilgan didaktik o‘yin texnologiyalarini ishlab chiqish.....	37
6-sinfda X.To'xtaboyev ijodini o‘rganish mavzusiga oid videodars tayyorlash.....	45
7-sinflar uchun epik asarlarni o‘qitishga qaratilgan topshiriqlar ishlab chiqish.....	52
Akademik litseylar uchun Navoiy dostonlarini o‘rganishga va tahlil qilishga qaratilgan multimedia mahsulotlari tayyorlash.....	74
O‘qitish metodlari bo‘yicha materiallar tayyorlash.....	80
Akademik litseylar uchun Bobur hayoti va ijodini o‘rganishga qaratilgan multimedia mahsulotlarini tayyorlash.....	93
Cho‘lponning “Kecha va kunduz” asarini obrazlar tizimi orqali o‘rganishga qaratilgan videodars va taqdimot tayyorlash.....	109
Akademik litseylar uchun Zulfiya hayoti va ijodini o‘rganishga qaratilgan multimedia mahsulotlarini tayyorlash.....	115
Badiiy asar qahramonlarini baholashga o‘rgatishga yo‘naltirilgan dars ishlanmalari tayyorlash.....	119
Xulosa.....	123
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.....	124

SAODAT KAMBAROVA

**O‘ZBEK ADABIYOTINI O‘QITISH
METODIKASI**

Uslubiy qo‘llanma

“Mahalla va Oila” nashriyoti

Nashriyot ro‘yxat raqami № 1043191. 24.09.2021-y.

Bosishga ruxsat etildi: 11.03.2022.

“Times New Roman” garniturasi. Qog‘oz bichimi: 60x84 $\frac{1}{16}$

Nashriyot bosma tabog‘i 8. Adadi 100 nusxa.

100000, Toshkent shahri, Mirzo Ulug‘bek tumani,

M.Ismoiliy ko‘chasi, 1G-uy.

ООО “BOOKMANY PRINT” bosmaxonasida chop etildi.

Toshkent shahri, Uchtepa tumani, 22 mavze, 17-b.